

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI**



PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA

fanidan zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tayyorlangan

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5110900- Pedagogika va psixologiya

Yangiyer-2021

Saidov Shavkat Shuhrat o'g'li. Pedagogik diagnostika va korreksiya fanidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan o'quv-uslubiy majmua . – Yangiyer 2021

“Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv uslubiy majmua talaba-yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida pedagogik diagnostika va korreksiya faoliyatining maqsadi, vazifalari, mazmuni, uni tashkil qilishning umumiy va maxsus tamoyillari, metodlari, o'quvchilarning yosh jihatlarini hisobga olgan holda ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy sifatlarni tuzatish hamda rivojlantirish metodikasining fazalari va bosqichlari yoritilgan.

Ushbu o'quv uslubiy majmua pedagogika oliy ta'lim muassasalari pedagogika va psixologiya yo'nalishi bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari, hamda ta'lim-tarbiya sohasida faoliyat yurituvchi barcha mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: *Sh.Saidov* GulDU “Pedagogika” kafedrası, stajor o'qituvchi

Ya. Nurumbekova GulDU “Psixologiya” kafedrası, p.f.d. (PhD), dotsent

Taqrizchilar: *O. Suvonov* – GulDU “Pedagogika” kafedrası, katta o'qituvchisi

O'quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti Ilmiy kengashi tomonidan ko'rib chiqilganva o'quv jarayonida qo'llashga tavsiya etilgan.

Mazkur o'quv-uslubiy majmua “Pedagogik diagnostika va korreksiya” kursidan Vazirlikning 2017 yil 1 mart 107- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim o'quv rejalari fanlarining yangi o'quv majmualarini tayyorlash bo'yicha uslubiy ko'rsatma” asosida yaratilgan

O'quv-uslubiy majmua zamonaviy pedagogik texnologiya talablariga mos ravishda ishlanib, unda o'quvmaqsadlari, nazorat savollari va mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan.

MUNDARIJA

I.	O'QUV MATERIALLARI	8
1.1.	MA`RUZA MATERIALLARI	8
1.2.	SEMINAR MASHG'ULOTLARI.....	159
II.	MUSTAQIL TA`LIM MASHG'ULOTLARI	181
III.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	190
IV.	GLOSSARIY	192
V.	ILOVALAR	203
5.1.	Pedagogik diagnostika va korreksiya fani bo'yicha fan dasturi.....	208
5.2.	Pedagogik diagnostika va korreksiyaning fani sillabusi.....	216
5.3.	Tarqatma materiallar	227
5.4.	Testlar	232
5.5.	Nazorat savollari	240

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish, ehtiyojlarning xususiylikdan umumiylikka o'sib o'tishining qondirilishi har jihatdan o'quvchi va talabalar qobiliyatlari, iste'dodlarini, ichki imkoniyatlarini, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etishni, shuningdek rivojlantirishni talab etadi. Yosh avlodning shaxs va subyekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasini aniqlarnasdan turib, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish mumkin emas.

Jamiyatning infrastrukturalarida, guruh shaxslararo munosabatlarda demokratiya printsiplarining qaror topishi, fuqarolar o'rtasida teng huquqlilik, subyektlilik, hamkorlik, hamdardlik (empatiya) mezonlari turmush tarziga aylana boshlashi kishilik dunyosining jahonshumul ijtimoiy-tarixiy g'alabasining yorqin ifodasidir. Hozirgi davrda shaxsning robotlashuviga chek qo'yilishi, o'zining mustaqil inson (subyekt) tarzida namoyon bo'lishi uchun moddiy-ma'naviy negiz barpo etilishi, shaxsiy dunyoqarash (hamilmiy, hamdiniy), barqaror e'tiqod, mustahkam pozitsiya, qat'iy iroda, o'tkir va bukilmas g'oyani egallashga imkon yaratdi. Ana shunday umumbashariyat jamiyat kasb etuvchi ijtimoiy voqelik, hodisa, ijtimoiy tasavvur va ehtiyoj mamlakatimizda shaxsni markaziy figura sifatida tan olinishi va rivojlanishning harakatlantiruvchisi tarzida baholanishi pedagogik diagnostika zaruratga aylanganligini anglatadi.

Abdulla Avloniy o'z davrida bashorat qilganidek: «Agar pedagogika insonni har tomonlarni tarbiyalashni xohlar ekan, unda insonni har tomonlarni o'rganishi zarur».

Xuddi shu bois, ta'lim-tarbiya jarayonida barkamol insonni shakllantirish lozim, uning natijasi, mahsulati orqali kreativ fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli irodali, ishchan, g'oyaviy e'tiqodli, ma'naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni kamol toptirish joiz. Chunki «subyekt-subyekt» munosabatni amalda qaror toptirmasdan turib, tarbiyalanganlik darajasini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lmaymiz. Bu o'rinda pedagogik diagnostika va коррекцияни katta ahamiyat kasb etadi, jamiyatning barkamol shaxsni yetishtirishdek maqsadiga mos kelishiaynimuddaodir.

Mazkur o'quv uslubiy majmua Oliy ta'lim tizimida pedagogika va psixologiya, amaliy psixologiya 5110900 – pedagogika va psixologiya va 5210203 –psixologiya yo'nalishlarida tahsil olayotgan bakalavr, magistr uchun mo'jallangan.

Insonshunoslik fanida inson-jamiyat, jamiyat-inson shaklida o'zaro ta'sirni taqozo etar ekan, birinchi va ikkinchisi ham to'g'ri, ham teskari aloqani o'rnatishi joiz. Ma'ruza matnidan talabalar pedagogik diagnostika va korreksiya, uni o'tkazish tartibi, yo'llari, metodlari, korreksiyalash tamoyillari bilan yaqindan tanishadilar.

Ana shu vazifalarni amaliyotda o'z ifodasini toptirishda umumiy psixologiya fani muhim rol o'ynaydi. Mutaxassislar tayyorlash jarayonida umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fani kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish borasida ustuvor o'rin egallaydi. Mazkur o'quv- uslubiy majmua umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti dasturiga asoslangan holda yaratilgan bo'lib, talabalar uchun zarur materiallar izchil ravishda, muayyan tartibda joylashtirilgan. O'quv- uslubiy majmuada umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyotiga kirish, shaxs va uning individual- tipologik xususiyatlari, bilish jarayonlari yuzasidan ma'lumotlar umumlashtirilgan. O'quv-uslubiy majmua matni oliy ta'limning barcha yo'nalishlardagi kunduzgi bo'lim talabalari uchun mo'jallangan.

Pedagogik diagnostika va korreksiya fanidan darsni yuqori ilmiy-pedagogik darajada tashkil etilishi, muammoli mashg'ulotlar o'tkazilishi, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilinishi, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan samarali foydalanish, talabalarni mustaqil fikrlashga undaydigan, o'ylantiradigan muammo savollarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka yo'naltirish, erkin muloqotga kirishishga, ilmiy izlanishga jalb qilish vaboshqa tadbirlar fan mavzularini chuqur egallashni ta'minlaydi.

O'quv-uslubiy majmua quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Pedagogik diagnostika va korreksiya fani sillabusi.
2. Nazariy materiallar (ma'ruzalar kursi)
3. Amaliy ishlarini bajarish buyicha uslubiy ko'rsatmalar.
4. Talaba mustaqil ishlari buyicha materiallar (mustaqil ish topshiriqlari)
5. Nazorat savollari va testlar.
6. Glossariy.
7. Informatsion-uslubiy ta'minot.

Ilovalar:

1. Na'munaviy va ishchi o'quv dasturlar.
2. Ingliz va rus tilidagi xorijiy o'quv materiallari (elektron shaklda).
3. Taqdimotlar va multimediya vositalari (elektron shaklda)
4. Qo'shimcha didaktik materiallar

Mazkur o'quv-uslubiy majmua "***Pedagogik diagnostika va korreksiya***" kursidan Vazirlikning 2017 yil 1 mart 107- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim o'quv rejalari fanlarining yangi o'quv majmualarini tayyorlash bo'yicha uslubiy ko'rsatma" asosida yaratilgan

O'quv-uslubiy majmua zamonaviy pedtexnologiya talablariga mos ravishda ishlanib, unda o'quv maqsadlari, nazorat savollari va mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan.

Manzilimiz: Yangiyer shahri, II mavze, GulDU Pedagogika fakulteti, «Pedagogika» kafedrası

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma- ketligi

“Pedagogik diagnostika va korreksiya” fani tanlov fan bo'lib, 3-semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan falsafa, pedagogika, odam anatomiyasi va fiziologiyasi, matematik va tabiiy fanlar bilan aloqada o'rganilib, bu fanlardan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

Fanning ta'limdagi o'rni

“Pedagogik diagnostika va korreksiya” fani pedagog kadrlarni taayyorlash jarayonida o'qitiladigan, mutaxassislik fanlarini o'zlashtirish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladigan fandir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning umumiy psixologiya fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbqiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma'ruza, seminar va laboratoriya darslarida mos ravishdagi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Shuningdek, mavjud mavzularning barchasi ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'tiladi.

Mavzular mazmuni va hajmiga qarab, ularda ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalari qo'llaniladi.

Ma'ruzalarda:

1. Taqdimot – qoidalar, jadvallar, asosiy tushunchalar namoyish etiladi va izohlanadi.

2. Munozara (baxs) – erkin va har xil fikr bildirish asosida bilim egallash.

3. Muammoli savol va vazifalar – ilmiy-nazariy ma'lumotlar bayon etilishida muammoli savol va vazifalar tahlil etiladi..

4. BxBxB – ma'ruza yakunlashda bilgan, bilib olgan va bilishni hoxlagan ma'lumotlar jadvalito'ldiriladi.

5. Tezkor savol-javob (Blits so'rov) asosiy savol tushuntirilganda yoki mavzu oxirida aniqsavollarga qisqa va lo'nda javoblar olish.

Amaliy va seminar mashg'ulotlarida:

1. Aqliy hujum – tez va har xil fikrlarni jamlash va to'g'risini aniqlash.
2. Muammoli vaziyatlar – har bir talabaning o'ziga xos bilim va dunyoqarashi, topqirligi aniqlanadi.
3. Ierarxiya – oddiydan-murakkabga, aniqdan noaniqqa va ularning teskarisini amalga oshirishorqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatish.
4. Muloqot – tinglovchilarning diqqatini o'ziga jalb etish, hamkorlikda faoliyat ko'rsatish, erkin va mustaqil fikr almashinadi.
5. Muhokama – biror nazariy qarash, g'oya, fikr, ta'limot haqida har kim o'z qarashlarini bayon etadi.
6. Shaxsiy fikr – aniq vaziyat, jarayon va olingan xulosa to'g'risida fikr bildiradi, o'zgalar fikri bilan solishtiriladi va yutuq-kamchiliklarini aniqlashtiriladi.
7. Klaster – asosiy tushuncha tarmoqlarga bo'lib chiqiladi.
8. Pinbord – taxtada yozib, yutuq-kamchiliklar tahlil qilinadi.
9. Boshqaruv – ma'lum faoliyatni tashkil etish jarayonida ishtirokchilarni boshqarish ko'nikmalari aniqlanadi.
10. Keys – stadi – aniq vaziyat, xodisalarning mohiyatini tahlil etish va aniqlash.

1.1. MA`RUZA MATERIALLARI

2-MODUL: PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA

1-MAVZU: PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA FANI HAQIDA TUSHUNCHA. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYANING NAZARIY ASOSLARI.

Asosiy savollar:

1. Pedagogik diagnostika va korreksiyaning umumiy tavsifi
2. Pedagogik diagnostikaning maqsadi, vazifalari va tamoyillari.
3. Pedagogik diagnostika funksiyalari va ijtimoiy tamoyillari
4. Pedagogik diagnostikaning jamiyatimizdagi yosh avlod ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdagi ahamiyati
5. Diagnostikaning maqsadga yo'naltirilganligi

KALIT SO'ZLAR: Pedagogika, diagnostika, ilmiy va amaliy, mazmuni, maqsadi va vazifalari, funksiyalari, shaxs, kamolot, ta'lim-tarbiya, monitoring

Diagnostika (yunon tilida «dia»- shaffof, «gnosiss»-bilim degan ma'noni bildiradi)-o'rganilayotgan obyekt yoki jarayon to'g'risida aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Diagnostikaning ahamiyatini meditsina nuqtai nazaridan qarasak, kasallik belgilari va ularni kelib chiqish sabablari to'g'ri aniqlansa, davolanish natijasida bemor tuzalib ketishining kafolati oshadi. Xato diagnoz esa faqat shifokorlarning aqliy harakatini yo'qqa chiqaribgina qolmay, balki kasalning tuzalish imkoniyatini ham susaytirishi mumkin. Tana a'zolari salomatligi to'g'risida aytilgan ushbu fikrlar ruhiy sog'liqqa ham bevosita aloqadordir.

Inson jismoniy rivojlanishini diagnoz qilish ancha oson kechadi, buning uchun ayrim mashqlar bajarilgach, uning natijasiga binoan xulosa chiqarish mumkin.

Lekin ruhiy, ma'naviy, ijtimoiy rivojlanishni diagnostika qilish mashaqqatli faoliyatning mahsulasi hisoblanadi. Bu maqsadda qo'llanayotgan metodikalar muayyan darajada murakkab bo'lib, har doim ham to'g'ri natija beraveradi, deb xulosa chiqarish, shoshilinch qaror qabul qilish noxush oqibatlariga olib keladi. Pedagogik amaliyotda pedagog-psixologlar va o'qituvchilar shaxsning alohida sifatlarini o'rganadilar, lekin olingan natijalarga asoslangan holda, rivojlanishning barcha tarkiblariga umumiy baho berishga har doim ham musharraf bo'lavermaydilar. Chunki tajriba uzluksizligini ta'minlash integrativ yondashishni taqozo etadi, ko'p omillik tahlilgina uning yechimiga ijobiy ta'sir etadi, xolos.

Ta'lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlashning, hech bo'lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Oliy va o'rta maxsus o'quv maskanlari

o'qituvchilari ko'pincha o'quvchi-yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganishga e'tibor qaratadilar, ammo ularning tarbiyalanganlik darajalarini (keng ma'noda) va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalash muammolarining uzluksiz ta'lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtai nazaridan talqin qilishga, uning yechimlarini topishga urinishmaydi. O'quvchilar va talabalarning aqliy rivojlanishlari ko'p jihatdan mustaqil fikrlashga, umumiy tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq. Ularning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, zarur bo'lsa xulqiy nuqsonlarini bartaraf etish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir.

Ijtimoiy pedagogik diagnostika- pedagogik omillarning samaradorligini oshirish maqsadida shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy -psixologik ta'sir ko'rsatish haqidagi axborotlarning majmui. Yoshlar jamoasidagi har bir shaxsning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish uchun avvalambor «tarbiya» va «tarbiyalanganlik» atamasining tarkibiy qismlari, mezonlari nimalar bilan belgilanishini tushunish zarur.

Jahon pedagogikasida «tarbiya» atamasi keng qamrovli tushuncha sifatida baholanganligi tufayli, uning mohiyati xususida turli nazariyalar mavjud. Tarbiyani kattalar (o'qituvchilar, murabbiylar va ota-onalar)ning bolalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida tushunish eng ko'p tarqalgan tendentsiyadir. Bu o'rinda kattalar to'g'ri deb hisoblaydigan, baholaydigan ideallar, maqsadlar, vazifalar, normalar va talablarga muvofiq tarzda ta'sir ko'rsatish ko'zda tutiladi, albatta.

Tarbiyani bunday tushunish haqiqatga yaqinroq, biroq u bir tomonlarna xususiyatga ega bo'lib, mazkur jarayonning faqat muayyan qismini aks ettiradi, xolos. Tarbiyaga bunday ta'rif berishda bolaga kattalarning ta'siri yo'naltirilgan obyekt sifatidagina qaraladi. Pedagogik tashxislashning asosiy maqsadi ham tashabbuskor va mustaqil shaxslarni tarbiyalashni nazarda tutadigan bo'lsa, u tarbiyalanuvchiga pedagogika jarayonida faol harakat qiluvchi subyekt rolini beradi (65, 160).

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyini tasavvur qilish orqali hosil bo'lgan obraz- «Men»-obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi insonning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi va barkamollik mezonlari bo'lib hisoblanadi.

«Men»-obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va uning tarbiyalanganlik darajasi omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, «...tarbiyani shaxsning o'zi va o'z sifatleri to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin»(85,51). Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri

anglasa, tasavvur qilsa, unda jamiyatning axloq normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kamayadi.

Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida inson kamolotida tarbiyaning o'rnini alohida ta'kidlab, «Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin, bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuv xulqdan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni kulog'iga olmaydigan, har xil buzuv ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoyi odam bo'lib chiqadi»-deb ta'kidlaydi (14,89). Shunday ekan, bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish va yechimini topishda pedagogik diagnostika hamda korreksiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik diagnostika o'z mohiyatiga binoan korreksion tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

«Korreksiya-deb ta'kidlaydi M. Quronov- hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyatdir»(156, 34).

Bir qator olimlar: (R.S. Nemov, D. V. Olshanskiy G. Broyer, G. Mattes) «Pedagogik korreksiya-tarbiya jarayonida yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy sohalarida oldin yo'l qo'ygan nuqsonlarini bartaraf etish jarayonidir»(106,79),-deb hisoblaydilar.

Fikrimizcha, korreksiyalash jarayoni-yoshlarning ongiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi va turli ijobiy qobiliyatlari hamda shaxsiy fazilatlarni shakllantiruvchi faoliyat turidir. Korreksiyalash ta'sirida ularning g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga nisbatan ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiyaviy masalalar amalga oshiriladi.

Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulq-atvor malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish kezida yoshlarning ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi.

Pedagogik diagnostika va korreksiya jarayonida shaxsning tafakkuri, ongi, hissiyoti, irodasi, qarashlari e'tibordan chetda qolsa, u holda maqsadga erishish qiyinlashadi.

«Muayyan bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi. U o'quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki illatini yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi», - deb yozadi Fleyk Xobson o'zining «Razvi-tie rebyonka i ego otnoshenie s okrujayuhimi» asarida

(143,185). Uning fikricha, shu xislatlarni tarbiyalash yoki illatlarni yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi va belgilangan maqsadni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarning qaysisini va qayerda ishlatish mumkinligi rejalashtiriladi.

Reja asosida o'tkazilgan tarbiya mohiyati ta'lim - tarbiya tizimini, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyatini tashkil qiladi. Pedagogik diagnostika va korreksiya reja asosida, tizimli va maqsadli olib borilsa, komil insonni tarbiyalashdek asrlardan beri azaliy orzuni amalga oshirish istiqbollari, imkoniyatlari ko'larni yanada kengayadi.

Islom Karimovning: «Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men, avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli kuchni tasavvur qilarnan»(10,73) deyishida chuqur nazariy va ilmiy ma'no bor.

Respublikamiz olimlari: R.H.Jo'raev, R.G'.Safarova, X.I.Ibragimov, U. Q.Musaevar tomonidan yaratilgan «Pedagogika fani Konsepsiyasi»da ham pedagogika fani ta'lim-tarbiya darajasi hamda shaxsning ma'naviy qiyofasi, uni sotsiokorreksiya qilish yo'llari va qonuniyatlari, insonning intellektual salohiyati orasidagi aloqadorlikni har tomonlarni o'rganib, ilmiy jihatdan asoslab berishi kerakligi alohida ta'kidlangan. «Bunda pedagogik diagnostika hamda diagnostikaning asosiy yo'nalishlaridan biri-kognitiv diagnostika usulidan foydalanish ko'zda tutiladi», deb alohida qayd etiladi (67,8). Xuddi shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, o'quv muassasalari ta'lim-tarbiya ta'sirchanligini oshirish yo'llarini tadqiq etish taqozo etiladi.

Pedagogikada ilgari yetarli darajada e'tibor berilmagan yo'nalish-pedagogik diagnostika shaxsning ma'naviy qiyofasini sotsiokorreksiyalash, xususan, o'qish va xulq-atvordagi nuqsonlarni bartaraf etish masalalari bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo'lib borishi bilan belgilanadi va u quyidagilarda o'z aksini topadi:

1.Mafkuraviy tizimning o'zgarishi, ijtimoiy yangilanish tarbiyalanganlikka yangicha yondashish, qarash, munosabat, mezon, talab, mohiyat, mazmun, shakl, atribut taqozo etishi.

2.Milliylik bilan diniylikning uyg'unlikka ega ekanligi, millatlararo munosabatlardagi bag'rikenglik tarbiyalanganlik fenomenologiyasi ko'larni yanada kengaytirishni talab qilishi.

3. Bilimdonlik va tarbiyalanganlik zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol yondashuv asosida talqin qilinishiga ijtimoiy zarurat tug'ilishi.

4.Pedagogik tadqiqotlarda psixologik nazariya va amaliy-ilmiy apparatni qo'llanilishi, muhitga muvofiqlantirilishi tendensiyasi kuchayishi.

5. Test, testologiya (prinsiplari, funksiyalari, parametrlari, interpretatsiyasi) hamda matematik statistika imkoniyatlaridan foydalanilishi, diagnostika, korreksiya turkumlari tatbiqiyligi namoyish etilishi.

6. Xulq-atvorda og‘ish, ya’ni deviant holati ko‘larni kengayishi va uni bartaraf qilish ehtiyoji umumbashariy ahamiyat kasb etishi kabilar.

Yoshlar jamoasida pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya ishlari metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilganda jamiyatning har bir a‘zosi ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirishda, mafkuraviy immunitet hosil qilishda, ularning o‘zligini anglashda, vatanparvarlik va fidoiylilik tuyg‘ularini, millatlararo totuvlikni, diniy bag‘rikenglikni, tolerantlikni shakllantirishda hamda komil insonga xos bo‘lgan fazilatlarni: sofdillik, to‘g‘riso‘zlik, adolatparvarlik, saxovatlilik, or-nomuslik, tantilik sifatlarini tarkib toptirishda ijobiy samaralarga erishish mumkin.

Bu yo‘nalish mustaqil O‘zbekistonning har tomonlarni rivojlanishida, jamiyat a‘zolarining ma’naviy-ma’rifiy hayotida paydo bo‘lgan muammolarini muvaffaqiyatli hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishning ilmiy-nazariy yo‘nalishini belgilashda xorijiy olimlardan: Karlxaynts Ingenkamp, Ingo Xartman, Linert, Frike, Lyumann, Rorshax, Diderix, Xeginger, Baxmayr(Germaniya); Bolsho, Burk, Rollet, Royleke (Angliya); Jorj Fisher, Jeyms Rays, T.Stoun(Amerika); A. V. Mudrik, V. D. Semyonova, G. N. Filova, S. D. Smirnov I. V. Dubrovina, Y. Langmeyer, G. M. Breslav, L. P. Fridman, E. I. Rogov (Rossiya), va tadqiq qilinayotgan muammoga dahldor o‘quv-uslubiy adabiyotlar, respublikamiz olimlari: M. Quronov, R. Safarova, O. To‘raeva, R. Mavlonova, V. Karimova, X. I. Ibragimov, O. Musurmonova, O. Hasanboeva, K. Zaripov va L. Maxmudovalarning pedagogik diagnostikaga oid tadqiqotlari, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqolalari, qarashlari salmoqli o‘rin tutadi.

Shaxsning ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishiga bag‘ishlangan ilg‘or pedagogik tajribalar (E. Shpranger, K. Byuler, L.P. Fridman, E. G‘oziev, R. Toshimov), ta’limga tizimli yondashuv (B.F. Lomov, V. V. Davidov, A. K. Markova, L. I. Aydarova), shaxsning kognitivistik tarbiyasi (J. Piaje, D. Bromley, J. Birrer, D. B. Elkonin, A. Vallon), personologik nazariyalar ta’limoti(A. Maslou, J. Kelli, L. Kolberg), ma’rifatli, ishbilarmon va ziyoli, e’tiqodi kuchli shaxs tarbiyasi konsepsiyasi (Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy), o‘quvchilarning ma’naviy tarbiyasi va rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi (Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, I.G. Pestalotsti, I. F. Gerbart, J. Dyui, V. V. Rubtsov, L. V. Zankov), tarbiyaviy ta’lim Konsepsiyasi (N. Leontev, L. A. Karpenko, G. K. Lozanov, G. A. Kitaygorodskaya, O. Musurmonova, R. Inog‘omov, K. Toshmurodov, J. Hasanboev) tahlil etish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy, oʻrta maxsus va umumiy oʻrta taʼlim muassasalari tahsil oluvchilarining bilimdonlik darajasini qilish masalalari muayyan darajada oʻrganilgan boʻlsa-da, lekin bugungi kunga qadar yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalashni taʼminlaydigan yaxlit pedagogik nazariyasi va amaliyotga tatbiq etish yoʻllari tadqiq etilmagan.

Pedagogik diagnostikaning jamiyatimizdagi yosh avlod ichki imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishdagi ahamiyatini ilmiy asoslab berish, ularning maʼnaviy qiyofasi, ularni sotsiokorreksiya qilish yoʻllari va qonuniyatlari, intellektual salohiyati orasidagi aloqadorlikni aniqlash, mavjud maʼnaviy-maʼrifiy ishlarning bugungi holatidan kelib chiqqan holda uning taʼlim bosqichlariaro uzviylik va uzluksizligini taʼminlaydigan metodikani yaratish dolzarb muammo hisoblanadi.

Agar:

- birinchidan, yoshlarning maʼnaviy-maʼrifiy sohadagi bilimlari, ularning individual-psixologik xususiyatlari, motivatsion sohasi atroflicha oʻrganilganda;

- ikkinchidan, ularning tarbiyalanganlik darajasini tashxislaydigan va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalaydigan mavjud metodikalar chuqur tahlil etilib, ulardan amalda foydalanish tizimi ishlab chiqilganda;

- uchinchidan, yoshlar uchun yaxlit uzluksiz tarbiya tizimini taʼminlaydigan metodik majmualar yaratilganda;

- toʻrtinchidan, turli tarbiyaviy tadbirlar (suhbatlar, kechalar, treninglar, sport-shoulari, maʼnaviy-maʼrifiy sohadagi bellashuvlar) uyushtirilib, ularning imkoniyati, qiziqishlari, kamolot bosqichlari, jinsiy tafovutlari inobatga olingan holda turli jamiyat, klub va toʻgaraklarga jalb qilinganlarida;

- beshinchidan, ularning intellektual rivojlanishlari va qobiliyatlari, oila, mahalla, guruh va oʻquv muassasadagi pedagogik- psixologik muhit atroflicha oʻrganilganda, oliy va oʻrta taʼlim maktabi bilan oila hamkorligi rivojlantirilganda;

- oltinchidan, ijtimoiy pedagog nufuzi va imtiyozlari yuqori darajaga koʻtarilganda;

- yettinchidan, barcha davlat va nodavlat taʼlim muassasalarida ijtimoiy pedagog ishchi oʻrni joriy qilinib, ularning maxsus dastur va reja asosida faoliyat koʻrsatishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratilsa, pedagogik diagnostika va korreksiyalash markazlari tashkil qilinsa, yoshlarning bilim olish va tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqini korreksiyalash jarayoni samarali kechishi mumkin.

Yoshlarning kamolot darajasini diagnostika qilishda va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashda intellektual va tarbiyalanganlik darajasi orasidagi aloqadorlikni aniqlash, xalq pedagogikasi tajribalarini zamon talablari bilan uygʻunlashtirish, taʼlim-tarbiya tizimini qulaylashtirish, komil inson fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan milliy qadriyatlar va ilgʻor metodikalar uzluksiz taʼlim tizimida tahsil

olayotgan yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini takomillashtirishda muhim yo‘nalish sifatida pedagogik diagnostika va korreksiyaning konseptual asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik diagnostika va korreksiyaning metodologik asosi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ta’lim-tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan asarlari, nutq va ma’ruzalarida ilgari surilgan ma’naviy-ma’rifiy muammolarga doir nazariy yondashuvlari, qarashlari; Davlatimiz Konstitutsiyasi, «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Pedagogika Fani Konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi qarorlari, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim, Xalq ta’limi vazirliklarining me’yoriy hujjatlari, Sharq mutafakkirlarining tarbiyaga oid ta’limotlari, Sharq va G‘arb pedagogikasidagi nazariy yondashuvlar, axloq, estetika, ta’lim-tarbiya sohasidagi tajribalar, zamonaviy metodologiya, pedagogika, psixologiya va metodika sohasidagi ilg‘or g‘oyalar, tamoyillar, qonuniyatlar.

Shakllanib borayotgan demokratik huquqiy davlatning yoshlarga nisbatan amalga oshirayotgan siyosati yigit va qizlarga o‘z qobiliyati va iste’dodini to‘la ro‘yobga chiqarishda, yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga faolroq qo‘shilishga yordam berishdan iboratdir. Shu jihatdan mazkur ishning yangiligi o‘z qirralarini yanada yorqinroq namoyish etishga imkoniyat yaratadi.

«Pedagogik diagnostika» atamasi ilk bor 1968-yili nemis olimi Karlxaynts Ingenkamp tomonidan fanga kiritildi.

K. Klauer (Germaniya), B.Burk, Rollet(Angliya), S.D. Smirnova, I. V. Dubrovina (Rossiya) va boshqa bir qator olimlarning «pedagogik diagnostika»ning «psixologik diagnostika» zahirida tug‘ilganligini ta’kidlashlari, albatta, o‘rinsiz. Bir paytlari psixologik diagnostika biologiya va tibbiyotning tashxis modellarini andoza qilib olgani kabi pedagogik diagnostika ham zarur bo‘lganda psixologik ilmiy-tadqiqot metodlardan o‘z o‘rnida foydalandi. Pedagogik, psixologik, sotsiologik adabiyotlar tahlili tashxislashga turli qarashlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu pedagog shaxsining diagnostikasi (o‘zini-o‘zi tashxislash), ota-onalar, pedagoglar tomonidan o‘quvchilar jamoasini tashxislash; ma’muriyat, mutasaddi mutaxassislar va ta’lim bo‘limlari uslubiyotchilari tomonidan o‘quv dargohining faoliyatini tashxislash va hokazolar bo‘lishi mumkin.

«O‘zining maqsadi, vazifalari, tatbiq qilish sohasi bo‘yicha pedagogik diagnostika hamisha mustaqil yo‘nalish bo‘lgan. Ammo hanuzgacha pedagogik diagnostikani mavhum va turli bahs-munozaralarga sabab bo‘luvchi yo‘nalish, uni «dastur sifatidagina qabul qilish mumkin», deb hisoblaydigan olimlar ham yo‘q emas. Shu sababli bugungi kunda «pedagogik diagnostika» atamasining bir necha talqinlari mavjud bo‘lib, ular mazmun-mohiyatiga ko‘ra xilma-xildir.

Bir qator tadqiqotchi olimlar (G. Royleke, R. Rollet, K. Leongard, A. Bass, A. E. Lichko, A. Shmelev) pedagogik diagnostikani: «Pedagogik faoliyatni optimallashtirishda, qulaylashtirishda zarur bo'lgan axborotni qo'lga kiritish jarayoni»(115, 54),-deb ta'kidlaydilar.

X. Feger, N. Petillon, V. Bogatskiylar pedagogik diagnostikani psixologik diagnostikadan ajralib chiqqan, degan fikrni ilgari surishadi.

Ya. Yirasek, A. Kern yoshlarning bilim olishga moyilliklarini aniqlovchi yo'naltiruvchi testlari, D. B.Elkoninning «Grafik diktant»i, A. L. Vengerning «Nuqtalar bo'yicha chizish», I. Shvantsarning «Aqliy rivojlanishni diagnostika qilish», V. V, Xolmovskayaning «Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qobiliyatlarini tashxislash» kabi metodikalari mashhurdir.

Germaniyaning «Ta'limni rivojlantirish yagona rejasi»da shunday deyiladi: «Pedagogik diagnostika tushunchasi pedagogika sohasidagi barcha jarayon va muammolarni yoritilishini, o'zlashtirishni va o'quv jarayoni samaradorligini o'lchashni, ta'lim olish sohasidagi har bir kishining imkoniyatlarini aniqlash choralarini, ayniqsa, maktab ta'limi tizimida xohlagan kasbni va ta'limning uchinchi bosqichini¹ tanlash choralarini nazarda tutadi».

Bu yerda asosiy e'tibor kasb tanlashga yordam berishga qaratilgan.

Nemis olimi Mauermanning yozishicha: «Pedagogik diagnostika o'zlashtirish va o'quv jarayoniga tayyorgarlik o'rtasida aloqa o'rnatadi, o'quv jarayonida kechadigan o'quv maqsadini to'g'ri belgilaydi va o'quv-tashkiliy shakllarni sharoitga mosligini baholaydi» (90, 22).

K. Klauer pedagogik diagnostikaga ta'rif bergan bir qator olimlarni tanqid ostiga olib, shunday fikrlarni bildiradi: «Pedagogik diagnostika (tashxislash) vazifalarini birvarakayiga klassifikatsiyalash (turkumlash)ni, bir paytning o'zida amalga oshirishi mushkul, shu sababli u pedagogik diagnostika atamasining mohiyatini belgilarnasligi kerak. Pedagogik diagnostika dolzarb pedagogik qarorlarni,, hukmlarni chiqarishga bo'lgan urinishlar majmuidan iborat» (84,5).

Rus olimi V. I. Zverev: »Pedagogik diagnostika-bu turli pedagogik vaziyatlarni o'rganish, aniqlash, ta'lim tizimi qatnashchilarining xilma-xil qobiliyatlari darajasini bilishdan iborat jarayon»(65,12), -degan fikrni ilgari suradi. Boshqa rus olimasi L. Denyakina: «Pedagogik diagnostika-bu pedagogning o'quv- tarbiyaviy jarayonni tashxislashda individual-malakaviy sifatlarini belgilovchi, shaxsning ijodiy taraqqiy topishida ko'makchi, pedagogik jamoaning muvaffaqiyatini oshiruvchi faoliyatdir»(64,6),-deb yozadi.

¹Germaniyada ta'lim tizimi uch bosqichdan iborat: 1-bosqich- boshlang'ich maktab, 2-bosqich- o'rta maktab, real maktab va gimnaziya, 3- bosqich- oliy o'quv yurti.

«Pedagogik diagnostika o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, mazmunini boyitish va attestatsiya uchun qo'llaniladi» (Moreno,99,86) .

Barcha tavsiflarni umumlashtirib, quyidagicha fikr bildirishni joiz deb o'ylaymiz: pedagogik diagnostika-pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik tizim natijalarini tahlil qilish, kafolatlash va tavsiyalar berish jarayoni.

Pedagogik diagnostika: birinchidan, individual ta'lim jarayonini qulaylashtirishi, ikkinchidan, jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, ta'lim-tarbiya natijalarini to'g'ri aniqlashni ta'minlashi, kafolatlashi, uchinchidan, o'ziga xos ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikni oqilona tanlashga yordam berishi kerak. Pedagogik diagnostika yordamida ma'naviy-ma'rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta'lim-tarbiya natijalari aniqlanadi.

Tashxislashda nafaqat ta'lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o'zgarish dinamikasini ham nazarda tutish lozim.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Pedagogik diagnostika fanining predmeti nimadan iborat?
- 2 Pedagogik diagnostika fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Pedagogik diagnostika fanining boshqa fanlar bilan alqoasini izohlab bering?
- 4 Pedagogik diagnostika deganda nimalar tushuniladi?
5. Pedagogik diagnostika fanining qanday ilmiy tadqiqot metodlarini bilasiz?
7. Pedagogik diagnostikasini ta'lim –tarbiya jarayonida tutgan o'rnini izohlab bering?

Pedagogik diagnostika qanay soha?

A. Pedagogika fanining o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida qo'llaniladigan sohasi

B. O'quvchilarga ta'lim berish jarayonida qo'llaniladigan sohasi.

S. Pedagogika fanining o'quvchilarning ruxiy rivojlanishi jarayonida qo'llaniladigan sohasi

D. Pedagogika fanining o'quvchilarning har tamonlama rivojlanishini o'rgandigan sohasi

2. Pedagogik diagnostika pedagogikaning nazariy sohasi sifatida nimalarni tavsiya qladi?

A. Ishonchli diagnostik metodlar va shaxs hislatlarining shakllanganlik darajalarining me'zonlarini, olingan natijalarni interpretatsiya qilish hamda amaliyotda ulardan to'g'ri va samarali foydalanish qoidalarini ishlab amaliyotga joriy qilish uchun tavsiya etadi.

B. Olingan natijalarni interpretatsiya qilish hamda amaliyotda ulardan to'g'ri va samarali foydalanish qoidalarini ishlab amaliyotga joriy qilish uchun tavsiya etadi.

S. Ishonchli diagnostik metodlar va shaxs hislatlarining shakllanganlik darajalarining me'zonlarini, olingan natijalarni interpretatsiya qilishni tavsiya etadi.

D. Ishonchli diagnostik metodlar va shaxs hislatlarining shakllanganlik darajalarining me'zonlarini, ta'lim-tarbiya olganlik darajasini natijalarini interpretatsiya qilish hamda amaliyotda ulardan to'g'ri va samarali foydalanish qoidalarini ishlab amaliyotga joriy qilish uchun tavsiya etadi.

3. Pedagogik diagnostika qanday hollarda qo'shimcha bilim, malaka va ko'nikma talab qilinadi?

A. Ayrim hollarda diagnostika qilish haddan ziyod murakkablik tug'dirishi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malaka talab qilishi ham mumkin.

4. Pedagogik diagnostikaning nazariy bazasi qanday fan sohalari bilan uzviy bog'liq?

A. Pedagogik diagnostikaning nazariy bazasi biologiya, psixologiya, neyropedagogika, ijtimoiy pedagogika, etnopedagogika kabi fan sohalari bilan uzviy bog'liqdir.

B. Pedagogik diagnostikaning nazariy bazasi biologiya, ona tili, adabiyot, neyropedagogika, ijtimoiy pedagogika, etnopedagogika kabi fan sohalari bilan uzviy bog'liqdir.

S. Pedagogik diagnostikaning nazariy bazasi biologiya, ximya, musiqa, psixologiya, neyropedagogika, ijtimoiy pedagogika, etnopedagogika kabi fan sohalari bilan uzviy bog'liqdir.

D. Pedagogik diagnostikaning nazariy bazasi biologiya, psixologiya, neyropedagogika, ijtimoiy pedagogika, etnopedagogika, filologiya, falsafa, matematika, ximya, fizika kabi fan sohalari bilan uzviy bog'liqdir.

5. Shaxs xulq-atvorida o'lchanishi rejalashtirilgan hislatlar qanday metodlar va mezonlar asosida amalga oshirilishi kerak.

A. Shaxs xulq-atvorida o'lchanishi rejalashtirilgan hislatlar ishonchli metodlar hamda ainiq me'zonlar asosida amalga oshirilishi kerak.

B. Shaxs xulq-atvorida o'lchanishi rejalashtirilgan hislatlar, BMK va ishonchli metodlar asosida amalga oshirilishi kerak.

S. Shaxs xulq-atvorida o'lchanishi rejalashtirilgan hislatlar ainiq me'zonlar asosida amalga oshirilishi kerak.

D. Shaxs xulq-atvorida o'lchanishi rejalashtirilgan jarayonlar, rivojlanganlik darajalari, xislatlar va xususiyatlari tarbiyalanganlik darajasi, BMKlari ishonchli

metodlar asosida amalga oshirilishi va matematik –statistik tahlil qilinadi..

6. Shaxsning xulq-atvori uning.....jumlaning davom ettiring.

A. Nerv sistemasi, psixofiziologik xususiyatlari hamda ijtimoiy muhit bilan bog'liqdir.

B. Ijtimoiy xayot, etnopsixologiyasi, anonomik xususiyatlari, irsiyatiga bilan bog'liqdir.

S. Temperament tiplari va ruxiy darayon, ruxiy xususiyatlariga bog'liqdir.

D. Nerv sistemasi, psixofiziologik xususiyatlari hamda etnopsixologiyasi, irsiyati, ta'lim tarbiyasi, mxiti, faolligiga, temperamenti, jismoniy xolatiga bilan bog'liqdir.

7. Pedagogik diagnostika metodlarini tayyorlash, tanlash va amaliyotda qo'llashda eng asosiy omillarni ko'rsating?

A. Shaxsning etnopedagogik xususiyatlarini, yosh davrlarini, o'ziga xos sifat va xususiyatlarni, xolatlarni jihatlarini hisobga olinishi zarur omillardan hisobllanadi.

B. Shaxsning etnopedagogik xususiyatlarini

S. Yosh davrlarini, o'ziga xos sifat va xususiyatlarni

D. O'ziga xos sifat va xususiyatlarni, xolatlarni jihatlarini hisobga olinishi zarur omillardan hisobllanadi

8). Qatt'iy reglament asosida, o'tkazilib, ayrim adabiyotlarda savol-javoblar yuritish metodi ham deyiladi. Qaysi suhbat metodini turi haqida fikr bildirilayapdi?

A) Standartlashtirilgan.

B) Erkin suhbat

C) Kirish suhbat.

D) Savol –javob

9) Shaxs faoliyati yo'nalishlarini aniqlash metodi kim tomonidan asos solingan. ?

A) M.Rokich

B) M.Churkina

C) Mechnikov.

D) Xoll

10. Kimlar pedagogik diagnostikani psixologik diagnostikadan ajralib chiqqan, degan fikrni ilgari surganlar?

A) X.Feger, N.Petillon, V.Bogatskiylar

B) Ya.Yirasek, A.Kern

C) I.Shvansarning A.L.Vengerning

D) A.L.Vengerning

TOPSHIRIQLAR

1. Pedagogik diagnostika fanining predmeti nimadan iborat?
- 2 Pedagogik diagnostika fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Pedagogik diagnostika fanining boshqa fanlar bilan aloqasini izohlab bering?
- 4 Pedagogik diagnostika deganda nimalar tushuniladi?
5. Pedagogik diagnostika fanining qanday ilmiy tadqiqot metodlarini bilasiz?
7. Pedagogik diagnostikasini ta'lim –tarbiya jarayonida tutgan o'rnini izohlab bering?
8. Pedagogik diagnostika fanining tamoyillari va funktsiyalarini grafik organayzerlar asosida yoritib

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2003.- 38 b.
2. Abdullaeva Sh. A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlarG'G' Xalq ta'limi, 2003 ,№3, 40-45 b.b.
3. Abdulloh Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom.-T.: Fan, 1994.- 293b.
4. Klauer K. Pedagogicheskoe diagnostirovanie.-M.: Logos,1999.- 421s.

2-MAVZU: PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA FANINING METODLARI

Asosiy savollar:

1. O'quvchilar orasida pedagogik diagnostikani tashkil qilish
2. Pedagogik diagnostikani o'tkazish yo'nalishlari
3. Pedagogik diagnostika metodlari
4. Og'zaki so'rov yoki intervyu.

KALIT SO'ZLAR: Solishtirish; tahlil; bashorat (prognoz) qilish; interpretatsiya (talqin qilish); diagnostik faoliyat natijalarini o'quvchi-talabalarga etkazish; turli diagnostik metodlarn, vazifalari, funktsiyalari, shaxs, kamolot, ta'lim-tarbiya, monitoring

Jamiyatimizda tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda bosh omil-yoshlarni Vatanga muhabbat, milliygʻurur, muloqotodobi, oʻzbek va jahon madaniyati, sanʼati, xalq yodgorliklarini tushunish va ardoqlash kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish, shaxs milliy dunyoqarashini kamol toptirishdir. Shu sababli bugungi kunda diagnostika taʼlimiy-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirishda, muhim tarbiyaviy vazifalarni hal etishda etakchi oʻrinni egallab kelmoqda.

Pedagogik diagnostika oʻquv-tarbiyaviy ishlarning yakuniy natijalar koʻrsatkichlarini hamda mazkur jarayonning kechish holatini yaqqol aks ettirish xususiyatiga ega.

Oʻquvchilar orasida pedagogik diagnostikani tashkil qilishda beriladigan nazariy bilimlarni yoshlar qalbiga yetkazish, ularni kundalik ehtiyojiga yoʻnaltirish uchun quyidagi ish usullariga eʼtibor berish lozim:

- oʻquv muassasa, masʼul shaxslar sinf, guruh jamoasining ruhiy holati, yaʼni har bir shaxsning faoliyati, qiziqish darajasiga;

- yoshlarning tartib-intizomiga, davlat mulkiga boʻlgan munosabatiga, ularning ijtimoiy hayotdagi faolligiga;

- yoshlar bilan oʻtkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarga boʻlgan munosabatiga (ijobiy, salbiy, befarqligiga);

- yoshlarning kattalar, oʻz tengdoshlari bilan axloqiy muomala va munosabatlariga;

- oʻquv maskanlarida tashkil etilgan qonun-qoidalarga munosabat va ularga amal qilishga;

- oʻquv muassasasidagi ijtimoiy fikrga boʻysunuvchanligiga.

Yuqoridagilarga amal qilinganda pedagogik diagnostikani oʻtkazish yoʻnalishlarini toʻgʻri tashkillashtirishga imkoniyat yaratiladi.

Pedagogik diagnostikani oʻtkazish yoʻnalishlari va tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

- tayyorlov yoʻnalishi: anketa-soʻrovnomalarni, sxema-chizmalarni, tashxislash mezonlarini, koʻrsatkichlar jadvallarini tayyorlash;

- tashkiliy yoʻnalish: diagnostika oʻtkazish va uni muhokama qilish mexanizmlarini tashkillashtirish;

- pedagoglarni va tahsil olayotgan yoshlarning oʻzini-oʻzi baholash yoʻnalishi: har bir shaxs bilan alohida, individual tarzda ishlash;

- maʼmuriyat, hamkasabalar, tengdoshlar, sinfdoshlar, ota-onalar va yoshlar tomonidan baho berish yoʻnalishi;

- qoʻlga kiritilgan axborotlar ishlovi va tahlili;

- tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqish;

- pedagogik konsiliumlarni tashkil qilish va unda muhokama etilayotgan pedagogik vaziyatlar yechimini toʻgʻri hal etilishini taʼminlash maqsadida tavsiyalar

tizimini ishlab chiqish hamda zarur holatlarda o'quv-tarbiyaviy jarayonni korreksiyalash.

Pedagogik faoliyat ijodiy izlanishni talab qiladigan murakkab jarayondir.

Pedagogik diagnostika ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo'lib, o'qitish va tarbiyalash jarayoniga xizmat qiladi.

Pedagoglarning tahsil oluvchilarni doimo kuzatib borishining o'ziyiq diagnostik faoliyat hisoblanadi. Diagnostik axborotlarni ma'lum ko'rsatkichlar (guruh ishlari, test, anketa va boshqalar), orqali yoki ularsiz (oddiy kuzatish orqali) yig'ish mumkin.

Diagnostik faoliyatda quyidagi yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- a) solishtirish;
- b) tahlil;
- v) bashorat (prognoz) qilish;
- g) interpretatsiya (talqin qilish);
- d) diagnostik faoliyat natijalarini o'quvchi-talabalarga yetkazish;
- e) turli diagnostik metodlarning yoshlarga ta'sirini nazorat qilish.

Solishtirish- diagnostik jarayonning asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi. Biz hayotdagi har bir narsani kuzata turib, beixtiyor uni solishtiramiz. Ko'rgan narsamizni o'z tajribamizga moslab tahlil qilishni, unga baho berishni xohlaymiz. Shu maqsadda xotiramizdagi xuddi shunday yoki shunga o'xshash kuzatishlarni esga olarniz. Faqat o'z kuzatishlarimiz emas, balki o'zgalar tomonidan o'tkazilgan kuzatishlar ham tadqiqot klassifikatsiyasiga yordam berishi mumkin. Yangi kuzatishda solishtirishga asos yo'q bo'lsa, kuzatishimizda unga yaqinroq bo'lgan kategoriyadan foydalanishga harakat qilarniz.

Insonning xulqini kuzata turib, uning oldingi xulqi yoki hozirgi kundagi va o'tmishdagi boshqa individning xulq-atvori bilan kimningdir xulq haqidagi fikrlari bilan solishtiramiz. Bu pedagogik diagnostikada individual, ijtimoiy yoki obyektiv solishtirish normalari deb hisoblanadi.

Normalar pedagogik diagnostikada yoshlarning ma'naviy darajasini baholash uchun zaruriy axborotlar to'plashni bildiradi. Masalan, biz to'plagan axborotlar intellektni o'lchovchi quyidagi ma'lumotlar bo'lishi mumkin: diktantda yo'l qo'yilgan xatolar soni, matematikadan to'g'ri yechilgan misollar soni, uchta mashg'ulot davomida olingan spontan javoblar soni, testdan to'g'ri bajarilgan topshiriqlar soni yoki shaxsning tarbiyalanganligini bildiruvchi axloqiy kategoriyalar: qiyin vaziyatda o'zini tuta bilishi, to'g'ri ma'nodagi sovuqqonlik, ijtimoiy foydali mehnatda ko'rsatgan ko'rsatkichlari, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish, ijtimoiy faollik darajalari kabilar. Lekin bu axborotlar to'la informativ emas. Bizga ayrim holatlarda kriteriya va normalar yetishmaydi. Agar o'quvchi-yoshlarimiz yozma ishda 9 ta xatoga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lsa, uni baholash

uchun yozma ishning murakkablik darajasini bilishimiz kerak. Bundan tashqari, xuddi shu sharoitda boshqa ta'lim oluvchilar yozma ishni qanday yozganliklarini yoki o'quv maqsadiga erishish uchun qancha xatogacha yo'l qo'yilishi mumkinligini bilishimiz kerak. Boshqacha so'z bilan aytganda solishtirma tahlilni amalga oshirish kerak bo'ladi.

O'quvchining individual o'zlashtirishini biz quyidagicha tenglashtirishimiz mumkin:

Boshqa ta'lim oluvchilarning ijtimoiy solishtirma natijalari bilan norma

Shu o'quvchining oldingi natijalari bilan individual solishtirma norma

Qo'yilgan o'quv maqsadlari(mezonlar) bilan predmet solishtirma norma

Fanda solishtirma o'lchovlar uchun foizli darajali shkala keng ishlatiladi.

Bu shkala yoshlarning aniq bir holatga muvofiq guruh ichidagi holatini belgilaydi.

Masalan, 2-bosqich talabasi u yoki bu qobiliyati bo'yicha ranjirovkada 75-o'rinni egalladi, bundan ko'rinadiki u guruhdagi 75 foiz talaba bilan teng yoki ulardan ortiq natijaga erishgan, Faqat 25 foiz o'spirinlar undan ham yuksak yoki unga teng natijaga erishgan.

Foizli shkalada o'rinni aniqlash uchun kumulyativ o'zgaruvchanlikni bilish zarur. T-kattalik va intellekt koeffitsientini aniqlashda chekinish shkalalari keng qo'llaniladi.

T-kattalik shkalasi «standart norma» hisoblanadi. Bu shkala test o'tkazishda keng qo'llaniladi. Bu shkala uchun o'rtacha kattalik 50 va standart chekinish 10 bo'lib hisoblanadi.

Tahlil. Tahlilda biz kuzatishning solishtirma klassifikatsiyasidan chetga chiqamiz. Endi biz u yoki bu individning xulqi oldingidan, boshqa indvidlarning xulqidan nima uchun farq qilishini yoki normadan chekinishini aniqlashni xohlaymiz. Biz bu sabablarni tahlil qilishni, ayrim o'quvchilarimizning xulqi kutganimizdan boshqacha bo'lib chiqishi sabablarini bilishga intilarniz.

Bashorat qilish (Prognoz). Pedagogik diagnostika doirasida pedagog solishtirish va tahlilda olingan natijalarni boshqa sharoit va kelajakda qo'llashga majbur. Agar talaba muayyan bilimni qo'shimcha darsda o'zlashtirgan bo'lsa, pedagog kuzatuv olib borib, o'quvchining shu natijani dars mashg'ulotida ham takrorlay olishga qodirligini, o'zlashtirish lozim bo'lgan o'quv materialini idrok etishga tayyor ekanligini aniqlay olishi kerak.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog doimo vaziyatni bashorat (prognoz) qilib boradi, uning natijalariga qarab o'quv-tarbiyaviy tizimning keyingi bosqichlarini aniqlaydi. Attestatsiya o'tkazish davomida o'qituvchi yuqori bilim talab qilinadigan o'quv maskanida o'qishga, uni muvaffaqiyatli tugallashiga tadqiq qilinuvchi yoshlarning tayyorgarligi etadimi, yo'qmi, ijtimoiy hayotdagi faollik darajasi

ko'rsatkichi kabi masalalarni bashorat qila olishi kerak. Hozirgi kun talabi asosida har bir o'qituvchi prognostika bilan shug'ullanishi zarur.

Interpretatsiya. Pedagog nuqtai nafari va kutganidan tashqari muayyan vaqt ichida to'plangan axborotlarga ham baho berib borishi kerak. Axborotlar tizimlashtirilgan, tanqidiy baholangan, umumlashtirilgan konsepsiya tarzida bo'lishi lozim. Bu axborot turli manbalardan: pedagoglar tajribasidan, ota-onalarga ko'rsatma, biografik ma'lumotlar, shaxsiy kuzatishlar, sinf, guruh ishlari, testlar, Internet, ma'lumotnomalar, o'quv adabiyotlari, davriy nashrlardan olinishi mumkin. Barcha axborotlarni uning muhimligiga qarab, yaxlitlash, butunni tashkil qilish interpretatsiya deb ataladi.

Interpretatsiya jarayoni faqat o'qituvchining shaxsiy interpretatsiyasi asosida yoki unga obyektiv metodlar yordamida olingan o'zgaralar tomonidan kuzatish natijalarini ham hisobga va e'tiborga olgan holda tashkil etilishi bilan farq qiladi.

Pedagogik diagnostika natijalari o'quvchi-yoshlar va ularning ota-onalariga xabar qilinishi, yetkazilishi kerak. Aks ta'sir sifatida ularning kelajakdagi faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatish mumkin. Ma'lumotning o'quvchi-yoshlarga ta'sirini, qo'yilgan maqsadga erishilganlikni nazorat qilish mumkin. Shunday nazorat turlaridan biri-testlar hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarda diagnostik testlarni qo'llash uzoq tarixga ega. Pedagogik testlar ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'rganish uchun qo'llanilib kelmoqda.

O'zlashtirishni test orqali aniqlash 1864-yili ingliz olimi Jorj Fisherning «scale books» (shkalalangan kitoblar)idan boshlangan. 1894-yili amerikalik J.M.Rays «Orfografiya bo'yicha bilimlarni aniqlash» jadvalini qo'lladi. 1908-yili Torndaykning shogirdi Stoun arifmetikadan birinchi testni nashr qildi. Boshqa sohalarda ham testlar keng qo'llanila boshlandi.

Pedagogik testlar sohasining yirik asoschilaridan biri Edvard Torndayk (1874-1949) amerika maktablariga testlarni kirib kelishini 3 bosqichda ko'rsatadi:

1. Izlanishlar davri 1900-1915 yillarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu bosqichda frantsuz psixologi Alfred Bine taklif etgan xotira, diqqat, qabul qilish testlarini anglash va dastlabki qo'llash davri bo'ldi. Aqliy rivojlanish darajasini aniqlovchi intellekt teslari ishlab chiqilib tekshirila boshlandi.

2. Keyingi 15 yillik maktab testlari sohasida «shovqinli» yillar bo'lib hisoblanadi. Bu davrni testlarning ahamiyatini, uning o'rnini, imkoniyatlari va cheklanganliklarini anglash davri deb hisoblashadi. O. Stounning arifmetikaga oid testlari, B. Zekingemning husnixatga oid testlari, E.Torndaykning ko'plab maktab predmetlari bo'yicha testlari ishlab chiqildi va tadbiq etildi. T.Kelli qiziqishlarni o'lchash vositalarini ishlab chiqdi. G. Mattesning qobiliyatlarni aniqlash testlari hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotganicha yo'q.

3.1931-yildan maktab testlashtirishining hozirgi zamonaviy bosqichi boshlandi. Mutaxassislar testlarning obyektivligini oshirishga, yangi samarali diagnostik usullarni yaratishga harakat qilishdi.

1963-yilda Y.Farenberg, X. Zarg, R. Gampellar shaxsning ko'p qirrali xususiyatlarini aniqlaydigan, R. Bernsning(1983) xulqni tashxislashga oid testlari, A. Anastazining o'quvchi ruhiy dunyosini aniqlash testlari ishlab chiqildi. Fransiyada odatdagi maktabdan aqliy jihatdan rivojlanishi past bo'lgan bolalar tahsil oladigan maktabga o'tkazish uchun pedagogik va tibbiy imtihonlar o'tkazilgan. Shu maqsadda Alfred Bine hamda Teodor Simon 30 ga yaqin topshiriqni o'z ichiga qamrab olgan, murakkablik darajasiga qarab joylashtirilgan intellektual rivojlanishni aniqlovchi ko'p bosqichli testlarni o'quv maskanlariga taqdim etishdi. Bu testlar dunyodagi eng mashhur testlar qatoridan o'rin oldi.

Lekin sobiq Sho'ro hukumati davrida «Pedagogik buzilishlar to'g'risida» (1936yil)gi qaror bilan faqat intellektual testlar emas, balki barcha o'zlashtirishni aniqlash testlari qo'llanilishi bekor qilindi. Hatto XX asrning 70-80-yillaridagi urinishlar ham testlarni joriy qilishdagi harakatlarni zoe ketkazdi.

Rivojlangan davlatlarda testlarni joriy etish intensiv ravishda kechdi. Bugungi kunda mustaqillik sharofati bilan bizning Respublikamizda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan metodikalarni joriy qilish imkoniyati yaratildi. 1993-yildan e'tiboran mamlakatimizda barcha oliygohlarga o'qishga kirayotgan abituriyentlarni testlar orqali attestatsiya qilish imkoniyati yaratildi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimining samaradorligini oshirish maqsadida o'qitilayotgan fanlardan, insonning ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini aniqlaydigan testlardan foydalanishga keng yo'l ochildi.

Ta'limiy testlar-shaxs rivojlanishi va shakllanishining turli tomonlarini tashxislashning xilma-xil pedagogik va psixologik shakllaridan bir turi. Mazkur testlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- Idrok kuchi, aqliy qobiliyat, aqliy rivojlanish testlari.
- Faoliyatning turli sohalaridagi maxsus qobiliyat testlari.
- Ta'lim, o'zlashtirish, akademik natija testlari.
- Shaxsning alohida sifatlari (idrok, xotira, tafakkur, intellekt)ni aniqlash testlari.
- Tarbiyalanganlik darajasini aniqlash testlari:
- Umuminsoniy sifatlarni shakllantirish testlari.
- Axloqiy tushunchalarni shakllantirish testlari.
- Ijtimoiy va boshqa sifatlarning shakllanganligini aniqlash testlari.
- Shaxsning alohida sifatlari (temperament, iroda, xarakter)ni aniqlash testlari.

Shuni alohida qayd etish lozimki, bugungi kunda pedagogikada tashxislash metodlari to'laqonli o'rganilib chiqilmagan. Bu esa ilmiy tadqiqot ishimizda

Vekslarning mashhur IQ- «intellektni tashxislash», Gilfordning S-«standartlashgan shkalalari», Amtxauerning Z-«Qiziqishlarni baholash» kabi diagnostik testlariga murojaat etishimizni taqozo etdi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. O'quvchilar orasida pedagogik diagnostikani tashkil qilish mohiyatini yoriting
2. Pedagogik diagnostikani o'tkazish yo'nalishlarini tasnifi va tavsifini izohlang
3. Pedagogik diagnostika metodlarini ahamiyatini tushuntiring.
4. O'quvchilar orasida pedagogik diagnostikani tashkil qilishda qanday ish usullariga e'tibor berish lozim?
5. Pedagogik diagnostikani o'tkazish yo'nalishlari va tartibi qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. Diagnostik faoliyatda qanday yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin?

TOPSHIRIQLAR:

1. Pedagogik diagnostika metodlari xaqida tushuncha bering.
2. Testlashtirish metodini turlari va xususiyatlari
3. Pedagogik testlarga qo'yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
4. Anketalashtirish metodini mohiyatini yoriting.
5. Anketa savolnomalarini tayyorlashga qo'yiladigan asosiy metodik talablarni sxemalashtirig.
6. Suhbat metodini mohiyatini klastr interfaol metodi asosida yoriting
7. Standartlashdrilgan Suhbat qatt'iy reglament asosida, aniq sayplar yordamida o'tkazilib, ayrim adabiyotlarda "savol-javoblar mtjtodT deb ham yuritiladi. Nima uchun?
8. Erkin suhbatga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat
9. Suhbat natijasini baholash mezonlari nimalardan iborat?
10. Pedagogik kuzatish metodi nima uchun pedagogik amaliyotdan eng ko'p qo'llaniladigan metodlar xisoblanadi?
11. Pedagogik kuzatish metodi talablarini yoriting.
12. Sotsiometriya metodini mohiyatini yoriting.
13. Sotsiometrik shakllashtirish matritsasini tayyorlang.
14. M.Rokich tomonidan asoslangan metodni izohlang.
15. Shaxs faoliyati yo'nalishlarini aniqlash metodi
16. Pedagogik konsilium yoki ekspertlar metodi mohiyatini yoriting.
17. Pedagogik konsilium metodiga qo'yiladigan asosiy talablarni sxema orqali tushuntiring
18. O'quvchining rivojlanish xaritasini tayyorlang

KEYSLAR

Siz maktabdagi Yetakchi o'qituvchisiz. Direktor diagnostika o'tkazish shartmi? O'zingiz barcha o'quvchilarni qanday o'qishi va tarbiyasini yaxshi bilasizku. Shu tahminlaringiz asosida diagnostika natijalarini tayyorlab bering dedi. Nima qilgan bo'lar edingiz?

1. O'quvchilar orasida pedagogik diagnostikani tashkil qilish va o'tkazish yo'nalishlarini tahlil qiling.

2. . Pedagogik diagnostika metodlari kuzatish, Solishtirish; tahlil; bashorat (prognoz) qilish; interpretatsiya (talqin qilish); diagnostik faoliyat natijalarini o'quvchi-talabalarga etkazish; turli diagnostik metodlarn, vazifalari, funktsiyalari, shaxs, kamolot, ta'lim-tarbiya, monitoring kabi tushunchalar mohiyatini lug'at asosida yoritish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari.-T.: Cho'lpon,1994.-78 b.
2. Mahmud As'ad Jo'shon. Tasavvur va nafs tarbiyasi. N. Hasan tarjimasi.-T.: Cho'lpon., 1998, 178 b.
3. Makarenko A. S. Pedagogicheskie probleme` podrastayuhogo pokoleniya,-M.: Vldos.,1999.- 457s.
4. Mahmudov M. Komil inson shaxsi va ijtimoiy tajriba. G'G'Pedagogik mahorat, 2002 y, 4-son,B. 6-10 .
5. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar -T. :Yangi asr avlodi, 2001,184 b.
6. Moreno M. Metodicheskie voproso` pedagogicheskoy diagnostiki.-M.: Pedagogika, 1990.-94 s.

3-MAVZU: PEDAGOGIK DIAGNOSTIKADA O'QUVCHILAR YOSH XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOSLIKLARI. TA'LIMNI TASHXIS ETISH VA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA

Asosiy savollar:

1. O'quvchilarni diagnostika qilishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish
2. Maktab o'quvchilarini pedagogik diagnostika metodlari
3. Kompleks diagnostik dastur

4. Yetti yoshdagi inqirozni boshidan kechirayotgan bolalar uchun diagnostik metod.
5. Yoshlarda axloqiy tushunchalarni oqilona shakllantirish

KALIT SO'ZLAR: O'quvchi, maktab, sinf, bir jumla, men, mening intuitsiyam, kompleks, diagnostika, o'yin metodi.

Hozirgi kunda shaxs tarbiyalanganligini diagnostika qilishning ishonchlilik darajasini oshirish maqsadida, zamonaviy pedagogika fani o'quvchilarni ta'lim-tarbiya jarayonining har bir bosqichida baholash va natijalar monitoringini olib borish yo'lidan bormoqda. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarni pedagogik diagnostika qilishda o'quv- hujjatlarini o'rganish, o'quvchilar faoliyatini kuzatish, anketalashtirish (fan o'qituvchilarining fikri, o'quvchilarning ota-onalarini fikri, o'quvchilarning fikri), sotsiometriya, didaktik va psixologik testlar, o'quvchilar bilan individual suhbat, pedagogik konsilium kabi metodlardan foydalaniladi.

O'quvchilardagi turli fazilatlarining shakllanganlik darajalarini monitoring qilishda, ularning yosh jihatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz, ya'ni:

- maktabgacha ta'lim bosqichida (2-5 yosh) - bolalarda shaxs fazilatlariga oid bilim va ko'nikmalarning shakllanganligini ular bilan suhbat hamda o'yin, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarini kuzatish orqali diagnostika qilish;
- boshlang'ich sinflarda (7-9 yosh) - o'quvchilarda yuksak ma'naviyatli shaxs fazilatlariga oid bilim va ko'nikmalarning shakllanganligini suhbat, og'zaki so'rov hamda kuzatish yordamida diagnostika qilish;
- umumiy o'rta ta'limning yuqori sinflarida (10-15 yosh) -o'quvchilarda tarbiyalanishi zarur bo'lgan fazilatlarga nisbatan ijobiy his-tuyg'ularning shakllanganligini aniqlash nisbatan murakkab bo'lib, buning sababi har bir shaxs o'zining borliqqa bo'lgan haqqoniy munosabatini yashirishga intilishidir. Pedagog bunday hollarda o'quvchilar va ularning tengdoshlari hamda ota- onalari bilan suhbat, diagnostika qilishga qaratilgan "nazorat ishlari" (referat, insho va shu kabilar) metodlarni, pedagogik va psixologik testlar hamda dars va darsdan tashqari faoliyatni kuzatish jarayonida ularning individual xususiyatlari va xulq-atvori to'g'risida ma'lumot olish;
- o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida (16-18 yosh) - o'quvchi shaxsida tarbiyalanishi maqsad qilingan fazilatlarga nisbatan e'tiqodlarning shakllanganligini diagnostika qilishda suhbat, anketa va pedagogik testlarning samaradorligi keskin kamayib ketadi. Chunki, bu yoshda o'quvchilardagi his-tuyg'ularning tashqi namoyon bo'lish alomatlarini osongina ilg'ash mumkin bo'lgani bilan, ularning ichki kechinmalarini aniqlash o'qituvchi-pedagog nigohidan yashiringan bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarni pedagogik diagnostika metodlarini tanlashda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, pedagogik diagnostika metodlarini tanlashga tizimli va majmuaviy yondashish, bir metodda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni boshqa metod hisobiga kompensatsiya qilish diagnostika natijalarini interpretatsiya qilishda aniqlik va samaradorlikni sezilarli darajada yuksaltirishga yordam beradi.

Rivojlanish faqat sof miqdor o'zgarishlari jarayonidan, ya'ni qandaydir psixik hodisalarning, xususiyat va sifatlarning ko'payishi yoki kamayishidan iborat bo'lib qolmay, balki sifat jihatdan yangi xususiyatlarning, ya'ni yangidan hosil qilingan sifatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

Psixologlar psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlari borligini qayd etib ko'rsatmoqdalar. Biroq muhit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikkilamchidir, chunki bu qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyat va tarbiyaga bog'liqdir. Mana shunday umumiy qonuniyatlarga birinchi navbatda psixik rivojlanishning notekisligi kiradi. Buning mohiyati shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto ta'lim va tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, funksiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bitta darajasida to'xtab turmaydi. Bolaning ayrim yosh davrlarida psixikaning u yoki bu yo'nalishlarida rivojlanish uchun nihoyatda qulay sharoitlar paydo bo'ladi va bu sharoitlarning ba'zilar vaqtinchalik, o'tkinchi xarakterda bo'ladi. U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo'lgan ana shunday yosh davrlari senzitiv davrlar deb ataladi. (L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev). Bunday senzitivlik davrining mavjudligiga miyaning organik jihatdan yetilgan qonuniyati ham, ayrim psixik jarayonlar va xususiyatlar ham, hayotiy tajriba ham sabab bo'ladi.

Shunday qilib, bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishi - murakkab taraqqiyot jarayonidir.

Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqalash bo'yicha turlicha usullar mavjuddir. Bu inson shaxsini tadqiq qilishga turli nuqtai-nazardan yondashuvi va mazkur muammoning mohiyatini turlicha eritadi.

Ma'lumki, har bir davr o'zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o'ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterligi sifatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida shakllanishi va o'z navbatida, o'zidan keyingi davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda psixologiyada mavjud yosh davrlarini tabaqalash nazariyalariga urg'u berib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Shveytsariyalik psixolog **J.Piajening** aql-idrok nazariyasi, aql-idrok funksiyalari hamda uning davrlari haqidagi ta'limotni o'z ichiga oladi. Aql-

idrokning asosiy vazifalari, moslashish va ko‘nikishdan iborat bo‘lib, bu uning doimiy vazifalar turkumini tashkil etadi.

Muallif, bola aql-idrokini quyidagi psixik rivojlanish davrlariga tasniflaydi:

- 1) sensomotor intellekti-tug‘ilgandan 2 yoshgacha;
- 2) operatsiyagacha tafakkur-davri - 2 yoshdan 7 yoshgacha;
- 3) aniq operatsiyalar davri-7,8 yoshdan 11, 12 yoshgacha;
- 4) rasmiy operatsiyalar davri.

Fransuz psixologi **A.Vallon** esa yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) homilaning ona qornidagi davri;
- 2) impulsiv harakat davri - tug‘ilgandan 6 oylikkacha;
- 3) his-tuyg‘u davri (emotsional) - 6 oylikdan 1 yoshgacha;
- 4) sensomogor (idrok bilan harakatning uyg‘unlashuvi) davri 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- 5) personologizm (shaxsga aylanish) davri - 3 yoshdan - 5 yoshgacha;
- 6) farqlash davri - 6 yoshdan - 11 yoshgacha;
- 7) jinsiy yetilish va o‘spirinlik davri - 12 yoshdan -18 yoshgacha.

Rus psixologiyasidagi yosh davrlarini tabaqalash muammosi dastlab L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Ananov singari yirik psixologlarning asarlarida o‘z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug‘ullanuvchilar safi ortib bordi, shu bois yosh davrlarini tasniflash muammosi o‘zining kelib chiqishi, ilmiy manbai, rivojlanish jarayonlariga yondashilishi nuqtai nazaridan bir-biridan keskin farq qiladi. Hozirgi vaqtda yosh davrlarini tabaqalash yuzasidan mulohaza yuritishda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruhlariga ajratish va ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiqdir.

L.S.Vigotskiy psixologlarning yosh davrlarini tabaqalash nazariyalarini tanqidiy tahlil qilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib, yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi;

1. Chaqaloqlik davri inqirozi.
2. Go‘daklik davri - 2 oylikdan 1 yoshgacha, bir yoshdagi inqiroz.
3. Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - 3 yoshdagi inqiroz.
4. Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - 7 yoshdagi inqiroz.
5. Maktab yoshi davri - 8 yoshdan 12 yoshgacha - 13 yoshdagi inqiroz.
6. Puberdat (jinsiy yetilish) davri - 14 yoshdan 18 yoshgacha, yoshdagi inqiroz.

L.S.Vigotskiy o‘zining yosh davrlarini tabaqalash nazariyasini ilmiy asoslab, ta’riflab bera olgan. Olim eng muhim psixik yangilanishlar haqida ilmiy

va amaliy ahamiyatga molik mulohazalar bildirgan. Biroq, bu mulohazalarda ancha munozarali, baholi o‘rinlar ham mavjud. Umuman L.S.Vigotskiyning yosh davrlarini tabaqalash nazariyasi ilmiy tarixiy ahamiyatga ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar to‘g‘risidagi mulohazali va olg‘a surgan g‘oyalari hozirgi kunning talablariga mosdir.

D.B.Elkoninning tasnifi yetakchi faoliyat (A.N.Leontev) nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida biror faoliyatning ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi, Etakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli, nazariyaning asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

D.B.Elkonin yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratishni lozim topdi:

1. Go‘daklik davri - tug‘ilgandan 1 yoshgacha - yetakchi faoliyat-bevosita emotsional muloqot;

2. Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - yetakchi faoliyat -predmetlar bilan nozik harakatlar qilish;

3. Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - rol o‘yinlar;

4. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 10 yoshgacha - o‘qish;

5. Kichik o‘smirlik davri - 10 yoshdan 15 yoshgacha - shaxsning intim (dilkash, samimiy) muloqot;

6. Katta usmirlik yoki ilk o‘spirinli davri - 16 yoshdan 17 yoshgacha; - yetakchi faoliyat - o‘qish, kasb tanlash davri.

D.B.Elkonin tasnifini ko‘pchilik psixologlar tomonidan e‘tirof etilsa-da, biroq uning birmuncha munozarali tomonlari mavjud. Umuman D.B.Elkoninning mazkur nazariyasi psixologiya fanida, ayniqsa yosh davrlari psixologiyasida muhim o‘rin tutadi.

Bolalar psixologiyasi fanining yirik namoyondasi **A.A.Lyublinskaya** inson kamolotini yosh davrlarga ajratishda faoliyat nuqtai nazaridan yondashib, quyidagi davrlarni atroflicha ifodalaydi;

1. Chaqaloqlik davri - tug‘ilgandan bir oylikkacha;

2. Kichik maktabgacha davr - 1 oylikdan 1 yoshgacha;

3. Maktabgacha tarbiyadan avvalgi davr -1 yoshdan 3 yoshgacha;

4. Maktabgacha tarbiya davri - 3 yoshdan 5 yoshgacha;

5. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11, 12 yoshgacha;

6. O‘rta maktab yoshi davri (o‘spirin) - 13 yoshdan 15 yoshgacha;

7. Katta maktab yoshi davri-15 yoshdan 18 yoshgacha.

Pedagogik psixologiyaning taaluqli namoyondasi **B.A.Krutevskiy** insoning ontogenetik kamolotini quyidagi bosqichlardan iboratligini ta’kidlaydi:

1. Chaqaloqlik (tug‘ilgandan 10 kunlikkacha);

2. Go‘daklik (10 kunlikdan 1 yoshgacha);

3. Ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);

4. Bog'chagacha davr (3 yoshdan 5 yoshgacha);
5. Bog'cha yoshi (5 yoshdan 7 yoshgacha);
6. Kichik maktab yoshi (7 yoshdan 11 yoshgacha);
7. O'smirlik (11 yoshdan 15 yoshgacha);
8. Ilk o'spirinlik yoki katta maktab yoshi (15 yoshdan 18 yoshgacha).

Yuqoridagi har ikkala tasnif puxtaligidan, ularga qanday nuqtai nazardan yondashilganligidan qat'iy nazar inson kamolotini to'la ifodalab berishga ojizlik qiladi.

Mazkur nazariyalar insonning shaxs sifatida shakllanishi bosqichlari haqida ko'proq ma'lumot beradi, xolos. Ularda yoshlik, yetuklik qarilik davrlarining xususiyatlari, qonuniyatlari to'g'risida nazariy va amaliy ma'lumotlar yetishmaydi. Shunga qaramay ular o'qish maktab pedagogik psixologiya fani uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamon psixologiyasining yirik vakili A.V.Petrovskiy inson kamolotiga, shaxsning tarkib topishiga ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yondashib, shaxsning shakllanishini quyidagi bosqichlarda amalga oshishini ta'kidlaydi:

1. Ilk bolalik (maktabgacha tarbiya yoshidan oldingi davr) - tug'ilganidan 3 yoshgacha.

2. Bolalik davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.

3. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11 yoshgacha,

4. O'rta maktab yoshi (o'smirlik) davri - 11 yoshdan 15 yoshgacha

5. Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri - 15 yoshdan 17 yoshgacha.

AV.Petrovskiyning tasnifi mukammal bo'lsa-da, kamolotning oraliq bosqichlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalamaydi. Vaholanki, o'sish ijtimoiy qoidalarga muvofiqmi yoki aksincha, qanday bo'lishidan qat'iy nazar, har ikkala yo'nalishning ham oraliq jabhalari bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Ma'lumki, har bir yosh davr, o'ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi, bularga: oilada va maktabda bola holatining o'zgarishi, ta'lim va tarbiya shakllarining o'zgarishi hamda bolaning yangi faoliyat turlari, organizmdagi ayrim xususiyatlarning yetilishi singari jarayonlarni kiritish mumkin.

Hozirgi zamon psixologiyasida yosh davrlarini shu nuqtai nazardan tabaqalash maqsadga muvofiqdir:

1. Ilk bolalik davri -tug'ilgandan 3 yoshgacha;

2. Bog'cha davri - 3 yoshdan 6, 7 yoshgacha;

3. Kichik maktab yoshi davri - 6, 7 yoshdan 10, 11 yoshgacha;

4. O'rta maktab yoshi (o'smirlik davri) - 10, 11 yoshdan 14, 15 yoshgacha;

5. Ilk o'spirinlik (kollej va litsey o'quvchilari) 14, 15 yoshdan 17, 18 yoshgacha.

Umuman, psixologlar tomonidan yosh davrlarini tabaqalashtirishning puxta, ilmiy-metodologik negizga ega bo'lgan qator nazariyallari ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta hissa qo'shib, uning nazariy va amaliy muammolarini hal qilishda muhim o'rin egallab kelmoqda. Biroq, shunday bo'lsada, hozir ontogenezni to'la yoritishga xizmat qila oladigan nazariyasini yaratish zaruriyati mavjuddir.

3.2.Maktab o'quvchilarini pedagogik diagnostika metodlari

Maktab o'quvchilarini diagnostika qilishda bolaning individual xususiyatlari va xulq-atvorini o'rganish hamda unga maqsadli ta'sir ko'rsatish, normallashtirish va rivojlanitirish uchun pedagoglar diagnostika metodlaridan foydalanadilar. Bunda faqat bir turdagi bir metoddan emas, balki barcha metodlardan birgalikda foydalanish maqsadga muvofiq. Maktab faoliyatida o'qituvchi bolalarni o'rganishda kompleks diagnostikaga tayanishi yaxshi samara beradi.

1. O'quvchilardagi agressiv xulq-atvorni diagnosika qilish metodi.

Nomlanishi: "Bir jumla".

Metodi: yozma (mavzuga doir insho).

Maqsad: bola o'zini qanday baholayotganini tushuntirish hamda o'zining qaysi xarakter sifatlarini eng muhim deb hisoblaydi va bu haqida boshqalarga nima demoqchi.

Jarayon: bolalarga "Men..." deb boshlanadigan jumla bering va nimani xohlasa shuni yozsinlar. Odatda ularning "Men" konsepsiyasida nima bo'lsa shu tasvirlanadi. Masalan, "Men yaxshi o'qiyman", "Men hayvonlarni yaxshi ko'raman", "Men onamga yordam beraman".

Natijalar tahlil: O'quvchilar javobini o'qib, xulosa qiling. Qiziqarliroq va aniqlanmagan sifatlar aniqlangan bo'lsa kartochkaga yozib qo'ying.

2.Sinf bilan ishlash uchun diagnostika metodi.

Nomlanishi: "Mening intuitsiyam".

Metodi: test

Maqsad: o'qituvchilik tafakkuri, idroki, tushunchalarini tashxislash.

Jarayon: oldingizga bo'lg'usi o'quvchilaringizning rasmini olib diqqat bilan kuzating, qanday xarakter sifatlariga egaligini tasavvur qiling. Ulardan kim yaxshi, kim yomon o'qishini aniqlang. Nima uchun bunday xulosaga keldingiz?

Variatsiya: xuddi shuni birinchi ota-onalar majlisida ham takrorlab ko'ring. Qanday ota-onaning farzandlari o'zlashtirmoqchi bo'ladi va nimaga?

Natijalar tahlil: pedagogik intuitsiyani rivojlantirish. O'z kuzatuvlariningiz qayd etib qo'ying. Yillardan so'ng natijalarni taqqoslab ko'ring o'zingizni

rivojlantiring.

O' quvchilarni o'zini anglash metodi.

Kompleks diagnostik dastur

- Bola shaxsiga individual yondashuv tarbiya jarayonini o'zgartirishi va o'quvchilarning tarbiyasi yaxshilashi mumkin. Xulq- atvor diognostikasi har doim kompleks bo'lishi kerak.
- Nima o'rganiladi: Og'ishish
- Tashqi ko'rinish: qarash, ko'zning aks etishi, yuz tuzilishi, mimika, gavda holati, yurish, sun'iy harakatlar, kiyinish.
- Yo'q
- Oz miqdorda
- Mavjud
- Jismoniy rivojlanish: ilgari ketgan, norma, ortda qolgan.
- *
- **
- ***
- Intellektual rivojlanish: o'qishga munosabati, idrok xususiyatlari, tafakkur sifatleri, xotira xususiyatlari, aqliy rivojlangani, yoshga muvofiqliqi, faolligi.
- *
- **
- ***

Emotsional reaksiyalari: kunlik kayfiyati, o'zgaruvchan kayfiyat, qayg'urish, emotsiyalarning ifodalanishi, emotsiyalarning yashirinliqi, agressiya, tushkunlik, bo'shashganlik, dushmanlik, tortinchoqlik, egotsentrizm, affektlar, negativizm, o'ziga ishonchi, alturistik harakatlari.

Axloqiy rivojlanganliqi: xulq-atvor normalarini tushunganliqi, ularni bajarishi, qadriyatlarga yo'nalganliqi, ideallari, hayotiy rejalari,

Sevgan mashg'uloti va qiziqishlari: asosiy yo'nalganliqi, erishgan yutuqlari, maktabdagi o'zlashtirishi.

- Munosabatlari: o'qituvchilar bilan, sinfdoshlari bilan, qarindosh va kattalar bilan.
- Majburiyatlariga munosabati: maktab tartib qoidalariga, mehnat va o'z-o'ziga xizmatga, jamoaviy ishlarga.
- Do'stlik: kim bilan do'stlashgan, qancha do'sti bor, do'stlari qanday?
- Yaqinlariga munosabati: oilasi haqida qanday gapiradi, opa- singillariga munosabati.
- Maktabdagi xulq-atvori: darsda, tanaffusda, ichish, chekish, giyohvandlik, toksik moddalar, darsga kech qo'lish, darslardan qochish.
- Ko'chada va uydagi xulq-atvori: maktab hovlisida, ko'chada va jamoat

joylarda, ota-onasiga yordam berishi, maydonchalarda bolalar bilan o'ynaydimi?

- Assotsial xulq-atvori: o' g'rilik, yolg'onchilik, beodoblik, uyga kech qaytish, mayda bezorilik.
- Diagnostik natijalarga qarab quyidagilar aniqlanadi:
- Korreksion yordamga muhtoj bolalar;
- Xulq - atvor og'ishganligining xarakteri;
- Har bir guruhga mos metod, texnologiya;
- "Sen menga - men senga" diagnostik metodikasi.
-

3. "O'yin" metodi.

Maqsad: do'stiga yaxshi sifatlarini berish

Jarayon: Bolalar ikkitadan bo'lib, bir-biriga qarama-qarshi o'tirishadi. O'qituvchi o'yinda tenglikni saqlaydi. U koptokni kimga otsa, o'sha ushlab olib, koptokni olgan odamning qaysi harakter sifatini o'ziga olishni istashini aytadi. Keyin koptokni qarshisidagi o'quvchiga otadi. U ham olib xarakter sifatini aytadi o'yin shu tariqa davom etadi.

Variatsiya: "Olishni istayman" "Berishni xohlayman",

"Yo'qotishni xohlayman" ko'rinishida bo'lishi ham mumkin.

Natijalar tahlili: o'qituvchi o'quvchilarning o'zi-o'zi bahosini diqqat bilan tinglaydi. Bildirmasdan diktofonga yozib olishi ham mumkin. Agar o'yin tez o'ynalsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa: Bu yerda o'qituvchi ikkita xulosa berishi mumkin.

- 1) o'quvchilarga hamkorining yana qaysi sifatleri noma'lum.
- 2) kimdirga koptokni to'satdan otib yuborsa, o'quvchi shu orqali yashirinishi mumkin,

4. Yetti yoshdagi inqirozni boshidan kechirayotgan bolalar uchun diagnostik metod.

Nomlanishi: "qay biri?"

Metodi: test-o'yin.

Maqsadi: ba'zi harakatlar, qarashlar va qarorlar o'z-o'ziga baho berishni aniqlash.

Fikrlar:

Ha

Yo'q

- Men harakat qilyapman, lekin buni sezishmayapti
- Men bunday munosabatga loyiq emasman
- O'z yutuqlarim bilan men faqat o'zimga majburman
- Men hech kimga yordam bermayman, hamma o'zi uchun bo'lishi kerak
- Men o'zimning xatti-harakatlarimni nazorat qilolaman.

- Mening fikrimga boshqa do'stlarim va o'qituvchilarim qo'shilishadi.
- Mening fikrimga sinfdagi hech kim qo'shilmaydi.
- Men bilan bog'liq barcha ko'ngilsizlarda o'zimni ayblayman
- Men mustaqil qaror qabul qila olaman.
- Men sinfdagi eng zo'r o'quvchilardanman.

Variatsiya. O'qituvchi o'quvchilarni qiziqtirgan savollarni qo'yishi mumkin. Savollar mazmuni sinflarda turlicha bo'lishi mumkin.

Natijalar tahlil: 8-10 ball - yuqori; 6-8 ball o'rtacha; 6 dan past ball - past baho.

Xulosa: Natijalar o'z nihoyasiga yetganda o'quvchida normal munosabatlar paydo bo'ladi va boshqalarni o'ziga sun'iy jalb qilish odati yo'qoladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Psixik taraqqiyotning omillari, shartlari va harakatlantiruvchi kuchlari haqida ma'lumot bering?
2. Psixik taraqqiyot va ta'limning o'zaro munosabati deyilganda nimani tushunasiz?
3. Psixik taraqqiyotning qonuniyatlari nimalardan iborat?
4. Yetakchi faoliyat deyilganda nimani tushunasiz?
5. Yosh davrlarini tasniflab bering?
6. Yosh davrlarini tabaqalash haqidagi turli nazariyalar haqida

TEST TOPSHIRIQLARI

1. 16 Faktorli Kettel metodikasining necha varianti bor?
A) 3 ta
B) 6 ta
S) 16 ta
D) 8 ta
2. Sotsiometriya testi qanday uslublar jumlasiga kiradi?
A) Anketa va suhbat asosida o'tkaziladigan uslublarga
B) Loyihali testlarga
S) Harakatli o'yin shaklidagi testlarga
D) Motorikani, ya'ni hatti-harakat sferasini o'rganadigan testlarga
3. Kettel metodikasi nechta faktorli va nechta variantli?
A) 16 ta faktorli, 3 ta variantli
B) 15 ta faktorli, 3 ta variantli
S) 16 ta faktorli, 2 ta variantli
D) 14 ta faktorli, 3 ta variantli
4. Odatda, o'lchash shkalalarining nechta tiplari ajratiladi?

- A) 4 ta
B) 2 ta
S) 3 ta
D) 1 ta
5. Assotsiativ test dastlab kim tomonidan ixtiro qilingan?
A) G.Rorshax
B) A.Bine
S) K.Yung
D) V.Vundt
6. Har bir test sifat jihatidan ikkita bir-biri bilan bog'liq xususiyati bo'yicha tekshiriladi.
A) Aniqlilik, yaroqlilik
B) Aniqsizlik, yaroqlilik
S) Aniqlik, noaniqlik
D) Yaroqlilik, noaniqlik
7. Shaxsning psixik xususiyatlarining rivojlanishi namoyon bo'lish darajasini miqdoriy o'lchash va aniqlashda qaysi metoddan foydalanish maqsadga muvofiq?
A) Test
B) Suhbat-anketa
S) Kuzatish
D) Sotsiometriya
8. Faoliyatning u yoki bu sohasidagi yuqori natijalarga erishish uchun, muvaffaqiyatli bajarish uchun shart-sharoit bo'lib hisoblanadigan imkon beradigan shaxsning jismoniy va ruhiy xususiyatlari to'plami psixodiagnostikada nima deb ataladi?
A) Qobiliyat
B) Temperament
S) Diqqat
D) Faoliyat
9. Sotsiometriya uslubi qaysi olim tomonidan birinchi bo'lib qo'llanilgan?
A) J.Moreno
B) E.Gekkel
S) U.Garstong
D) Z.Freyd
10. Motivatsiya tarkibiga kiruvchi asosiy psixologik tushunchalar qaysi javobda to'g'ri berilgan?
A) Ehtiyoj, motiv, maqsad, qiziqish, orzu
B) Odat, maqsad, qiziqish, orzu
S) Qiziqish, orzu, maqsad

- D) Ehtiyoj, motiv, talant, odat, orzu
11. Shaxslararo munosabatlarni o'rganuvchi soha:
- A) Ijtimoiy psixologiya
 - B) Psixodiagnostika
 - S) Psixometriya
 - D) Yosh psixologiyasi
12. Kishi psixologiyasining normadan chetga chiqishini, buzilishini qaysi psixodiagnostika o'rganadi?
- A) Klinik psixodiagnostika
 - B) Klinik va sport
 - S) Sport psixodiagnostikasi
 - D) Professional psixodiagnostika
13. Shaxs temperamenti qanday metodika bilan o'rganiladi?
- A) Ayzenk
 - B) 16 faktorli Kettel
 - S) TYuF
 - D) PDO
14. Psixometrika nimani o'rganadi?
- A) Psixometrika – psixologik holatlarni, jarayonlarni o'lchash to'g'risidagi fan
 - B) Psixometrika - psixologik terminlarni o'rganuvchi fan
 - S) Hayvonlar psixikasini o'rganuvchi fan
 - D) Bilish faoliyatini o'rganadi
15. Testning aynan aniqlash kerak bo'lgan xususiyatlarini aniqlash va o'lchay olish xususiyati qanday ataladi? A) Yaroqliligi
- B) Muqobilligi
 - S) Aniqligi
 - D) Tekshirilganligi
16. Akseleratsiya-bu :
- A) bolaning tez etilishi va rivojlanishi
 - B) bolaning tez jinsiy rivojlanishi
 - S) bola rivojlanishidagi sekinlashuv
 - D) aqliy rivojlanishdagi tezlashuv
17. Longityud - metodi bu ...
- A) Uzlaksiz usul degan ma'noni anglatadi
 - B) Uzlukli usul degan ma'noni anglatadi
 - S) Tezkor usul degan ma'noni anglatadi
 - D) Samarali usul degan ma'noni anglatadi
18. Kombinatsiya – bu ...
- A) Birlashtirilgan testlar degan ma'noni bildiradi.

- B) Aralash testlar degan ma'noni bildiradi
 - S) Intellektual testlar degan ma'noni bildiradi
 - D) Aqliy rivojlanish testlari degan ma'noni bildiradi
19. Psixometrika – bu ...
- A) Psixologik o'lchash degan ma'noni anglatadi
 - B) Tavsiflash degan ma'noni bildiradi
 - S) Prognoz qilish - tavsiflash degan ma'noni bildiradi
 - D) Inson ruhiyatini tahlil qilish degan ma'noni anglatadi

TOPSHIRIQLAR

1. Turli yosh davrlarda bolaning o'sishi, rivojlanishini o'rganish;
2. Turli yosh davrlarda o'quvchilarning o'sish xususiyatlarini o'rganib, kamolotining qay darajada ekanligi haqida yozma tahlil qilish
3. “Maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'smir o'quvchilarga, o'spirin o'quvchilariga xos yosh va psixologik xususiyatlarni aks ettiruvchi jadval, sxema yoki klasterlarni yaratish.
4. Yetti yoshdagi inqirozni boshidan kechirayotgan bolalar uchun diagnostik metod tayyorlang.
5. Kichik maktab yoshi, o'spirin va o'smir yoshdagi bolalarni diagnostika metodlariga namunalar tayyorlang.

MAVZU: TA'LIMNI TASHXIS ETISH VA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA

Asosiy savollar

- 1. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.**
- 2. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funktsiyalari.**
- 3. Ta'lim olganlikni tashxis etish tamoyillari.**
- 4. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari.**
- 5. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari.**

KALIT SO'ZLAR: Ta'lim metodlari, usullar, bilish faoliyati usullari, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, ilm – fan, texnika – texnologiya, o'quv material, didaktik xarakter, pedagogik nazariya, samarali, zamonaviy, pedagogik qarashlar, irodaviy sifatlar, ilmiy dalillar, sezgi organlari, bilimlarni o'zlashtirish, so'z orqali, ko'rgazmali uzatish, amaliy mehnat, ta'lim metodlari, mashq qildirish metodi, topshiriq berish, didaktik asos, laboratoriya metodi, ta'lim vositalari, o'qitishning asosiy va qo'shimcha vositalari, o'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari,

1. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga quyilgan talablar.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim oluvchilarning bilimlarini nazorat qilish o'ta muhimdir. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayonida egallanishi lozim bo'lgan nazariy materiallar bo'yicha olinayotgan bilimlarni yanada mukammallashtirish va eng asosiysi ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatlarini yuksaltirish uchun turli vositalarni tanlash imkonini beradi.

Ta'lim natijalarini nazorat qilish vositalari – o'rganilayotgan fan (mavzu) bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar bazasi (bilimlar banki)dan ta'lim beruvchi tomonidan tayyorlangan (tuzilgan) topshiriqlar, savollar, test – savollari va shu kabilar va ulardan foydalanish vositalari. Bunday jarayonlarda natijalarni o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalarni o'zlashtirish – bu olingan natijalarni amaliy o'zlashtirishga tayyorlash jarayonidan iboratdir, ya'ni iste'mol uchun tayyorlash. Bunda ta'lim beruvchi ishtiroki muhim rol o'ynaydi, chunki kerak bo'lganda ayrim zaruriy tuzatishlar kiritish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi.

Umuman olganda ta'lim – tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi. Xususan, nazorat quyidagi funktsiyalarga ega:

1) **Nazoratning diagnostik funktsiyasi.** Nazorat natijasi orqali bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

2) **Nazoratning ta'lim oluvchilardagi bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini o'stirish funktsiyasi.**

3) **Nazorat jarayonida ta'lim oluvchilarning shaxsiy jihatlari shakllantiriladi va eng asosiysi rivojlantiriladi.**

4) **Ta'lim funktsiyasi.**

5) **Nazoratning tarbiyaviy funktsiyasi.**

6) **Nazoratning baholash funktsiyasi.**

7) **Nazoratning ta'lim oluvchilardagi bilimga qiziqishni o'yg'otish, jonli fikrlashga o'rgatuvchilik funktsiyasi.**

Ma'lumki, nazorat asosan uch turga bo'linadi. Ular: joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazoratlardir. Bulardan tashqari so'nggi nazorat turi ham bor.

Nazorat turi testlar, yozma ishlar va og'zaki savol – javoblar orqali amalga oshiriladi. Pedagog olimlar I.Tursunov va U.Nishonalievlarning ma'lumotlariga qaraganda testlar orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- ta'lim oluvchilar nazariy va amaliy bilimlarining darajasini ob'ektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;

- bir vaqtning o'zida bir guruh yoki ko'p sonli ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish mumkin;

- hamma ta'lim oluvchilarda bir xil qiyinchilikdagi savollar berilib, hammasiga bir xil sharoit yaratiladi;

- test natijalarini ta'lim beruvchi tomonidan tezkorlik bilan (operativ) tekshirish mumkin;

- turli guruhdagi ta'lim oluvchilar bilimini solishtirish, qo'llanilayotgan metodning samaradorligini aniqlash mumkin;

- ta'lim jarayonida uchraydigan kamchiliklarda aniqlash mumkin.

Ta'lim natijalarini baholashda reyting tizimining test usuli keyingi paytlarda iste'molda keng foydalanilmoqda.

Test – biror bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga qaratilgan topshiriqdir. Test to'g'ri bajarilganligini o'lchash va baholash maqsadida har bir testga ekspert metodi yordamida etolon ishlab chiqiladi.

Umuman olganda **test** so'zi inglizchadan olingan bo'lib, u sinov, tekshirish, tadqiqot ma'nolarini bildirib "Sinalayotgan shaxsning psixo xususiyatlarini, shuningdek, intellektual rivoji, qobiliyati va malakasini tekshirishda qo'llaniladigan standart mashqlar" demakdir. Pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida didaktik testlar quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

- nazariy bilimlarni nazorat qiluvchi, malaka va qobiliyatlarni tekshiruvchi o'zlashtirish testlari;

- real o'quv imkoniyatlari bo'yicha (Yu.Babanskiy) diagnostika testlari hamda umumiy va maxsus (masalan, mikro yoki makro iqtisodiyot fani va boshqa fanlar bo'yicha) o'qitish testlari.

Testlar tipologiyasi asosida topshiriqlarni tanlash, ularning strukturaviy o'zaro aloqadorligi va ta'riflari quyidagi omillarga bog'liqdir.

1) Testlarning fanlararo qo'llanish sohasi.

a) oraliq nazorat testlarida mavzular, boblar bo'yicha bilim va o'zlashtirish elementlarini tekshirish;

b) ko'p mavzular bo'yicha fanlarning bir – biriga bog'liqligini hisobga olgan holda bilim va o'zlashtirishning chegaraviy nazoratini hisobga olish;

g) butun kurs bo'yicha bilimlarni nazorat qilish (test asosida fanlararo turkum testlarni ham yaratish mumkin).

Bu holarning har birida fan topshiriqlarining quyidagi savollari har xil qo'yiladi: marketing – moliya; menejment; soliqlar kabi integrativ bilimlar va h.k.

2). Me'yoriy test tuzishning umumiy yo'nalishi bo'yicha maqsadli yoki kriterial (mezonli) xarakterdagi testlarda yig'ilgan ballar hisob natijalariga ko'ra bir guruhni boshqa guruh bilan, guruh ichidagilarni esa bir – biri bilan solishtirish mumkin. Berilgan testdan o'tgan shaxslarning o'rtacha ko'rsatkichi me'yor hisoblanadi. Solishtirish natijasida mazkur shaxsning o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori yoki past bilim darajasiga ega ekanligi aniqlanadi.

Mezonli testlarda esa har bir ta'lim oluvchining qandaydir o'quv yoki mutaxassislikka oid topshiriqlarini echish uchun zarur bo'ladigan bilim va o'zlashtirish qobiliyatlari ochib beriladi, ya'ni mezonli testlar va unga mos topshiriqlar ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalari aniq fan sohalari bo'yicha o'qitish maqsadining minimal talablariga qay darajada erishgani yoki erishmaganligi haqidagi savollarga javob beradi.

Me'yoriy testlarda, asosan topshiriqni "echdi" yoki "echmadi" deb belgilansa, mezonli testlarda esa topshiriqni qaysidir yo'l bilan echgan ta'lim oluvchilarni murakkab ishlarga qo'yish mumkinligi, ularning murakkab dasturlar bo'yicha ishini davom ettira olishligi hisobga olinishi kerak.

Me'yoriy testlar quyidagi afzalliklarga ega:

- test savollari ko'pgina qobiliyatlarni tekshirishni ko'zda tutadi;
- ta'lim oluvchilarning katta miqdordagi murakkab materialni turli yo'llar bilan o'rganganlarida erishgan umumiy darajasini aniqlashda foydali;
- eng iqtidorli ta'lim oluvchilarni tanlab olish imkoniyatini beradi.

Me'yoriy testlarning kamchiligi ta'lim oluvchi keyingi bosqichga o'tishga qay darajada tayyor ekanligini belgilab bermasligida ko'zga tashlanadi. Shuningdek, me'yoriy testlar ta'lim oluvchilarning hissiy va psixomotor holatlarini o'lchash uchun mos kelmaydi. Ta'lim oluvchilar o'rtasida musobaqaga moyillikni vujudga keltirib, ularni bilim olishdan ko'ra ko'proq ballarni tenglashtirishga intiltiradi. Ammo me'yoriy testlar o'quv predmeti bo'yicha ta'lim oluvchilarning umumiy qobiliyatlarini, katta guruhda qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini aniqlashda va bo'sh ish o'rni uchun eng maqbul nomzodni tanlashda samara keltiradi.

Mezonlarga ko'ra testdan o'tkazishda natijalar o'zgarmas, *doimiy standartlar* bilan solishtiriladi. Masalan, haydovchilik guvohnomasini berish uchun talabgorning bilimi mavjud standart bilan solishtirilishi kerak. Uni boshqa soha hodimining qobiliyatlari bilan solishtirib bo'lmaydi.

Mezonlar bo'yicha o'tkazilgan testlar ta'lim beruvchiga ta'lim oluvchilar bilimi va imkoniyatlarini aniqlashga ko'mak beradi. Masalan, to'rt xonali sonlar bilan arifmetik amallarni bajarish bo'yicha 20 ta misol berilgan bo'lsa, ta'lim oluvchi ularni o'zlashtirgan, deb hisoblash uchun misollarning eng kamida 17 tasi to'g'ri bajarilgan bo'lishi kerak.

Ayrim hollarda tavsiya etilgan testlarni 100 foiz to'g'ri bajarish talab etiladi.

Yangi mavzuni o'tishdan avval ta'lim oluvchining shu mavzuni o'rganishga tayyorligi hamda emotsional va psixomotor holatini aniqlashda, shuningdek, ularni o'qitish uchun guruhlashda **mezonga ko'ra o'tkaziladigan testlardan** foydalanish tavsiya etiladi.

Standartlashtirilgan testlar ma'lum standart talablari qo'yilgan dastur asosida tuzilib, ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakasini aniqlashga mo'ljallanadi.

Ularning erishilgan darajani, qobiliyatlarni (qiziqishlarni ham) aniqlovchi hamda tashxislovchi turlari mavjud.

Ta'lim beruvchilar ko'proq erishilgan darajani va qobiliyatlarni aniqlovchi testlar bilan ishlaydi.

Erishilgan darajani aniqlovchi testlar ta'lim oluvchi ma'lum sohada o'zlashtirgan bilimlar miqdorini o'lchaydigan standartlashtirilgan testlardir. Bu kabi testlarni butun guruhga yoki individual ravishda ishlatish, natijalarni hisoblashda turlicha ball tizimi qo'llanilishi mumkin.

Tashxislovchi testlar ta'limdagi muammolarni belgilab olish uchun individual ravishda qo'llaniladi.

3) Testlarning didaktik – psixologik yo'nalishi qanday test ishlab chiqilayotganligi yoki adaptatsiyasidan o'tayotgan testni uning muallifi qanday xarakterlashni aniqlaydi:

- a) nazariy bilimlarni nazorat qilish uchun o'zlashtirish testlari;
- b) berilgan fan (o'quv va mutaxassislik) bo'yicha bilim va malakalarni nazorat qilish testlari;
- v) o'qitish testlari (ma'lum fan yoki uning tsikli bo'yicha o'quv imkoniyatlarining diagnostikasi).

4) Nazorat bosqichlari bo'yicha yo'nalish:

- a) kirish nazorati (Oliy o'quv yurtiga kirishdagi yoki kursni, fan bo'limini va o'qitish bosqichining boshlanishidagi nazorat);
- b) kundalik (joriy) nazorat – bu har kuni amalga oshiriladigan yoki o'quv jarayoni mavzulari bo'yicha o'tkaziladigan nazorat;
- v) oraliq nazorat – bu muayyan fanning alohida bo'lishi tugashi munosabati bilan o'tkaziladigan nazorat;
- g) yakuniy nazorat – bu ma'lum kurs (fan) ning tugashi munosabati bilan o'tkaziladigan nazorat.

5) Testlashtirishning diagnostik (tashxislanganlik) darajasi bo'yicha berilgan testdan ko'zlangan maqsad:

a) Simptomatik diagnostikaga, ya'ni bilim va o'zlashtirishning “yuqori qatlamlariga” qaratilishi (ya'ni, ma'lum qonuniyat yoki formulalarni bilish, bilmasligi yoki tanish – notanishligi va boshqalar);

b) Etilogiya diagnostikaga, tekshiruv – aloqa sababi (nima uchun aynan o'sha bilimlarni bilmasligi va buning qay darajada boshqa bilimlarni bilishga bog'liqligi)ga qaratilishi;

v) tipologiya diagnostikada esa ta'lim oluvchining o'tilayotgan dars va bilimlarni bilishga, o'zlashtirish va uddalay olishida qanday g'oyalarni kuchaytirish kerakligiga qaratilgan bo'ladi.

6) Sinaluvchining testni bajarish faolligini oshirishga esa yozma va og'zaki testlarga mos ravishda yozma va og'zaki javoblarni qo'llash. Masalan, harakat testlarida, ayniqsa, kompyuterlarda klavishlarni bosishdan tortib, dasturlar yoki qism dasturlarni chiqarishgacha hamda hisoblash ishlarini o'tkazish va grafiklarni chizish, loyihalashtirish kabilarda. Harakat testlari o'qish yoki ishlash qurilmalarida mashq (trenajerlarda) testlarini mutaxassislik bo'yicha o'qitish tizimlariga kiritish mumkin.

7) Testning nomogenlik darajasi (bir jinslik) testni tuzuvchi muallif tomonidan rejalashtirilgan bo'ladi. Shu jumladan:

a) ko'zlangan maqsadga qarab testning nimani tekshirish kerakligi, ayniqsa, integrativ xarakterdagi asosiy elementlar ichidan (masalan, ma'lum amallarning talab qilingan darajada yoki shu amallarni bajarishda sifat, miqdor, tezlik, ketma – ketlik, javobgarlik kabi bir qancha) asosiy omillarni hisobga olish;

b) shakllantirilgan testda topshiriqlar tuzilishi shaklining bir jinsligi (gomogenligi) yoki turli shaklda bo'lishligi.

8) Vaqt omili – testning tezkor bo'lishi, topshiriqlarning funktsional ravishda ma'lum belgilangan vaqtda bajarish zarurligi: qaysi yo'l bilan, nimaga asoslanib vaqtni, baholash vaqtining sarflanish chegarasi belgilangan bo'lishligi.

9) Testlashtirishni tashkil etish usullariga esa umumiy, individual yoki juda kam qo'llaniladigan, lekin juda samarali hisoblangan alohida usuli ham tekshiriluvchilarning tashxischi bilan yuzma – yuz, xolis (testlashtirishning EHM vositalaridagi individual dasturning zamonaviy varianti) turishi kabilar kiradi.

Chet el pedagogikasi testlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularni bizning milliy pedagogikamizga ko'r – ko'rona ko'chirib bo'lmaydi. Chunki, ko'pchilik chet el testlari yagona dastur bo'lmagan sharoit uchun tuzilgan. Bizning yagona dasturimizning **asosiy maqsadi** axborot madaniyatining (kompyuter orqali) namoyon bo'lishi va o'quv dasturi asosiy talablarini bajarilishi bizning testlarimizda asosiy talab – dasturga munosabat bo'yicha xotiradagini eslash bo'ladi.

2. O'qituvchi nazorati va ta'lim oluvchilar faoliyatini baholashning uyg'unligi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'rsida"gi nizomda "Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

• talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

• fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

• talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini tahlil rivojlantirish, axborot resurslari manbalarida samarali foydalanishni tashkil etish;

• talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

• talabalarining fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

• o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish", deb ta'kidlanadi.

Yuqorida keltirilgan hujjatdagi asosiy maqsaddan va qator vazifalardan quyidagi talablar kelib chiqadi.

Ta'limning tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq va aloqador bo'lib, u pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan tashkil etilgan ta'lim vositalari tizimiga bog'liqdir. Bu vositalar butun ta'lim tizimining tarkibiy qismi deb qaralgandagina o'z ahamiyatini yo'qotmaydi va ta'limning umumiy vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda yordam beradi.

Ma'lumki, ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. Ta'lim beruvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi.

Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida aloqani ta'minlash, ta'lim beruvchi tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida ob'ektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Shuningdek, tekshirishning maqsadi nafaqat ta'lim oluvchining bilim darajasi va sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

Ta'lim oluvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib boriladi: ta'lim oluvchilarning bilim darajasini **oldindan aniqlash**; mavzuni o'zlashtirishni **joriy tekshirish**; bilim, ko'nikma va malakalarni egallanganligining **takroriy tekshirish**; yaxlit bo'lib yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha **davriy tekshirish**; ta'lim jarayonining barcha

bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini **yakuniy tekshirish va hisobga olish**.

Ma'lumki, ta'lim jarayonidagi natijalarni hisobga olish, tekshirish va bilimni nazorat qilish (monitoringga e'tibor berish) hamda baholash pedagogik faoliyatda muhim bosqichlardir. Jumladan, mazkur faoliyatda ta'lim oluvchining bilimni haqiqiy va adolatli baholash hamda natijalarni ularga muntazam ravishda ma'lum qilib borish katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim oluvchilar bilimni nazorat qilish va baholashni to'g'ri yo'lga qo'yish, ularda o'tilgan fanlarga nisbatan ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, o'z bilimni doimiy ravishda oshirish, adabiyotlardan keng foydalanishni yo'lga qo'yish demakdir. Shu bilan birga ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi uzviy bog'lanishdagi faoliyat olib borishni yuzaga keltiradi, ya'ni o'qitishning o'zaro aloqador ikki vositasini yuzaga keltiradi. Bu ta'lim beruvchi faoliyati va ta'lim oluvchining mehnatga ongli munosabatini uzluksiz jarayon sifatida doimiy bo'lib turishini ta'minlaydi.

Bunda professor – o'qituvchilarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishi, baholashga doir me'yor va mezonlarni, savolnomalar, test savollari va turli boshqotirmalar hamda tayanch tushunchalarni tuzishdagi mas'uliyatli yondashishi va tinimsiz mehnati yotadi.

3. Bilimlarning natijalarini baholashda pedagogik testlarning roli

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati¹. Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas. Bunga sabab talim olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta'lim olganlik ajratib olinadi. Shuningdek, ta'lim olganlik tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning maqsadi o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarining uning mahsuli bilan bog'liq holda o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Demak, tashxis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Tashxis natijalarni ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqichlarni aniqlaydi. Tashxislash, nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika,

¹ Ушбу мавзу моҳиятини очиқ беришда И.П.Подласый қарашларидан фойдаланилди (Подласый И.П. Педагогика. В 2-х кн. 1. – Москва, Владос, 2001).

tendentsiyalarni (an'analarni) aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi.

Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ta'limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug'ilishini buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. U pedagoglarni o'zlari ega bo'lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lim oluvchilarga nisbatan nazoratning ob'ektiv bo'lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim. Didaktik nazorat o'qitishning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi yo'nalganlikka ega bo'lishi, o'z – o'zi bilan nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foydali bo'lishi lozim.

Ta'lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning eskirgan shakllaridan voz kechishni talab qiladi. Ta'lim oluvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashxislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega bo'ladi. **Birinchi navbatda**, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashxislash natijalari shaxsning o'z darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatbardosh ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishda ko'plab ta'lim oluvchilar uchun majburiy ta'limning zaruriy vositasidan **shaxsiy** reyting – insonning jamiyatdagi mavqei ko'rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.

Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.

Pedagogikada ta'lim oluvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (ob'ektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi. **Xolislik (ob'ektivlik)** tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo'yilgan baholar nazorat metodlari vositalaridan, tashxis o'tkazgan ta'lim beruvchidan qat'iy nazar hamma vaqt mos kelishini anglatadi.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida – bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak. Tizimlilik

barcha ta'lim oluvchilar o'quv muassasasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb etilishini anglatadi. Ta'lim oluvchining bilimi va egallashi lozim bo'lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirish uchun ta'lim nazoratini tez – tez o'tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o'tkazishga butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'liqlikda va birlikda qo'llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutloqlashtirishga yo'l qo'ymaydi.

Ko'rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir ta'lim oluvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy harakterga ega. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo'ljal (orientir) bo'lib, ta'lim oluvchilar unga muvofiq o'zlariga qo'yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi.

Ma'lumki, bugun ta'lim tizimida reyting nazoratidan keng foydalanilmoqda. **Reyting** deganda baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash (tizimlashtirish, sinflash), bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushiniladi. Reyting nazorati ta'lim oluvchining ma'lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Reyting nazoratida ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalanilmoqda. Test so'rovidan nafaqat ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, balki 1993 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida abiturentlarni Oliy o'quv yurtlariga tanlov asosida qabul qilish jarayonida ham samarali foydalanib kelinmoqda.

Pedagogik amaliytda testning bir **qator afzalliklari ko'zga tashlanadi**. Ular quyidagilardir:

- nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;
- nazariy va amaliy bilim darajasini ob'ektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi;
- bir vaqtning o'zida ko'p sonli ta'lim oluvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;
- bilim natijalarining ta'lim beruvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi;
- barcha ta'lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

Ta'lim tizimi uzluksiz ravishda islohatlarni amalga oshirishni talab etadigan sohadir.

Ta'lim tizimida islohatlarni amalga oshirish jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangicha mazmun

kasb etadi. Bu Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilganligi va yangi o'quv dasturining amaliyotga joriy etilganligi bilan ham izohlanadi. Erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qo'yilganligi, ta'lim oluvchilarni kasbga muvaffaqiyatli yo'llash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng ko'lamda amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko'zga tashlanayotgan bir vaqtda ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim oluvchilar bilimini baholashning besh balli tizimining eskirganligi va zamon talablariga javob bera olmagan uchun uni reyting tizimi asosida baholash uslubi bilan almashtirish davr taqozosiga aylanadi. Shu o'rinda "qanday sabablarga ko'ra besh balli baholash mezoni o'zini oqlamadi?" degan savolga javob berish o'rinlidir:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ta'limni demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlantirishni nazarda tutadi. Besh balli baholash tizimi qattiqqo'llikni. Ta'lim beruvchining mustabidligi hamda uning ta'lim jarayonida yakka hukmronligini ta'minlashga xizmat qilib kelgan.

Demak, ushbu jarayonda talab va amaldagi holat bir – biriga muvofiq kelmaydi.

Ikkinchidan, baholash mezoni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida ixtiloflarni keltirib chiqarishga emas, aksincha, o'zaro faol hamkorlik, bir – birini tushuna olishlari uchun xizmat qilishi lozim.

Uchinchidan, baholash mezoni faqatgina ta'lim oluvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasini nazorat qilish uchungina emas, balki ta'limni tashxis etishning faol ko'makchisiga aylanishi zarur.

Baholashning besh balli tizimi birdan beshgacha farqlanuvchi dastlabki baholar qo'yish tartibini bildirib, mohiyati esa baholarning o'rtasidan kelib chiqqan holda choraklik (yillik) o'zlashtirish natijalarini aniqlash tartibidan iborat.

Masalan, ta'lim oluvchi biror o'quv fanidan uchta nazorat ishini 3, 4 va 5 ga bajargan, joriy nazorat bo'yicha ham shunday natijalarni qayt etgan bo'lsa, unga chorak uchun "4" baho qo'yiladi. Bu esa joriy, oraliq va yakuniy nazorat paytida yaxshi tayyorgarlik ko'rgan ta'lim oluvchining ijobiy baholanishi o'rniga, oldingi mavzulardan "5" bahoga berilgan javoblarning mutlaqo inobatga olmasligiga sabab bo'ladi.

Reyting tizimida o'zlashtirish natijasi nazoratning ko'rsatilgan barcha shakllardan o'tish jarayonida to'plangan ballarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Har bir nazorat turi uchun 10 balldan taqsimlanganda (o'quv fani uchun 100 ball hisobida) unga 7,5,8,7 ball qo'yilsa, ta'lim oluvchilarning chorak yoki yarim yillik uchun to'plagan bali 27 ballni tashkil etadi, bu esa 55 foizdan kam, shuning uchun u etarlicha

reyting balini to'plamaguncha va barcha nazorat shaklida o'tmaguncha attestatsiya qilinmaydi. Demak, reyting tizimi olingan baho bilan egallangan bilim o'rtasida tafovut kelib chiqishining oldini oladi.

Reyting tizimi **yana bir qator afzalliklarga ega**, chunonchi:

- ta'lim jarayonida baholash tizimi imkoniyatlarini kengaytirish;
- ta'lim oluvchi bilimni eng adolatli mezonlar yordamida aniqlash;
- ta'limni standartlashtirish jarayoni uchun zarur imkoniyatlarni ochib berish;
- ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan o'quv dasturiga kirgan majburiy ixtiyoriy mavzularning to'laligicha o'zlashtirilishi;
- ta'lim oluvchilarda o'z ustida mustaqil ishlash intilish, erkin fikr yuritish, bilimlarni egallashga nisbatan izchil yondashuv yuzaga keladi;
- ta'lim oluvchilarda yomon baho olishga bo'lgan qo'rquv yo'qolib, uning o'rniga bilimlarni ixtiyoriy o'zlashtirish, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish yo'lida mustaqil ishlash imkoniyati yaratiladi. Boshqacha aytganda, qo'rquv o'rniga intilish, rejalashtirish, harakat qilishga ehtiyoj tug'iladi, o'rganishga nisbatan qiziqish ortadi.

4. Baholash mezonlari va ulardagi xatoliklar.

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi. **Baholash** deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rsatkich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. **Baho** deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchashiga aytiladi. O'zlashtirish tabellari, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholash shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. Ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda ta'lim oluvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko'rsatkichlari ko'proq ballar yoki foizlarda, sifat ko'rsatkichlari esa a'lo, yaxshi, qoniqarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ball, ko'rsatkich (masalan o'rin – 1,2,3,4 va hokazo) tayinlanadi. Bunda baho o'lchash va hisoblashlar natijasida olinadigan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan ma'no ekanini unutmaslik muhim. Baholarni son sifatida qo'llashga berilib ketishning oldini olish uchun bir qator mamlakatlarda baholash harfi (A, V, S, D va hokazo) ifodaga ega.

Bahoni amalda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar umumiy hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta'riflash) dan ta'lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. O'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) ko'rsatkichi

$$Bq \frac{A}{T} \cdot 100\%$$

nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:

B – o'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) bahosi;

A – amalda o'zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi;

T – o'zlashtirish uchun taklif etilgan bilim va malakalarning to'liq hajmi.

Ko'rinib turibdiki, o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho) bu o'rinda 100% - axborotni to'liq o'zlashtirish va 0% - uning umuman mavjud emasligi o'rtasida bo'ladi. Ma'lumki, baholash funktsiyasi ta'lim darajasini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Baho – pedagog ixtiyoridagi o'qishni, ijobiy motivatsiyani rag'batlantirishning va shaxsga ta'sir ko'rsatishning yagona vositasi. Aynan xolis (ob'ektiv) baholash ta'sirida, ta'lim oluvchilarda adekvat o'z – o'zini baholash, shaxsiy muvaffaqiyatlarga tanqidiy munosabat yuzaga keladi. Shu bois bahoning ahamiyati, vazifalarining xilma – xilligi ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatlarining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularni aniqlashni ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni izlab topishni talab etadi.

Ta'lim beruvchi o'qitish bilan bir vaqtda ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak. **Hisobga olish** – bu o'qitishning muayyan bir davrida ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Hisobga olish natijasida ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham o'zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O'zlashtirishni hisobga olish ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantirib, ma'lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o'zlashtirishni hisobga olish ta'lim beruvchining faoliyatni ham tashkil etadi. O'qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o'qituvchining pedagogik mahorati ko'rsatkichiga aylanmoqda va ta'lim beruvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

To'g'ri tashkil etilgan hisobga olish natijasida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini aniq baholay oladi, ularning o'z bilimlarini takomillashtirishga intilishini yuzaga keltiradi, aqliy va axloqiy rivojlanishiga ta'sir etadi.

Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e'tiborini qaratishi lozim:

- o'quv dasturi asosida mavzu va bo'limni o'rganishda ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;
- har bir yakunlangan mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilarning faoliyati to'g'risida to'liq xulosa chiqarish;

- o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini baholamaslik;

- ta'lim oluvchilarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish.

Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda ta'lim beruvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

O'qitish vazifasi ta'lim oluvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda ta'lim oluvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi. Chunki, guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar javob berayotgan ta'lim oluvchining fikrini diqqat bilan tinglashadi va avval egallagan bilimlarini mustahkamlab, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishadi. O'rtoqlarining javoblariga qo'shimcha qilishga yoki echilmay qolgan savollarga javob berishga shaylanish orqali o'rganilgan mavzuni aniqlashtirishga harakat qiladi.

Nazoratning **tarbiyalash vazifasi** shundan iboratki, ta'lim oluvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Shuningdek, tekshirish va baholash ta'lim oluvchining o'z bilimlari va qobiliyatlarini o'zi mustaqil aniqlashiga ham yordam beradi. o'zidagi kamchiliklarni ko'ra olishga va uni tugatish yo'llarini izlashga ko'maklashadi. Lekin ta'lim oluvchining bilimini baholashda ta'lim beruvchi nohaqlikka yo'l qo'ysa, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Uy vazifalarining esa haddan ziyod ko'p bo'lishi ham ta'lim oluvchilarning yuzaki dars tayyorlashiga olib keladi.

Eng asosiysi, o'zlashtirishni hisobga olish, shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish, yaxshi o'qishga xohish uyg'otish, o'quv ishlariga vijdonan yondashish, javob berishga tayyorlanishda mustaqil bo'lish hamda bilish faoliyatini chuqurlashtirishga qaratilmog'i lozim.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, his – tuyg'ulari va axloqiy sifatlarni tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z – o'zidan nazoratning **rivojlantiruvchi vazifasi** sanaladi.

Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini baholash turlari va mezonlari. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, guruhdagi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333 – sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi muvaqqat Nizom”iga oid nazorat turlari quyidagicha:

- Joriy nazorat (JN)
- Oraliq nazorat (ON)
- Yakuniy nazorat (YaN)

Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Joriy nazorat – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash hamda baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda , seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini ichiga olgan) bo'limi tugullangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” (tibbiy oliy ta'lim muassasalari uchun “Yozma ish” yoki OTKS (ob'ektiv tizimlashtirilgan klinik sinov) shaklida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi qarori asosida ko'pi bilan 40 % fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test, himoya va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

Talabaning fan bo'yicha mustaqil ishi JN, ON hamda YaN turlarida baholanadi.

Talabalarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Har bir fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Ya, N – 30 ball; JN va ON – 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlariga taqsimlanadi).

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

86-100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

71 – 85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

55 – 70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

Quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi (qoniqarsiz) 0 – 54 ball bilan baholanishi mumkin:

- aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- bilmaslik.

Shuningdek, 86 – 100 ball – “a'lo”, 71 – 85 ball – “yaxshi”, 55 – 70 ball – “qoniqarli”, 0 – 54 ball – “qoniqarsiz” baho deb baholanadi.

Talabaning fan bo'yicha bir semestrda reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_{f q} = \frac{V \cdot O'}{100}$$

bu erda:

V – semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

O' – fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi, aksincha, 55 va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi.

Biz barcha uchun umumiy bo'lgan quyidagi amallarni talabalar bilan bajarishni tavsiya etamiz:

- fan o'qituvchisi semestr davomida o'qitiladigan fanni soatlar taqsimotini aniq bilish lozim;

- talabalarga birinchi mashg'ulotdayoq baholash turlariga dahldor ballar miqdorini berishi shart;

- JN har bir juftligiga beriladigan ball miqdori talabaning quyidagi harakatlari uchun beriladi: mashg'ulotga qatnashish va faol ishtiroki; topshirilgan topshiriqni bajarilganlik darajasi; daftar tutishi va imloviy xatolarga e'tibor qaratilishi, olingan natijalarni ilmiy va izchil asoslay olishi, hozirjavobligi, topqirligi va ijodiy fikrlar bilan qatnashishi;

- Oraliq nazoratga ajratilgan ball miqdorini talaba darsga doimiy faol qatnashishi hamda bosqichlarda bajaradigan ishlarning natijasiga ko'ra to'playdi. ON da bajariladigan ishlar: savolnomalarga yozma javob berish, test savollarini echish, alohida bob yoki mavzularni mustaqil ish tarzida test savollari, boshqotirmalari yoki rebuslar tuzish, ayrim mavzulardan referatlar yozish yoki mavzulardan og'zaki savol – javob qilish kabilardir.

- YaN ga Nizom bo'yicha ajratilgan 30 ballga moslab, semestr oxirida mustaqil ish topshiradi hamda tayanch tushunchalarga asoslangan variantlar tuzilib, talaba o'z variantiga javob tarzida "Yozma ish" yozadi. YaN dagi ballar miqdori yozma ishning quyidagi holatlari uchun beriladi: variant savollariga yozilgan javobning mukammalligi, talabaning savodli va ilmiy tilda bayon etishdagi e'tibori, fikr – mulohazalarining asosli va mantiqli ekanligi, daftarni tutish va jihozlash tartibiga rioya qilinganligi, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlarni keltirilishi kabilardir.

Umuman, reyting tizimi quyidagicha vazifalarni bajarishga qaratilganligini unutmasligimiz lozim:

- fanning talaba tomonidan tizimli tarzda belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil qilish;

- talaba o'zlashtirishini muntazam baholab borish;

- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot manbalardan samarali foydalanishni tashkil etish;

- talabaning bilimini adolatli va aniq baholash;

- baholash natijalarini muntazam ma'lum qilish va tahlil qilish;

- professor – o'qituvchilarning har bir darsga va baholash jarayoniga mas'uliyatini oshirish;

- o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

Yuqorida keltirganlirimizdan ko'rinadiki, bilimga baho qo'yish bitta mashg'ulotning barcha qismlariga singib ketishi bilan birga butun fanning mazmunidan ham xabardor bo'lishini taqozo etadi. Bu esa ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi doimiy ijodiy munosabatni amalga oshirishni talab etadi. Ular o'tilgan materiallarni qaytarish, yangi materiallarni tushunish uchun zamin ekanligini tushunib etadilar, barcha topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishga faollik ko'rsata boshlaydilar. Talabalarni JN, ON va YaN lar bilan baholar ekanmiz, albatta, ularning yutuq va kamchiliklarini yoritib berishimiz, javoblarini yoki yozma bajargan ishlarini tahlil qilishimiz lozim. Chunki, fan ta'lim beruvchisi talabalaning semestr davomida bajargan ishlari, faol ishtiroki va boshqa javoblarini aniq hisobga olib bormasa va natijaviy balini chiqarganda qisqacha izohlab bermasa, ular qo'yilgan bahoning **to'g'riligiga shubha** tug'ilishi mumkin.

Talaba o'z bilimining qanday yutuq va kamchiligi borligini tushunib, nima uchun uning bali oshganligini yoki pasayganligini anglagandagina u rag'batlantiruvchi rol o'ynashi mumkin. Talaba o'z xatosini tushungach, uni to'g'rilashga ongli ravishda intiladi. Aks holda, bu talabaga ham, uning o'qishga bo'lgan munosabatiga ham salbiy ta'sir etadi. Unda tirishqoqlik, o'z bilimiga va iqtidoriga bo'lgan ishonchi **pasayib boradi**, ta'lim beruvchiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lib uni **“adolatsiz”** ga chiqarib qo'yadi.

Ta'lim beruvchining to'g'ri va adolatli asoslashi, garchi, salbiy harakterda bo'lsa ham, talabani qanoatlantiradi. Ta'lim beruvchi bilimni doim nazorat etib ball bilan baholar ekan, talabaning ishiga bo'lgan munosabatini aytib o'tadi. Erishgan yutuqlari uchun rag'batlantirsa, kamchiligi uchun koyiydi. Uni bartaraf qilish mumkinligini ham ijodiy tayyorgarlik paytida asosiy e'tiborini nimalarga qaratish kerakligini ko'rsatadi. Bunday asoslash talaba yutuqlarning aniq bahosi bo'libgina qolmay, balki uning bundan keyingi o'qishdagi vazifalarini bajarishga yordam beradi. Bu, talabada umid uyg'otadi. O'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va ta'lim beruvchi – ustozga nisbatan ham e'tiqodni yanada kuchaytiradi. Eng asosiysi ular kelajakda o'z faoliyatlariga tanqidiy ko'z bilan qaraydigan jiddiy shaxslar bo'lib etishadilar.

Demak, bilimni to'g'ri va haqqoniy baholash ta'lim beruvchining pedagogik faoliyatiga ham katta ta'sir kursatadi va quyilgan bahoga javobgarligini oshiradi. Baho talabaga ta'sir etib, uning ijodiy va salbiy kechinmalarini jumbushga keltiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu kechinmalar faqat bahoning qandayligiga bog'liq bo'lmay, balki uning talaba ongiga qanday etkazishiga ham bog'liqdir. Faqat yuqorida aytib o'tilgan shartlarga rioya qilib, hamma tomon hisobga olingan holda,

qo'yilgan ob'ektiv baho talabalarda axloqiy – irodaviy xususiyatlarni tarkib toptirishga yordam beradi.

Nazorat savollari

1. O'zlashtirish natijalarini bilish nima uchun kerak?
2. Ta'lim natijalarini nazorat qilish vositalari nimalardan iborat?
3. Nazorat qilishning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalarini nimalardan iborat.
4. Didaktik testlarning vazifalari qanday?
5. Me'yoriy test bilan mezonli testning farqini aytib bering.
6. Standartlashtirilgan testning asosiy funktsiyasi nimalardan iborat?
7. Testlashtirishdan tashxislashda qanday foydalaniladi?
8. Testlashtirishning ta'limiy ahamiyati nimalardan iborat?
9. Tekshirish turlarini sanab bering?
10. Baholash mezonlaridan ta'lim natijalarini aniqlashda qanday foydalaniladi.
11. Testlashtirishning ijobiy tomonlarini sanab bering?
12. Testlashtirishning salbiy tomonlarini sanab bering?

Topshiriqlar

1. Ta'limni o'zlashtirish natijasi nima uchun kerakligini asoslash va u orqali ta'limda rejalashtirishning zaruriyligini bayon qilish.
2. Baholash mezonlari va ulardan amaliyotda foydalanishning ahamiyatini ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.
3. Ta'lim natijalarini rasmiylashtirish jarayonidagi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining uyg'unligini yoritish.
4. Ta'lim natijalarini hisobga olishda reyting tizimining joriy etilishini ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.
5. Ta'lim natijalarini baholash mezonlari va ularning amaliy ahamiyatlarini baholashni ta'lim oluvchilarga o'rgatish.
6. Ta'lim jarayonlarini tekshirishning baholash jarayonlariga ta'siri haqidagi amaliy ta'limiy faoliyatlardan misollar keltiring va ular orasidagi uyg'unlikka e'tibor berishning ta'limiy afzalliklaridan sanab bering.
7. Ta'lim natijalarini nazorat qilish vositalarini sanab bering va ulardan amaliyotda foydalanish bo'yicha referat tayyorlang.
8. Nazorat funktsiyalarini sanab bering va ulardan amaliyotda foydalanish bo'yicha tavsifnomalar tayyorlang.
9. Didaktik testlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida referat tayyorlang.
10. Me'yoriy va mezonli testlarning qo'llanilish sohalari to'g'risida referat tayyorlang.

11. Standartlashtirilgan testlarning mazmun – mohiyati bo'yicha referat tayyorlang.

12. Testlashtirishning diagnostik darajasi bo'yicha berilgan testdan ko'zlangan maqsad haqida referat tayyorlang.

13. Testlashtirishni tashkil etish usullari haqidagi ma'lumotlarni to'plab, tahlil qilib ko'ring.

14. Nazorat va tekshirishdagi umumiylik va xususiylik haqida referat tayyorlang.

15. Baholash mezonlari va tamoyillarining ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdagi ahamiyati haqida referat yozing.

Tavsiyalar:

1. Ta'lim natijalarini hisobga olishda matematik – statistik metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini aniqlashda fundamental asos bo'lib hisoblanadi. Buni muayyan mavzuni o'zlashtirish misolida ko'rib chiqing.

2. Ta'lim natijalarini nazorat qilish funktsiyalari ta'limni olibborishning optimal variantlarini kafolatlaydi. Muayyan fan bo'yicha o'zlashtirish natijalarini baholash bo'yicha ulardan foydalanib ko'ring.

3. Didaktik testlar ta'lim nazariyasi amaliyotida mustahkam o'rin tutadi. Didaktik materiallarning ta'lim mazmunini boyitishdagi mazmun – mohiyatini ochib berishga harakat qiling.

4. Standartlashtirilgan testlar ta'lim jarayonini rostlash va boshqarishda muhim didaktik asos bo'ladi. Bunday jarayonlarda teskari aloqani ahamiyati beqiyos. Siz uni yoritishga harakat qiling.

5. Ta'lim natijalarini tashxislashda testlashtirishlarning ahamiyati beqiyos. Siz mazkur jarayonda ta'lim natijalari monitoringini yuritishga harakat qilib ko'ring.

6. Baholash mezonlari va uning monitoringining ta'lim jarayonini boshqarishga ta'sirini tahlil qilib ko'ring.

7. Baholash tamoyillari va uning monitoringining ta'lim jarayonini boshqarishga ta'sirini tahlil qilib ko'ring.

8. Ta'lim oluvchining o'zlashtirishdagi asosiy va ikkinchi darajali ko'rsatkichlarni aniqlang. Ularni muayyan bir mavzuni o'zlashtirish bo'yicha tahlil qilib ko'ring.

Testlari

1. O'quvchi faoliyatining asosiy turi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) O'qish mehnat;

- B) Mehnat o'yin;
- *S) O'yin, o'qish;
- D) Muomala mehnat.

2. Ta'lim oluvchilarning bilim va malakalarini tekshirish qanday ketma-ketlikda olib boriladi?

- A) joriy tekshirish; yakuniy tekshirish va hisobga olish;
- B) joriy tekshirish; davriy tekshirish; yakuniy tekshirish;
- *S) joriy tekshirish; takroriy tekshirish; davriy tekshirish; yakuniy tekshirish va hisobga olish;
- D) joriy tekshirish; takroriy tekshirish; davriy tekshirish; oraliq tekshirish, yakuniy tekshirish va hisobga olish;

3. Pedagogikada ta'lim oluvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish qanday tamoyillari mavjud?

- *A) xolislik, tizimlilik, ko'rgazmalilik;
- B) ob'ektivlik, tizimlilik, sistemalilik;
- S) sistemalilik, ko'rgazmalilik, oshkoralik;
- D) xolislik, ob'ektivlik, sistemalilik.

4. Baholash nima?

- A) o'quvchining bilimiga baho qo'yish;
- B) o'quvchining o'zlashtirishini aniqlash usuli;
- *S) bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rsatkich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirish;
- D) o'quvchilarning fan bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash.

5. O'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olishning qanday vazifalari mavjud?

- A) nazorat, o'qitish, tarbiyalash vazifalari
- *B) nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalari;
- S) o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalari
- D) ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish vazifalari

6. "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi muvaqqat Nizom"iga muvofiq nazoratning qanday turlari mavjud?

- *A) joriy nazorat (JN), oraliq nazorat (ON), yakuniy nazorat (YaN);
- B) joriy nazorat (JN), yakuniy nazorat (YaN);
- S) joriy nazorat (JN), oraliq nazorat (ON), yakuniy nazorat (YaN), umumiy nazorat (UN);
- D) joriy nazorat (JN), oraliq nazorat (ON), umumiy nazorat (UN);

7. Talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob bersa talabaga necha ball qo'yish mumkin: xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

- A) 55-70 ball oralig'ida;
- B) 71-85 ball oralig'ida;
- *S) 85-100 ball oralig'ida;
- D) 0-54 gacha bo'lgan ball oralig'ida.

8. Testga qanday talablar qo'yiladi?

- A) moslik (adekvatlilik), oddiylik, aniqlik;
- B) oddiylik, aniqlik va muayyanlik;
- S) adekvatlilik, oddiylik, aniqlik va muayyanlik;
- *D) moslik (adekvatlilik), oddiylik, aniqlik va muayyanlik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Podlaso'y I.P. Pedagogika. V 2-x kn. 1.– Moskva, Vldos, 2001.–342 s.
2. Hasanboev J., Sariboev H., Niyozov G., Hasanboeva O., Usmonboeva M. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 282 b.
3. Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010. (78-87 betlar)
4. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.(121-124 betlar).
- 5.Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012. (60 -66 betlar)

4-MAVZU: TARBIYAVIY TADBIRLARNI O'TKAZISHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYANING O'RNI

Asosiy savollar:

1. Tarbiyaviy ishiarni rejalashtirishda pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan foydalanish
2. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni tashxis etish.
3. Diagnostikada ta'limning o'ziga xos tomoni

KALIT SO'ZLAR: Ta'lim-tarbiya, jarayon, o'lchash, shkal, yo'nalish, metodik, sifat, talab, nominal shkala, tartibli shkala, intervalli shkala, proportsiya, natijalari, tahlil

Tarbiyaviy ishiarni rejalashtirishda pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan foydalanish. Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Ko'hnalar tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishiga chorlagan. Har bir insonga, oila, jamoa, xalqqa rahnamo bo'lgan. Kishilarni og'ir sinovlarga bardosh berishga, yomg'ir kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, ishon tirgan. Bunday da'vat o'z navbatida odamlarga kuch-quwat bag'ishlagan, irodasini mustahkam qilgan, bir-biriga mehr-oqibatini oshirgan. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda tarbiyaning bir qancha turlari mavjudligini tarbiyachi aniq anglashi lozim va tarbiyaviy tadbir nima maqsadda rejalashtirilayotganligini, undan kutilajak natija qanday bo'lishi lozim, degan savolga javob topishi kerak. Tarbiyaning quyidagi turlari farqlanadi: aqliy tarbiya: bilim, ilm, malaka, ko'nikma; aql, ong, faxr; axloqiy tarbiya: axloq, odob, xulq, yaxshilik, adolat, insof, diyonat, sharm, hayo, vatanparvarlik va boshqalar; mehnat tarbiyasi: faollik, ishchanlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik; aqliy ish, jismoniy mehnat; jismoniy tarbiya: chiniqish, jismoniy o'yinlar; nafosat tarbiyasi: go'zallik, kiyinish madaniyati, muomala madaniyati, saranjom-sarishtalik; ekologik tarbiya: tabiat, atrof-muhit, flora va faunaga sog'lom yondashuv; iqtisodiy tarbiya: tejamkorlik, bozor iqtisodiyoti, sarf, isrof; foyda, mulk, mulkka egalik, tadbirkorlik; huquqiy tarbiya: insonparvarlik, burch, vijdon, tenglik, adolat, to'g'rilik, xalollik kabi tushunchalarni shakllantiradi. O'zbek xalqining etnopedagogikasi umuminsoniy va milliy tarbiyaning qudratli omili, vositasidir. Turkiy xalqlar o'z bolalarini yoshlikdan uy-ro'zg'or mehnatiga o'rgatishga katta e'tibor bergan. O'zbek xalq pedagogikasi bolalarga-kimki yaxshi mehnat qilsa, yaxshi buyum tayyorlasa, u yaxshi usta, degan g'oya singdirilgan. Bundan tarbiya jarayonida: "Aw al bil, keyin qil", "Awal o'rgan, keyin o'rgat", "Aql ko'pga yetkazar, hunar ko'kka", "Ustoz shogird-jonsiz kesak", "Ustoz ko'rmagan shogird-har maqomdayurg'alar" kabi maqollarning ahamiyati katta bo'lgan. O'zbek xalq pedagogikasi da qo'llanib kelingan tarbiya usullari yoshlarga o'zaro izzat-hurmatda bo'lish, qadr-qimmatni anglash, samimiylik, iltifotlilik, haqiqatlilik, mardlik, jasurlik, mehribonlik kabi jismoniy fazilatlarni singdirishga xizmat qilgan. Bolani elga manzur, odobli farzand qilib tarbiyalash ota-onaning burchi hisoblangan. O'zbek xalqi yaratgan maqol, naql, afsona, rivoyat, hikoyatlarda ma'naviy axloqiy ideallar, ibratli, qiziqarli o'gitlar shaklida bayon etilgan. "Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan", "Har kim ekanin o'radi", "Bola aziz, odobi undanda aziz" kabi maqollar shular jumlasidandir. Bayon qilingan pedagogik fakt va mulohazalar o'qituvchining axloqiy fazilatlari tarbiyachilik ishining va tarbiyashunoslik ilmining tarkibiy qismi sifatida pedagog diagnostika elementlarining qo'llanilishii zaminida vujudga kelib,

asrlar davomida sayqallanib, takomillanib borganidan dalolat beradi. O'zbek oilasining bola tarbiyasi bobida to'plagan tarixiy tajribasi, milliy axloqiy qadnyatlarimiz o'qituvchi odobining bebaho manbai, bitmas tuganmas sarchashmasidir. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda pedagogik diagnostika imkoniyatlari keng. Uzlüksiz ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tarbiyaviy jarayonni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. Ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va uni sifatli rejalashtirishda monitoring ishlarini tashkil etish, pedagogik-psixologik va funksional vazifalarni, natijalarni o'zida aks ettiruvchi ko'pqirrali tizimni yaratish -har tomonlama barkamol, intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalash g'oyasiga monand keladi. Tarbiya sifatini oshirishda tarbiyachining muvofiqlashtirish funksiyasini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. "Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan, o'z yurti, o'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama sog'lom avlodni yengib bo'ladimi? Bugun biz o'z oldimizga quygan yuksak maqsadlarga yetishda ana shu navqiron avlodimiz hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqayotgani barchamizga. g'urur va iftixor bag'ishlaydi¹. Darhaqiqat, XXI asrda ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmokda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosida huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida maydonga chiqdi. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya sifati - kasbiy anglashning kompleks tavsifi bo'lib, zamonaviy rivojlanish bosqichida iqtisodiy taraqqiyot talablariga mos kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli yurituvchi mutaxassis qobiliyati va ish faoliyati bilan belgilanadi. Tarbiyaviy ishlarni diagnostika qilishda tashxis qiluvchining muvofiqlashtirish funksiyasi qo'yilgan maqsadlarga erishishiga yordam beradigan yangi holatga samarali tarzda o'tishni ta'minlaydi. Bu quyidagi tashxislash bosqichlarida namoyon bo'ladi: - birinchidan, har qanday tarbiyaviy ish maqsadli faoliyatdir; - ikkinchidan, tarbiyaviy ish boshqa barcha faoliyat turlaridan farq qiladi; - uchinchidan, tashxislanuvchining yoshi, jinsi, motivlar doirasi inobatga olinadi; - to'rtinchidan, tarbiyaviy ishning bir sifat holatidan boshqa yuqoriroq sifat holatiga o'tish zarurati bilan xarakterlanadi. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni tashxis etish. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni tashxis etish bir necha yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlarning maqsadga yo'nalganligi va uyushqoqligini ta'minlaydigan sub'ektlarning faoliyati o'rganiladi; rejalashtirish, tashkillashtirish, rahbarlik qilish va nazorat qilish ahvoli tashxislanadi; tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda ular maqsadga yo'naltirilganlik, tizimlilik, prognostiklik, davriylik xususiyatlariga ega bo'lsa, samara berishi mumkinligi qayd etiladi.

Tarbiyaviy ishlarni oqilona rejalashtirilganligini tashxislashda:

- a) tarbiyaviy ish mexanizmi ob'ektning murakkabligiga va sub'ekt imkoniyatlariga mos kelsa;
- b) yetarli zahira (vaqt, boshqaruvdagi yechimlar va b.) mavjud bo'lsa;
- v) mezonlar to'g'ri tanlangan bo'lsa;
- g) yaxshi rivojlangan teskari aloqa tizimi mavjud bo'lsa;
- d) inson omili hisobga olingan bo'lsa samarali natija berishi inobatga olinadi.

Tarbiyaviy ishlarning samarasini tashxislash natijasida tarbiyachining muvofiqlashtirish funksiyasini rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va baholash vazifalari bilan uyg'unlikda bajarilishi umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining intellektual jihatdan voyaga yetishiga, ma'naviy barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga va pedagog xodimlarning ilmiy-ma'naviy jihatdan o'sishiga, siyosiy va fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Podlaso'y I.P. Pedagogika. V 2-x kn. 1.– Moskva, Vldos, 2001.–342 s.
2. Hasanboev J., Sariboev H., Niyozov G., Hasanboeva O., Usmonboeva M. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 282 b.
3. Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010. (78-87 betlar)
4. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.(121-124 betlar).
- 5.Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012. (60 -66 betlar)

5-MAVZU: IJTIMOIIY PEDAGOGIK TASHXIS. OILA TASHXISI. TASHXIS MARKAZLARINING BOLA TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Asosiy savollar:

1. Ijtimoiy pedagogik tashxis
2. Oila tashxisi, oila bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.
3. Tashxis markazlarining bola tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati.

KALIT SO'ZLAR: Anomal bolalar, iqtidorlilik, ijtimoiy me'yorlar, rivojlanishda og'ishlik bo'lgan bola, nogiron bola, deviant xulq, delikvent xulq, qarovsizlik.

Ijtimoiy-pedagogik tashxis. Uning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari ijtimoiy - pedagogik tashxis haqida umumiy tushuncha. Tashxis deganda avvalo, obyektning axvolini aniqlash va belgilash nazarda tutiladi. Biz tibbiy, psixologik va pedagogik tashxis kabi tushunchalar bilan duch kelganmiz. Lekin ijtimoiy pedagogikada ijtimoiy pedagogik tashxis jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ijtimoiy pedagogik tashxis - bu pedagogik faktorlarning samaradorligini oshirish maqsadida sotsiologik, ekologik va ijtimoiy - psixologik faktorlarning sotsiumga xamda xar bir shaxsga ta'sir ko'rsatishi haqidagi axborotlar majmui kabi bilish jarayonining tashkiliy qismidir. Ijtimoiy pedagogning tashxis obyekti - ijtimoiy mikromuhit bilan munosabati tizimida bolaning shaxs sifatida rivojlanishi va ijtimoiylashuvi jarayonidir. Ijtimoiy pedagogik tashxis orqali mikromuxitning ijtimoiy psixologik tavsifi, oila tarbiyasi va pedagogik jarayonlar shaxsining individual - psixologik tavsifi o'rganiladi.

Ijtimoiy - pedagogik tashxisning umumiy tuzilish. Ijtimoiy pedagogik tashxis quyidagi tuzilishga, ya'ni strukturaga ega:

- ✓ ☐ bolaning faoliyatidagi nuqsonlarni aniqlash konstatatsiyasi;
- ✓ ☐ bolaning faoliyatidagi ushbu nuqsonlarning sabablarini aniqlash;
- ✓ ☐ ushbu bola haqidagi to'plangan materiallar asosida dastlabki farazni ilgari surish;
- ✓ ☐ ushbu farazni sinashga doir qo'shimcha axborotlar to'plash, agarda faraz isbotlanmasa, barcha muolajalarni qayta ko'rib chiqish.

Bola yoki o'smir shaxsi bilan olib boriladigan bu ishlarni bir so'z bilan aytganda ijtimoiy pedagogik tekshiruvdan o'tkazish deb yuritsa ham bo'ladi. Demak, ijtimoiy pedagogik tekshiruv ijtimoiy pedagogik tashxisning asosini tashkil etadi.

Oila tashxisi. Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy - pedagogik faoliyat.

Oila tashxisi va oila tarbiyasi masalalari. Pedagogika va psixologiya fanlarida ota-onalar bilan ish olib borishga doir turli xil yondoshuvlar mavjud. Shulardan biri I.V.Grebennikov tomonidan yosh va pedagogik psixologiyaga asoslangan xolda yaratilgan ma'rifiy - axborotli yondoshuvdir. Shu yondoshuvning mazmuni va moxiyatidan kelib chiqqan xolda ba'zi mamlakatlarda ota-onalarga uzluksiz va ma'lum tizim asosida yordam berish maqsadida ota-onalar, umuman oila uchun ommaviy ta'lim dasturi ham ishlab chiqilgan. Bu dasturlar asosida oilaning bola tarbiyasidagi rolini faollashtirishga muvaffaq bo'lingan. Lekin bu dasturlar anonim tarzda olib borilgan. Har qanday faoliyat o'z samarasini beradi, agarda u aniq

manzilga qaratilgan bo'lsa. Shuning uchun ham muayyan ijtimoiy pedagogik yordamga muxtoj oilalarni ijtimoiy pedagogik tashxis asosida aniqlab, ularga real yordam ko'rsatish, ya'ni oilada valeologik sog'lom turmush tarzini shakllantirish va bolalarga turli tarbiya berish maqsadga muvofiqdir. Chunki oila tarbiyasida aynan oila tashxisi muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar bilan olib boriladigan maxsus amaliy ishlar bir oilaning ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularga ijtimoiy pedagogik yordam berishda maxsus amaliy ishlar (spetspraktikumlar) muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada sog'lom turmush tarzini saqlashga doir ota - onalarning pedagogik psixologik tayyorgarligiga bo'lgan ehtiyojni tashxis etish bo'yicha maxsus amaliy ish quyidagicha amalga oshiriladi: maqsadni belgilash, ya'ni oiladagi erishilgan yutuqlarni aniqlab, ularga suyanan xolda ota-onalarning yana qanday imkoniyatlarga ega ekanligini hamda qanday yordamga muxtoj ekanligini belgilash, harakatlar algoritmi, ya'ni ota - onalar orasida oila tashxisini o'rnatishga doir anketalar tarqatish, ularga javoblar olish, tahlil etish, ularning tavsifiga ko'ra ota-onalarni kichik guruhlariga ajratish va tashxis natijalari bilan tanishtirish kabi faoliyatlardir, tashxis asosida pedagogik konsiliumlarni tashkil etish, psixologik xizmatni amalga oshirish rejalarini tuzish ishlari amalga oshiriladi, oila tashxisini amalga oshirishda oila va oilaviy munosabatlarning psixologik holatini, muhitni o'rganishga doir «Tipik oilaviy xayot», «Oila hayajonlari tahlili», «Oilaning kinetik rasmi» nomli maxsus test ishlarini o'tkazish kabi metodlardan foydalanish mumkin.

Psixolog va sotsiologlarning tekshirishlariga ko'ra, oilaviy tarbiya kamchiliklari turli tuman ekanligi va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar ochib berilgan. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Ota-onalarning bola tarbiyasida mas'uliyatni his etmasligi:
 - a) bolaning moddiy ta'minoti va ma'naviy kamoliga javobgarlikning yo'qligi;
 - b) bolaning tarbiyasini bog'cha, maktab, o'quv yurtlarining vazifasi deb tushunishi.
2. Oilada salbiy psixologik muhitning ustun turishi.
 - a) bolalarga kattalar tomonidan diqqat-e'tiborning yetishmasligi;
 - b) ota-onalar bilan farzand o'rtasida o'zaro tushunishning yo'qligi;
 - v) oila davrasida muhitida doimiy janjallarning qaror topganligi va ularni kamaytirish uchun intilishning yo'qligi;
 - g) ota-onalarning beqaror his-tuyg'ulari, kayfiyatlari, ularning tartibsiz, tasodifiy xarakterga ega bo'lishligi;
 - d) ota-onalarning shaxsiy qiziqishlarining o'zaro mos tushmasligi va tubdan bir-biridan qarama-qarshiligi.
3. Ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimdan xabardor emasligi:
 - a) ko'r-ko'rona otalik va onalik mehr-muhabbatining xukm surishligi va uning beqaror ahamiyat kasb etmasligi;

- b) ota-onaning bola qiziqishi xohish-istagi bilan hisoblashmasligi;
- v) ota-onaning bolaga nisbatan qo‘pol muomalada bo‘lishlari;
- g) oila muhitida adolatsizlik, ikkiyuzlamachilik, tovlamachilik, poraxo‘rlik, o‘zganing haqqiga hiyonat qilish illatlarining namoyon bo‘lishi;
- d) oila turmushining to‘ralarcha qonun-qoidasi – shaxsiy manfaatdorlikka ro‘ju qo‘yilganligi;
- e) oilada yaxshi an‘analarni, urf-odatlarining yo‘qligi va ma‘lum qolipdagi salbiy xatti-harakatlarga rioya qilinishi;
- j) oilaning ijtimoiy muhitdan ajralib qolishligi.

- vazifa amalda bajarib ko‘rsatiladi, amaliy mashq tashkil qilinadi;
- to‘g‘ri bajarishga talablar qo‘yiladi;
- talablarni bajarib zarurligi eslatiladi;
- vazifaning qay darajada talablarga muvofiq va to‘g‘ri bajarilishi kuzatib boriladi.

Pedagogik korreksiya faoliyatida **rag‘batlantirish** va **jazolash** metodlaridan ham foydalaniladi.

Rag‘batlantirish va jazolash - o‘quvchi shaxsiga ta’sir qilishning murakkab usullaridan bo‘lib, ular o‘quvchi xarakterida ma’lum axloqiy sifatlarni shakllantirish maqsadida qo‘llanilishi mumkin. Bunda, rag‘batlantirish - harakat va holatni ma’qullaydi, jazolash esa - noto‘g‘ri harakat va faoliyatni qoralaydi, unga yomon baxo beradi. Jazolash va rag‘batlantirish bola harakati va uning oqibati orasidagi muharrar bog‘liqlikni eslatadi (rag‘batlantirish - qoniqish, jazo - norozilik).

Pedagogik korreksiya jarayonida bu metodlar pedagog tomonidan turli ko‘rinishlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, bular o‘quvchini qayta ishontirish, ogohlantirish kabilarni ham o‘z ichiga oladi.

Qayta ishontirish ishontirish metodiniig bir ko‘rinishi bo‘lib, uning mohiyati o‘quvchi ongidan noto‘g‘ri tasavurlar, xato hayotiy rejalarni mantiqiy tushuntirish orqali surib chiqarishdan iborat.

Ogohlantirish metodi pedagogik korreksiyada keng qo‘llanilnb, u o‘quvchining noto‘g‘ri xatti-harakatlarining oldini olish, ularga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida qo‘llaniladi.

Pedagogik korreksiyada interfaol metodlarni qo‘llash

Ta’limning interfaol metodlari tarbiyaviy korreksiya jarayonini faollashtirishga yordam beradi. Bu guruhga kiruvchi metodlarning o‘ziga hos jihatlari mavjud bo‘lib, bular quyidagilardan iborat:

- tafakkurni faollashtirishga majbur qiladi;

- qaror qabul qilishga mustaqil va ijodiy yondashishning zarurligi;
- pedagog va o'quvchilarning doimiy ravishdagi o'zaro hamkorligi.

Interfaol metodlarning o'ziga xos tasnifi mavjud bo'lib, ular noitatsion va imitatsion metodlarga bo'linadi.

Noimitatsion metodlar qatoriga muammoli ma'ruza, evristik suhbat, tadqiqotli laboratoriya mashg'uloti; adabiyot bilan mustaqil ishlash hamda dasturli ta'lim kiradi.

Imitatsion metodlar: o'yinli bo'lmagan metodlar - muammoli vaziyatlarni va diagnostik vazifalarni hal qilib yechimini topishga qaratilgan o'yinli metodlar - rolli va o'quv o'yinlarini o'z ichiga oladi.

Pedagogik korreksiya interfaol ta'lim metodlari o'quvchilarga tayyor bilimlarni berishga emas, balki ularning bilish faolligini oshirish hisobiga, o'quvchilarning o'zlari ma'lumotlarni qabul qilib, to'plab xulosa chiqarishlariga qaratilgan. Korreksiya jarayonida faol metodlardan foydalanish o'quvchilarni mavjud bo'lgan muammoni hal qilishda faol ishtirok etishlarini, guruh a'zolari bilan faol munosabatda bo'lib o'zaro ma'lumot almashishlarini ta'minlaydi. So'nggi vaqtlarda ta'limning faol metodlari ichida ish o'yinlari metodi keng qo'llanilmoqda.

Shaxsda fazilatlarni shakllantiruvchi metodlar qatoriga «Rezyume», «Muammo», «Labirint», «Yelpig'ich», «Muloqot», KBI (kuzatish, baxslashish, ishontirish) kabi metodlarni kiritish mumkin. Quyida Tarbiyaviy-korreksion faoliyat jarayonida fazilatlarni shakllantirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol metodlarning ba'zilarini havola qilingan².

«Rezyume» metodining tavsifi. Bu metod murakkab, ko'p tarmoqli mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning mohiyati mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha ma'lumotlar berish va ularni amaliyotda qo'llashdan iborat.

Metodning maqsadi: o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida, mavzudan kelib chiqqan holda, muammoning yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, guruhga o'z fikri bilan ta'sir etishga, uni ma'qullashga, shuningdek, muammoni yechishda o'quvchi tomonidan mavjud bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatish.

Pedagogik korreksiya jarayonida mazkur metodni o'quvchilarni yakka yoki kichik guruhlariga ajratib qo'llash mumkin. Mashg'ulotda A-3 formatdagi qog'ozlarda (o'quvchilar soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalamlardan foydalaniladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi quyidagicha:

²Qarang: Ишмухаметов Р. ва бошқ. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-уқувчилари учун амалий лавсиялар). -Т/. Истеъдод, 2008. - 180 б.

- pedagog o'quvchilarni, ularning soniga qarab, 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;
- pedagog o'quvchilarni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog'ozning yuqori qismida yozuvi bo'lgan, ya'ni asosiy muammo va uni yechish yo'llari belgilangan varaqlarini tarqatadi;
- har bir guruh a'zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarni yechish yo'llarining har birini afzallik va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;
- kichik guruh a'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;
- pedagog boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so'ng taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi;
- pedagog guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izox berib, ularni baxolaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

Bu qatorga muammo yoziladi:							
Muammoning 1-yechim variant		Muammoning 2-yechim varianti		Muammoning 3-yechim varianti		Muammoning 4-yechim varianti	
1-yechim varianti-ning afzallik tomoni	1-yechim varianti-ning kamchili	2-yechim varianti-ning afzallik tomoni	2-yechim varianti-ning kamchilik tomoni	3-yechim varianti-ning afzallik tomoni	3-yechim varianti-ning kamchilik tomoni	4-yechim varianti-ning afzallik tomoni	4-yechim varianti-ning kamchilik tomoni
Bu qatorga esa xulosa yoziladi:							

«Muammo» metodining maqsadi - korreksiya qilinishi maqsad qilib olingan muammodan kelib chiqqan holda, o'quvchilarga muammoning turli vaziyatlardagi ratsional yechimini topishga o'rgatish, muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va

muammoni yechishga mos bo'lgan uslub va vositalarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti- harakatlarni to'g'ri belgilashga o'rgatishdir.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: o'quvchilarni guruhlariga ajratib, ularni mos o'rinlariga joylashtirgandan so'ng, mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidolari va talablari: mashg'ulotni bosqichma bosqich bo'lishi; har bir bosqich o'quvchilardan maksimal diqqat-e'tibor talab qilishi; mash g'ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo'lib ishlashlari tushuntiriladi. Bunday kayfiyat o'quvchilarga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo'lishlariga yordam beradi va ularda bo'lajak mashg'ulotga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidolari va talablari tushuntirilgach quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- o'quvchilar mashg'ulot uchun tayyorlangan kino lavhani diqqat bilan tomosha qilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qilishlari va daftarlariga belgilab boradilar. Agar kinofilm ko'rsatishning imkoniyati bo'lmasa, u holda pedagog o'quv predmetining mavzusi bo'yicha plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matndan foydalanishi mumkin;
- guruhning har bir a'zosi tomonidan ushbu lavhadan (rasmdan, matndan, hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki A-3 formatdagi qog'ozga flomaster bilan yozib chiqadi;
- berilgan vaqt tugagach, tayyorlangan ishni har bir o'quvchi tomonidan o'qib eshittiriladi;
- pedagog guruh a'zolari tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog'ozlarini almashtirgan holda guruhlariga tarqatadi;
- tarqatilgan qog'ozlarda guruhlar tomonidan yozilgan muammolardan guruhning har bir a'zosi o'zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi;
- pedagog tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga guruhning har bir a'zosi o'zi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil qiladi. Masalan:

Muammoning tai		Muammoni yechim yo'
	Muammoni kelib chikish sabablari	llari va Sizing xarakatlaringiz
Misolni muammoga bo g' lashimiz kerak		

- 1) yakka tartibdagi faoliyat tugagandan so'ng har bir o'quvchi o'zi bajargan taqlidiy ishini barchaga o'qib eshittiradi;
- 2) muammolar va ularning yechimi bo'yicha jamoaviy fikr almashiladi;
- 3) himoyadan so'ng pedagog mashg'ulotga yakun yasaydi va guruh a'zolarining qiziqarli ishlari uchun minnatdorchilik bildiradi.

Pedagogik korreksiyada "muammo" metodidan foydalanish o'quvchilarda har qanday muammoni yechishdan avval uning sababini aniqlanish va faqat shundan keyingina zarur bo'lgan uslub va usullarni tanlash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

«Labirint» metodining maqsadi: o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlarida uchraydigan turli holat va vaziyatlardan o'z obro'larini saqlagan holda chiqish, vaziyatni to'g'ri baholash va tezlik bilan kerakli yechimini topish ko'nikmalarini shakllantirish, shu boradagi malakalarini oshirishga ko'maklashish, ularning fikrlash qobiliyati va nutqiy faoliyatini o'stirish hamda muloqot qilish madaniyatini shakllantirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: pedagog mashg'ulot boshlanishi oldidan o'quvchilar uchun stullardan doira shaklida joy tayyorlaydi. Doira shaklidagi joyning o'rtasiga esa savat yoki tuvakda gul qo'yish maqsadga muvofiq. Joyni bunday jihozlanishi mashg'ulotni qiziqarli va jonli o'tishiga yordam beradi.

O'quvchilar shu davradan joy egallaganlaridan so'ng mashg'ulot boshlanadi. Bunda pedagog mashg'ulotni inson faoliyati rang-barang va turli-tuman voqealar, hodisalar, vaziyatlarga boy ekanligi haqidagi qisqacha suhbat bilan boshlaydi. Misol tariqasida pedagog, o'quvchilar faoliyatida u yoki bu fazilatning qay darajada namoyon bo'lishi, fazilatning shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotidagi ahamiyati hamda shu fazilat yetarlicha shakllanmagan vaziyatlar to'g'risida misollar bilan gapirib beradi va shu vaziyatdan chiqish yo'lini (yechimlarini) so'raydi. O'quvchilardan kamida uchta variantdan bittasini tanlashlari va nima uchun shu variantni tanlaganliklarini tushuntirib berishlari so'raladi. Shundan so'ng o'quvchilardan, o'z hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan holda, o'quv va tarbiyaviy jarayonlarda uchraydigan yoki uchragan biron-bir muammoli vaziyatni eslashlari hamda uning kamida uch xil yechimini ham topishlari so'raladi.

Pedagog yordamida guruhning har bir a'zosi navbat bilan o'zi tayyorlagan vaziyat yoki muammolarni boshqalarga og'zaki bayon etadi va aytilgan muammoning yechimini topish uchun pedagog ularga aniq vaqt (5-10 minutgacha) belgilab beradi. Berilgan vaqt ichida guruh a'zolari vaziyat yoki muammo yechimini topishga harakat qiladilar va ajratilgan vaqt tugagach, guruh a'zolarining javoblari tinglanadi. Masalan, avval bir kishi tanlagan vaziyat yoki muammo yana bir marotaba esga tushiriladi va guruhning qolgan a'zolari navbat bilan ushbu vaziyat va muammoga o'z yechimlarini taklif qiladilar, to'g'ri yechim haqida fikr bildiradilar. Pedagog ham

shu vaziyat yoki muammoga nisbatan o'z fikrini bildiradi va bildirilgan barcha fikrlarni umumlashtiradi.

«Yelpig'ich» metodining tavsifi: metod murakkab va ko'ptarmoqli bo'lib, muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Metodning mohiyati: o'quvchilarga ko'rilayotgan muammoning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot berilib, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama qilinadi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interfaol metod o'quvchilarga tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, shuningdek uni himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

«Yelpig'ich» metodi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muxokama qiluvchi har bir qantashchining va umuman kichik guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

«Yelpig'ich» metodi korreksiya jarayonining turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

boshlanishida - muammo yuzasidan o'z bilimlarini erkin ifodalash;
mavzuni o'rganish jarayonida - muammoning keilib chiqish sabablarini anglab etish;

yakunlash bosqichida - olingan bilimlarni tartibga solishda.

«Yelpig'ich» metodining tarbiyaviy xarakteri shaxsda bir qator fazilatlarni shakllantirishga yordam berishi mamkin bo'lib, bular quyidagilardan iborat:

- o'quvchida jamoa bo'lib guruhdarda ishlash;
- muammolarni turli nuqtai nazardan muxokama qilish;
- murosali qarorlarni topa olish;
- xushmuomalalik, o'zgalar fikrini hurmat qilish;
- faollik, ishga ijodiy yondashuv;
- muammoga diqqatni jamlay olish kabilardir.

«Muloqot» metodining tavsifi. Ushbu metod o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga, o'z fikrlarini erkin bayon eta olishiga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan.

Metodning maqsadi. Tanlangan mavzu, muammo asosida o'quvchilarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to'g'ri xulosa chiqarishlariga yordam berish, erkin holda bahslashishlariga sharoit yaratish, muloqotga kirish va muloqot qila olishga o'rgatish.

Metodning qo'llanishi. Pedagogik korreksiyada bu metodni qo'llash uchun o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanib, mashg'ulotlar o'quv auditoriyasida yoki tabiat qo'ynida o'tkazilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abramova G.S. Psixologik maslahat seminar. Ekaterinburg. M., 2005 yil.
2. Abramova G.S. Psixologik maslahat. Nazariya va tajriba. M. 2007 yil
3. Abramova G.S. Amaliy psixologiya. M. 2004 yil
4. Bondarenko A.F. Psixologik yordam: nazariya va amaliyot. M.: "Sinf" mustaqil firmasi, 2006 y.
5. Gladding S. Psixologik maslahat. SPb. 2007 yil
6. Zaxarov A.I. Bolalardagi qo'rquvni qanday engish mumkin. M. 2005 yil
7. Kottler J., Braun R. Psixoterapiya bo'yicha maslahat SPb. "Piter" 2003 yil P. 464

10-MAVZU:	MAKTAB O'QUVCHILARINI PEDAGOGIK KORREKSIYA QILISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR
------------------	---

Asosiy savollar:

1. O'zlashtirishi past o'quvchilarni korreksiya qilish metodi.
2. Ijtimoiy adaptatsiyani korreksiya qilish metodi.
3. Bolalar bilan ishlash uchun korreksion metodlar.

Quyida kichik va o'rta sinf o'quvchilari bilan tashkil qilinadigan tarbiyaviy faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan pedagogik korreksiya metodlaridan namunalar keltirilgan.

1. "Do'stinga yordam" korreksiya metodi.

Metod turi: mashq.

Maqsad: depressiv bola xulq-atvorini korreksiya qilish

Jarayon: depressiyaga tushgan, o'ziga ishonmaydigan bolaga butun sinf o'quvchilari yordam beradi. O'qituvchi bolalar bilan kelishib olgan holda o'quvchiga ochiq samimiy, do'stona munosabat o'rnatish kerakligini kelishib olishadi. O'qituvchi boshqa sinf a'zolariga "hozir unga qiyin, bunday vaziyat hammamizda bo'lishi mumkin. Biz uni qo'llab quvvatlasak, u o'ziga kelib olishi mumkin", deb tushuntiradi va zaruriyatga qarab rollarni ham taqsimlab berishi ham mumkin. Masalan, kimdir o'qishlariga, kimdir muloqot o'rnatishiga, kattalar bilan munosabat o'rnatishiga yordam berishi mumkin.

Variatsiya: Bu metodika barcha turdagi og'ishishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Natijalar tahlili: O'quvchi harakatlarini kuzatish.

Xulosa: Natijalar o'z poyiga yetganda, o'quvchida normal munosabatlar paydo bo'ladi va boshqalarni jalb qilish odati yo'qo'ladi.

2. Frustratsiya va deprivatsiyani bartaraf etuvchi korreksiya metodi.

Nomlanishi: “Men hursandman”

Metodi: yozma

Maqsad: deprivatsion hislarni normallashtirish.

Jarayon: o‘qituvchi bolalarga “Men hursandman chunki men... emasman” deb boshlanadigan kichik hajmdagi insho yozishni taklif etadi. Bolalar sog‘lomligidan, kiyimlari va yeyishga bir burda noni borligidan xursandligini yozishi mumkin. Oldinda butun hayot turibdi, o‘zini bularning barchasi yo‘q insonlar bilan taqqoslashtirib ko‘rsin.

Variatsiya: yoshga yoki deprivatsiya darajasiga bog‘liqlik.

Natijalar tahlil: o‘zini o‘zidan ham og‘ir atrofdagilar bilan solishtirib ko‘rgan bola asta - sekin deprivatsiyadan holos bo‘ladi.

3. O‘zlashtirishi past o‘quvchilarni korreksiya qilish metodi.

Nomlanishi: “Buyurtmaga ko‘ra a‘lochilar”

Metodi: xulq-atvorga ta‘sir etish.

Maqsadi: bir bolaning yashirin intiluvchanligini rag‘batlantirish.

Jarayon: pedagog Rozentalning tadqiqot natijalari bilan tanishsak, bir kuni u sinfxonada testni eng yaxshi yechgan o‘quvchilarni e‘lon qiladi. Shundan so‘ng bir necha haftadan keyin aynan shu o‘quvchilar yanada yaxshi o‘qishga harakat qilgan.

Darsda bir necha o‘quvchiga test berib, “sizlar eng yaxshi o‘quvchisizlar” deb ayting. Bu bilan ularning o‘zlariga va o‘qishiga bo‘lgan ishonchi ortadi. Qo‘ruqlarini bartaraf etishiga yordam beradi. Iltifotli bo‘ling va bolalar bo‘rttirmoqda deb tushunmasin.

Natijalar tahlili: o‘quvchining harakatlarini kuzating metodika ish bermasa, boshqa o‘quvchilarda sinab ko‘ring albatta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

4. Ijtimoiy adaptatsiyani korreksiya qilish metodi

Nomlanishi: “Men va boshqalar”

Metodi: korreksion o‘yin.

Maqsadi: bola o‘zini boshqalar bilan taqqoslaganda qanday baho berayotganini tushunish. U boshqalarga qanday munosabatda bo‘lsa, boshqalar ham unga shunday munosabatda bo‘lishini tushuntirish.

Jarayon: o‘qituvchi doskaga savollarni javobi bilan namuna qilib ko‘rsadi. O‘quvchilar qog‘ozni vertikal ravishda ikkiga bo‘lib, chap uchiga “Men”, o‘ng uchiga “Boshqalar” sifatlarini yozishlari kerak. Masalan:

Men

Rostgo‘y

Mehribon

Jasur

Boshqalar

Menga yordam bermaydi

Qizg‘anchiq

Qo‘rqoq

Bolalardan faqat o‘zining sifatini yozish boshqalardan esa bunga javobni yozish talab etiladi.

Variatsiya: Tayyor sifatlarni aytish ham mumkin. Eng muhimi bolalar uni tushunsin va to'g'ri belgilasin. 3-4-sinf o'quvchilari uchun "Menga qanday munosabatda", "Nega menga yaxshi yoki yomon munosabatda", "Menga boshqalar yaxshi munosabatda bo'lishi uchun men nima qilishim kerak?" kabi nomalarda berish ham mumkin.

Natijalar tahlili: muhimi o'quvchilar qancha sifatni belgilab yozgani emas, balki "Men-boshqalar" o'rtasidagi munosabatlaridagi farqlikdir.

4.Bolalar bilan ishlash uchun korreksion metodlar.

Nomlanishi: "Kim yoqimtoy?"

Metodi: o'yin.

Maqsad: agressiv holatlarni o'rganmaslikni shakllantirish. Urushlar, zo'ravonliklar va boshqa shakldagi agressiyani qo'zg'atuvchi yaxshi emasligini ko'rsatish.

Jarayon: bolalar turli emotsional holatlarini ko'rsatishni yoqtiradilar. Turli agressiv rasmlar va xatti-harakatlar ular uchun yaxshiroq bo'lsin. Bolalardan qanday holatdagi odamlar yoqishi so'raladi. Yomon odam rasmini belgilab qo'yib, unga o'xshashni xohlaysizlarmi-deb so'raladi.

Natijalar tahlil: o'quvchi harakatlarini kuzatish

Nomlanishi: "Skulptor"

Metodi: o'yin

Maqsadi: agressiv xulq-atvorni korreksiya qilish.

Jarayon: bolalar plastilindan agressiv kayfiyatdagi odamni yasab ko'rsin. Odamning ko'zlari, yuzi, gavdasi aks etsin. "Eng yomon odam" ni yasash konkursini e'lon qiling.

Nomlanish: "Mening xarakterim".

Metodi: test-o'yin

Maqsadi: korreksion mashqlar va suhbatlar bo'yicha ma'lumotlar to'plash

Jarayon: o'qituvchi bolalarga o'z harakter sifatlarini yozib berishini taklif etadi. Keyin o'qituvchi bilan birgalikda varoq o'rtasidan vertikal chiziq tortib xarakter sifatlarini ijobiy va salbiylariga ajratadi.

Mening xarakterim

Yaxshi sifatlarini

-Tez xafa bo'lmayman

-Uyda oyimga yordam beraman

-4 va 5 bahoga o'qiyman

Variatsiya: qancha bo'lsa shuncha yozish kerak. Bolalarning yoshiga bog'liq

Yomon sifatlarim

-Ishimni oxirigacha
bajarmayman

-Vaqtida uxlashga yotmayman

-Ruxsatsiz televizor ko'raman

ravishda ularning harakter va xatti-harakatlari tushunish kerak.

Natijalar tahlil: o'quvchi harakatlarini kuzatish .

Xulosa: o'yin nihoyasiga yetganda o'quvchida normal munosabatlar paydo bo'ladi va boshqalarni o'ziga jalb qilish odati yo'qoladi.

Nomlanishi: **“Tabriknoma”**

Metodi: mashq

Maqsadi: depressiv bola xulq-atvorini korreksiya qilish.

Jarayon: depressiyaga tushgan, o'ziga ishonmaydigan bolaga butun sinf o'quvchilari yordam beradi. O'qituvchi bolalar bilan kelishib olgan holda o'quvchiga ochiq samimiy, do'stona munosabat o'rnatish kerakligini kelishib olishadi. O'qituvchi boshqa sinf a'zolariga “hozir unga qiyin, bunday vaziyat hammamizda bo'lishi mumkin. Biz uni qo'llab quvvatlasak, u o'ziga kelib olishi mumkin” deb tushuntiradi va zaruriyatga qarab rollarni ham taqsimlab berishi ham mumkin. Masalan, kimdir o'qishlariga, kimdir muloqot o'rnatishiga, kattalar bilan munosabat o'rnatishiga yordam berishi mumkin.

Variatsiya: metodika barcha turdagi og'ishishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Natijalar tahlil: o'quvchi harakatlarini kuzatish.

Xulosa: Mashq o'z nihoyasiga yetganda o'quvchida normal munosabatlar paydo bo'ladi va boshqalarni jalb qilish odati yo'qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abramova G.S. Psixologik maslahat seminar. Ekaterinburg. M., 2005 yil.
2. Abramova G.S. Psixologik maslahat. Nazariya va tajriba. M. 2007 yil
3. Abramova G.S. Amaliy psixologiya. M. 2004 yil
4. Bondarenko A.F. Psixologik yordam: nazariya va amaliyot. M.: "Sinf" mustaqil firmasi, 2006 y.
5. Gladding S. Psixologik maslahat. SPb. 2007 yil
6. Zaxarov A.I. Bolalardagi qo'rquvni qanday engish mumkin. M. 2005 yil
7. Kottler J., Braun R. Psixoterapiya bo'yicha maslahat SPb. "Piter" 2003 yil P. 464

11-MAVZU: PEDAGOGIK KORREKSIYANI INDIVIDUAL VA GURUHLI SHAKLLARDA TASHKIL ETISH

Asosiy savollar:

1. **Pedagogik korreksiyaning individual shaklda tashkil etish: tushuntiruvchi suhbat metodikasi.**

2. Tushuntiruvchi suhbat metodikasining xususiy tamoyillari.

1. Pedagogik korreksiyaning individual shaklda tashkil etish: tushuntiruvchi suhbat metodikasi

Pedagogik korreksiyaning o'quvchilar bilan individual shaklda olib borishda asosan tushuntiruvchi suhbat metodikasidan samarali foydalanish mumkin. Chunki tushuntiruvchi suhbat metodikasi shaxs yo'nalganligi, uning ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy va kasbiy sifatlariga baho berish va ularni korreksiya qilish imkonini beruvchi metodikalardan biri bo'lib, oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi.

Pedagogik korreksiyaning individual shaklda tashkil qilinishi o'quvchining shaxsiy sifatlarini muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga qanchalik muvofiq ekanligini anglashiga, tanlagan hayotiy va kasbiy faoliyat yo'nalishlari yuzasidan qarorining qay darajada maqsadga muvofiq ekanligini mustaqil baholashiga, o'zligini anglashiga hamda ko'zlagan maqsadiga erishishi uchun eng samarali yo'lni tanlashiga yordam beradi.

Pedagogik korreksiya jarayonida tushuntiruvchi suhbat oldindan rejalashtirilgan maqsad asosida erkin tarzda o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Bunda muloqot ancha erkin vaziyatda o'tkazilib, muammo yuzasidan o'quvchiga yetarlicha aniq ma'lumot beriladi. Muammoning mohiyati, uning kelib chiqish sabablari, bu sabablarni bartaraf qilish (yechim) yo'llari hamda har bir yechim yo'lining o'ziga yarasha afeallik va kamchilik tomonlari birgalikda baholanib hamda tahlil qilinib, ular ichidan maqsadga muvofiq'i (yoki muvofiqlari) tanlanadi.

Suhbat jarayonida pedagogda o'quvchi shaxsining ichki dunyosiga kirib borish imkoniyati tug'iladi. O'quvchilar bilan individual shaklda ishlashda tushuntiruvchi suhbat metodikasidan foydalanishning afzalligi.

- o'quvchining individual xususiyatlarini bilgan holda, uning kuchli va kuchsiz jihatlarini hisobga olish imkonining mavjudligidadir. Buning uchun pedagogik korreksiya jarayoni ratsional psixoterapiya tamoyillari asosida olib borilishi kerak bo'ladi, ya'ni:
- o'quvchida ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy va (yoki) kasbiy zarur sifatning yetarlicha shakllanmaganlik sabablarini aniqlash (ya'ni, muammo nimadan iboratligi aniqlanadi);
- o'quvchida ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy va (yoki) kasbiy zarur sifatlarini shakllantirishning mavjud bo'lgan yechim yo'llarini aniqlash (muammoning ratsional yechim yo'llari);
- har bir yechim yo'lining afzallik va kamchiliklari baholash va ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy va (yoki) kasbiy zarur sifatlarini shakllantirishga mavjud ehtiyoj va imkoniyatlariga maksimal darajada to'g'ri keladigan yechim yo'lini (yoki yo'llarini) tanlash;

- o'quvchida ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy va (yoki) kasbiy zarur sifatlarni shakllantirish rejasini tuzish va uni bajarishga kirishish.

Korreksiya jarayonida ratsional psixoterapiya tamoyillari o'quvchi tomonidan ma'lumotlarni o'zlashtirilishida, axloqiy, ijtimoiy va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirilishida, ta'limiy qadriyatlar mazmunini chuqur anglashida va bu qadriyatlarni e'tiqodga aylantirilishida, shu bilan birgalikda mavjud muammolarning kelib chiqish (yoki kelib chiqqanlik) sabablarini tahlil qilib aniqlashda, ularni tuzatish yoki bartaraf qilish yo'llarini belgilashda samarali qo'llaniladi.

O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy va (yoki) kasbiy zarur sifatlarni shakllantirishda pedagog va o'quvchi o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda uchta asosiy uslubni - qat'iy-ijobiy, passiv- ijobiy va noturg'un munosabatlarni ajratib olish mumkin.

Qat'iy-ijobiy munosabat o'quvchining boshqalarga nisbatan g'amxo'rlik, o'zaro faoliyat jarayonida esa mavjud kamchiliklarini bartaraf qilishda ishchanlik munosabatida bo'lishi, xulq-atvorida hotirjam va vazmin ohangda muomala qilishi bilan ifodalanadi.

Munosabatning passiv-ijobiy uslubi suhbatdoshlarga nisbatan aniq ifodalanmagan ijobiy-emotsional ko'rsatma bilan ta'riflanadi. Bunda, muomalaning natijasi sifatidagi sovuq va rasmiy ohangdagi muloqot mavjud bo'lgan hollarda, o'quvchi shaxsini o'rganishda va uni korreksiya qilishda faqatgina talabchanlik va ish yuzasidan shakllantirilgan munosabatlar muvoffaqiyatni ta'minlashi mumkin.

Munosabatning noturg'un usuli umumiy emotsional-ijobiy ko'rinishdagi munosabatlar bilan ifodalagan bo'lib, ushbu kategoriyaga mansub bo'lgan o'quvchining faoliyati - jamoada o'zini tutishi, uning xulq-atvori ayni damda yuzaga kelgan holatga - kayfiyati va hissiyotlariga qilingan ta'siri bilan belgilanadi.

O'quvchida ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy va (yoki) kasbiy zarur sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik korreksiyaning individual shaklda o'tkazishda tushuntiruvchi suhbat metodining samaradorligi pedagog tomonidan o'quvchini tinglash, unga beriladigan savol va olinadigan javoblarni tahlil qilish hamda baholash orqali ta'minlanadi.

Suhbat jarayonida o'quvchi bilan birgalikda muammoning mazmuni - ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy va (yoki) kasbiy zarur sifatlarning shaxsiy faoliyati samaradorligini oshirishdagi tutgan o'rni, mazkur muammoning har bir yechim yo'llari - ta'lim jarayoniga qadriyatli munosabat, ijtimoiy va kasbiy sifatlarning hamda axloqiy fazilatlarining yuqori darajada shakllanishining shaxs ijtimoiylashuvidagi ahamiyati kabi masalalar chuqur o'rganiladi.

Bu jarayonda pedagog uchun eng murakkab vazifalardan biri - o'quvchining individual-psixologik xususiyatlarini uning noverbal kommunikatsiya kanallari orqali olish mumkin bo'lgan signallar yordamida diagnostika qilishidir. Ushbu

vazifaning ijobiy hal qilinishi o'qituvchiga tarbiyaviy tadbir jarayonida "aks aloqa"ni ta'minlanishiga, tarbiyaviy ta'sir natijasini baholab borishiga yordam beradi. O'quvchi bilan individual shaklda olib borilgan pedagogik korreksiya jarayonida tushuntiruvchi suhbat metodikasidan foydalanilsa, mazkur jarayon quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin:

- 1- bosqich. Suhbatdoshni tinglash. Shaxsni diagnostika qilishda ham, korreksiya qilishda ham uni tinglash muhim ahamiyatga ega. Pedagog bunda e'tiborni o'z suhbatdoshi (o'quvchisi)ning nafaqat so'zlari va gaplariga, balki bu so'zlar uning uchun qanday ma'no anglatishiga, jummalarning mazmuniga, shu jummalarni ifodalash jarayonida ichki xissiyotlarining tashqi namoyon bo'lishini ham inobatga olishi lozim

O'quvchi ayrim masalalar muxokamasini ma'lum muddatgacha - o'zini yetarlicha darajada erkin xis qilmaguniga qadar - keyinga surib borishi mumkin. Muloqot jarayoniga to'liq kirishishi bilan uning verbal kommunikatsiya kanali orqali berayotgan ma'lumotlari bilan birgalikda, undan noverbal kommunikatsiya kanallari orqali olinayotgan ma'lumotlar - mimika, pantomimika, tovush intonatsiyasi va modulyatsiyasi kabilarga ham e'tibor qaratilishi zarur bo'ladi.

- 2- bosqich. Suhbatdoshga savollar berish - o'quvchi bilan suhbat jarayonida mavjud muammoga bog'liq bo'lgan nospetsifik ma'lumotlar yig'iladi. Ushbu bosqichda o'quvchiga quyidagi mazmundagi savollarni berish mumkin: "Moddiy manfaat nima", "Ma'naviy ehtiyojlar to'g'risida nimalarni bilasiz", "Inson kamolotida ma'naviy qadriyatlarning o'rni qanday", "Siz o'zingizda qaysi illatlarni bartaraf etishni istagan bo'lardingiz"

- 3- bosqich. Suhbatdoshni baholash. Shaxsning umumiy psixologik holatini aniqlashda, quyidagi vaziyatlarga e'tibor berish kerak:

- a) O'quvchining tashqi ko'rinishi va xulqi. Ko'pchilik birinchi uchrashuvda yaxshi taassurot qoldirish maqsadida o'zining tashqi ko'rinishiga e'tibor berishi, ish yuzasidan turli takliflar kiritishi mumkin bo'lib, ularni amalga oshirishga kelganda o'zini chetga olishga harakat qiladi;
- b) Kayfiyat va affekt. Jamoat ishlarini tashkil qilishda passivlik o'quvchida bilish va ijtimoiy faollik yetarlicha shakllanmaganligidan dalolat beradi;
- c) Nutq. Shaxsning psixologik holati to'g'risidagi diagnostik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni uning tovushi modulyatsiyasi, nutqining tempi (tezligi) va mazmunini diqqat bilan kuzatish va tanlash orqali olish mumkin.
- d) Tafakkur. Bilish faolligi, tafakkurning kreativligi shaxsning fikrlash jarayoni hamda o'z fikrini qay darajada aniq ifodalashi bilan belgilanadi.

Intellektual flinksiyalar. Shaxsning intellektual sohalarida hamda diqqat va xotira funksiyalarida o'zgarishlarning ro'y berishi organik xarakterdagi buzilish holatlaridan dalolat berib asab tizimining kuchi va o'z-o'zini iroda qilish qobiliyati

bilan bog'liq bo'ladi.

4- bosqich. Ma'lumot berish. O'quvchiga undagi mavjud bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy va kasbiy zarur sifatlarning shakllanganlik holati, ushbu xislatlarning mazmuni va mohiyati, shaxs kamolotiga ta'siri hamda ularni pedagogik korreksiya imkoniyatlaridan foydalangan holda shakllantirish yo'llari va vositalari to'g'risida ma'lumot beriladi. Chunki shaxs o'zidagi mavjud muammo va bu muammoning mazmuni to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lgandan so'nggina korreksiya amalga oshirilishi mumkin.

Ijtimoiy kommunikatsiyaga oid adabiyotlarda muloqot texnikasining verbal komponentlari bilan bir qatorda noverbal komponentlari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish shaxslararo munosabatlarni samarali o'rnatish va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olish imkonini beradi³. Shu sababli pedagogik korreksiyada tushuntiruvchi suhbat metodikasidan foydalanilganida o'quvchining mimikasi, pantomimikasi, nafas olishi, nutq tempi va tovush modulyatsiyalariga pedagogning moslashib olishi (rapport) so'z bilan qilinadigan ta'sirni kuchaytiradi. Bunda, tushuntiruvchi suhbat metodikasining eng asosiy ustunligi - tarbiyaviy ta'sir obyektining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda undagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mumkinligidadir.

Tushuntiruvchi suhbat jarayonida o'quvchi shaxsida bo'ladigan o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatish orqali korreksiya uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan xarakterologik xususiyatlari to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar olish mumkin. Bu ma'lumotlardan o'rinli foydalanish korreksiyaning samaradorligini sezilarli darajada oshirish bilan bir qatorda, pedagogik va psixologik testlar yordamida shaxsning xarakterologik xususiyatlariga oid bo'lgan diagnostik ma'lumotlari bilan taqqoslash imkoniyatini beradi. Buning uchun o'tkaziladigan suhbat rejasi kutiladigan natijalarini baholash usullari hamda suhbat natijasi yuzasidan qilinishi mumkin bo'lgan xulosalarni mujassamlashtirib, o'quvchining individual va xarakterologik xususiyatlarini hisobga olgan tarzda tuzilishi kerak.

O'quvchilarni individual shaklda korreksiya qilishda tushuntiruvchi suhbat metodikasidan foydalanilganda mashg'ulotlarni tashkil qilish va ularni olib borishda pedagog quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

- o'quvchi muammoning mohiyati va yechim yo'llari yuzasidan o'z fikrini bildirishiga erishish;
- o'quvchi fikrini qunt bilan tinglash, uning javobini to'ldirish, tuzatish, oydinlashtirishga yordam berish;

³ Анцупов А.Я, Шипилов А.И. Конфликтология. -М., 1999. - 224 б.; Барабанщиков В.А., Малькова Т.Н. Исследование восприятия эмоционального состояния человека по выражению лица. - В кн. Проблема общения в психологии. -М.: Наука, 1981. -Б.122-124.; Паркинсон Дж.Р. Люди сделают так, как захотите Вы. / Пер.с англ.С.Мурина. -Т.: "Шарк", 1994. - 160 б. Аллан Пиз Язык телодвижений или как читать мысли других людей по их жестам. -М.: "Ай-кью", 1995. -257 б.

- o'quvchilarning javobi qay darajada to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar, faqatgina suhbat ohirida izohlanishi, yakunlanishi va baholanishi.

Tushuntiruvchi suhbat metodikasining xususiy tamoyillari. O'quvchida ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy va kasbiy zarur sitatlarni korreksiya qilishda tushuntiruvchi suhbat metodikasining samaradorligi pedagog tomonidan quyidagi xususiy tamoyillarga rioya qilinishi bilan belgilanadi:

1. Suhbat jarayonida o'quvchining faolligi tamoyili. O'quvchini suhbat jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, o'zi va boshqalarning xatti-harakatlarini nazorat va tahlil qilishi, pedagog tomonidan taklif qilingan turli mashqlarni bajarishi.
2. Suhbat jarayoniga ijodiy yondashish tamoyili. Suhbat jarayonida mavjud muammoni o'quvchining o'zi hal qilishiga, ijtimoiy muhit bilan hamma uchun ilgaridan ma'lum bo'lgan muloqotning samarali shakllarini "qaytadan ixtiro qilishiga" sharoit yaratish. Bunda pedagog ushbu jarayonga aralashmaslikka harakat qilib asosan kuzatishi, hulosa qilishga shoshilmasligi.
3. O'quvchi xulqi obyektivizatsiyasi tamoyili. Suhbat jarayonida o'quvchi o'zining noto'g'ri xatti-harakatlarini, xulq-atvorini muhokama qilishiga harakat qilishi, bunda pedagog "aks aloqa"ga ko'proq e'tibor berishi.
4. Suhbat jarayonida bilish faolligini oshirish tamoyili. Suhbat o'quvchi tomonidan mustaqil ravishda muammoning mohiyatini anglashiga va yechim yo'llarini belgilab, ularning har birini baholashiga va maqsadga muvofiq'ini tanlashiga sharoit yaratishi.
5. Suhbat jarayonida o'zaro tenglik tamoyili. Ushbu tamoyil suhbat ishtirokchilarining o'zaro teng pozitsiyadan turib muloqot qilishlariga, bir birlarining muammoga munosabatlarini, fikrlarini, qadriyatlarini matnda his-tuyg'ularini hurmat qilishga va tushunishga intilishga asoslangan.

Tushuntiruvchi suhbat metodikasi asosan individual shaklda qo'llanilsada, ayrim hollarda kichik guruh bilan yangi ko'rilayotgan muammoning yechimi yuzasidan ma'lumotlarni shakllantirish yoki qo'shimcha ma'lumotlar berish maqsadida ham qo'llanilishi mumkin. Buning uchun ko'rilayotgan muammo suhbatda ishtirok etayotgan o'quvchilarning barchasi uchun dolzarb bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abramova G.S. Psixologik maslahat seminar. Ekaterinburg. M., 2005 yil.
2. Abramova G.S. Psixologik maslahat. Nazariya va tajriba. M. 2007 yil
3. Abramova G.S. Amaliy psixologiya. M. 2004 yil
4. Bondarenko A.F. Psixologik yordam: nazariya va amaliyot. M.: "Sinf" mustaqil firmasi, 2006 y.

5. Gladding S. Psixologik maslahat. SPb. 2007 yil
6. Zaxarov A.I. Bolalardagi qo'rquvni qanday engish mumkin. M. 2005 yil
7. Kottler J., Braun R. Psixoterapiya bo'yicha maslahat SPb. "Piter" 2003 yil P. 464

12-MAVZU PEDAGOGIK KORREKSIYANI INDIVIDUAL VA GURUHLI SHAKLLARDA TASHKIL ETISH. IJTIMOIIY PEDAGOGIK TRENING HAQIDA TUSHUNCHA

Asosiy savollar:

- 1. Ijtimoiy-pedagogik trening.**
- 2. Ijtimoiy-pedagogik trening: mazmuni, maqsadi, vazifalari va tamoyillari.**
- 3. Ijtimoiy-pedagogik treningni tashkil qilish.**

So'nggi yillarda ijtimoiy va kasbiy faoliyatning turli sohalarida trening texnologiyalarini qo'llanilishi masalasiga qiziqish ortib bormoqda. Xususan, ta'lim muassasasida pedagogik korreksiya jarayonida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlari, ijtimoiy va (yoki) kasbiy zarur sifatlarini shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni guruhli shaklda o'tkazishda ijtimoiy-pedagogik trening texnologiyalaridan samarali foydalanish mumkindir. Pedagogik korreksiyaning guruhli shakllarida trening mashg'ulotlarini o'tkazish psixologiya va sotsiologiya fanlari sohalaridagi tajribalarga asoslangan.

Ijtimoiy-pedagogik trening: mazmuni, maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Trening (ingliz tilida - maxsus tartibdagi mashq) nazariy bilim berish minimallashtirilib, asosiy diqqat - qisqa muddatda shaxs faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan, trening dasturi bilan aniq qilib belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Psixologlar treningdan shaxsdagi mavjud bo'lgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadida turli xil o'yin va mashqlar orqali o'tkaziladigan mashg'ulot vositasida foydalanadilar. Turli mualliflar treningga ta'rif berishda turlicha yondashgan bo'lsalarda, ularning aksariyati trening mashg'ulotlari o'yin va mashqlar orqali amalga oshirilishini va trening jarayonida ko'nikma va malakalar shakllanishini ta'kidlaganlar.

Ijtimoiy-pedagogik treningdan o'quvchilarni pedagogik korreksiya qilishning quyidagi yo'nalishlarida foydalanilishi mumkin:

- shaxsdagi mavjud illatlarni (xulqdagi og'ishishlar, intizomsizlik, ijtimoiy munosabatlarda qo'pollik, fanlarni o'zlashtirishdagi passivlik va xokazo) tuzatish;
- shaxsda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish;
- shaxsda ijtimoiy va kasbiy zarur sifatlarini shakllantirish;

- shaxsda muloqotchanlik ko'nikmalarini shakllantirish;
- hayotdagi qarama-qarshiliklarni to'g'ri tushunish va tahlil qilishni o'rgatish;
- shaxsning ruhiy holatini o'zgartirishga erishish;
- shaxs kamoloti uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish;
- nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmasini hosil qilish va boshqa.

Ijtimoiy-pedagogik trening mashg'ulotlarining har birida tanlab olingan muammo yuzasidan ma'lum holat va vaziyatlar nazarda tutilgan bo'lib, mashg'ulotlarning umumiy mazmuni quyidagilardan iborat bo'ladi:

- guruh a'zolarining bir-birlari bilan tanishtirish;
- guruh a'zolarini birgalikda umumqabul qilingan me'yor (ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, korporativ va shu kabilarga amal qilishga o'rganish;
- guruh a'zolarining o'z muammolarini gapirishlariga, o'z fikrlarini bildirishlariga sharoit yaratish;
- guruh a'zolari o'rtasida o'zaro do'stona muhit yaratish;
- guruh a'zolarining o'zaro jipsligini, ahilligini ta'minlash;
- guruh a'zolarida turli xil hayotiy ko'nikma va malakalarni hosil qila oluvchi mashg'ulotlar tashkil etish.

Pedagogik faoliyatning har qanday turi kabi, ijtimoiy-pedagogik trening ham o'z maqsadi va vazifalariga ega.

Ijtimoiy-pedagogik treningning asosiy maqsadi - qisqa muddatda 3-14 kishilik guruhni muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Treninglarni guruhli shaklda o'tkazilishi - ishtirokchilarning o'zaro ma'lumot va tajriba almashishlariga, o'z fikrlari va tajribalarini qay darajada to'g'ri ekanligini anglashlariga, ularda o'zlariga nisbatan ishonch shakllanishiga yordam beradi. Pedagogik korreksiya o'quvchilar bilan guruhli shaklda o'tkazish uchun eng qulayi - 12-14 kishigacha bo'lgan guruh hisoblanadi. Ishtirokchilar sonining haddan ziyod oshib ketishi guruhni samarali boshqarish imkoniyatini keskin kamaytirib yuboradi.

Pedagogik korreksiya jarayonida o'tkaziladigan ijtimoiy-pedagogik treningni o'ziga xosligi - uning maqsadli o'tkazilishi, mashg'ulotlarga ajratiladigan vaqtning va ishtirokchilar sonining cheklanganligi hamda tuzatiladigan illat, shakllantiriladigan fazilat, ko'nikma va malakalarning xarakteriga bog'liqligidir. Trening yordamida shakllantiriladigan ko'nikmalarning xarakteri pedagogik muloqot ko'nikmalarini shakllantirish yoki o'z-o'zini anglashdan ijtimoiy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishgacha diapazonda bo'lishi mumkin. Trening natijasining samaradorligi esa uni majmuaviy va tizimli tashkil qilinishigi bog'liq. Ta'limning har bir bosqichida o'tkaziladigan ijtimoiy-pedagogik trening hal qilinadigan vazifalari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, maktab o'quvchilari bilan o'tkaziladigan

trening mashg'ulotlari bolalarda asosan axloqiy fazilatlarni shakllantirish hamda bilish faolligini oshirishga qaratilgan bo'lsa, kasb-hunar kollejaridagi IPT mashg'ulotlarida kasbiy va ijtimoiy zarur bo'lgan fazilatlarni shakllantirish vazifalarini ham o'z ichiga oladi.

N.M.Egamberdievaning "Ijtimoiy pedagogika" nomli risolasida ijtimoiy-pedagogik trening o'quvchilar bilan ularning xarakterologik xususiyatlarini va yechimi topilishi kerak bo'lgan muammo xarakteridan kelib chiqqan holda pedagogikaning faol metodlarini qo'llashga qaratilgan sohasi, deb ta'rif berilgan bo'lib, uning asosiy vazifalari sifatida shaxsga uning ijtimoiylashuvida va o'quv adaptatsiyasida yordam berish, deviant xulqni korreksiya qilish, shaxsda aniq bir sifatlarini shakllantirish, axloqiy fazilatlarni tarbiyalash kabilar belgilangan.

Pedagogik korreksiya samarali tashkil qilinishi uchun IPT vazifalari, birinchi navbatda, ijtimoiy-pedagogik yordamga muhtoj bo'lganlar guruhi aniqlanishidir. Bu guruhga o'zlashtirishi sust, axloqiy sifatleri yetarlicha shakllanmagan, ijtimoiylashuvi yoki istiqboldagi kasbiy adaptatsiyasi murakkab kechishi mumkin bo'lgan yoshlar kiritiladi. Trening guruhlarini shakllantirishda pedagogik va psixologik diagnostika natijalaridan foydalanib, trening ishtirokchilarining xarakterologik xususiyatlari va hal qilinishi rejalashtirilgan muammoning umumiyliiga ham e'tiborga olinishi zarur.

Bundan tashqari, pedagogik korreksiyada trening guruhlarini shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirishni xohlagan o'quvchilardan ham tuzish mumkinligidir. Ko'p hollarda bunday o'quvchilardan tashkil topgan guruhlar faoliyati boshqa guruhlariga qaraganda ancha samarali bo'lib, buning asosiy sababi - guruh a'zolarida tarbiyaviy mobillikning shakllanganligi hamda ularning o'zlarida ijobiy fazilatlarni shakllantirishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi bilan belgilanadi.

Pedagogika (L.V.Golish va D.T.Saidova⁴, A.D.Goneev¹, T.G.Nikulenko⁵) va ijtimoiy pedagogika (N.I.Nikitina va M.F.Gluxova⁶) sohalaridagi olimlarning fikriga ko'ra, ta'lim muassasalarida ijtimoiy- pedagogik treningni samarali tashkil qilish uchun ushbu jarayoniga pioektiv yondashish, o'quvchini o'z shaxsiy tajribasiga tayangan holda o'rgatish, refleksiv anglash va bilish faolligini namoyon qilishini ta'minlash, ijtimoiy tajribasidan foydalanish, u bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lish hamda yaxshi moddiy-texnika bazasining mavjudligi talab qilinadi.

⁴Qarang: Голиш Л.В., Саидова Д.Т. Тренинг - форма оперативного повышения квалификации педагогических кадров (В вопросах и ответах): Учебно-методическое пособие. -Т.:ТГЭУ, 2008. -144 с.; Голиш Л.В. Педагогический мониторинг: проектирование и реализация // Проект ТАСИС «Содействие реформированию профессионального образования в Узбекистане». -Т., 2001. -43 с.

¹Qiuung: Гонеев А.Д. Основы коррекционной педагогики Учебное пособие для студентов IU.IC111 псд уч заведений/ Под ред. В.А.Сластенина. -М.: Академия, 2001. -280 с.

(Januig: Никуленко Т.Г. Коррекционная педагогика: Учебное пособие. -Ростов н/Д. Феникс, 2006. -381 с

⁶Qatang: Никитина НИ., Глухова.М.Ф. Методика и технология работы социального педагога. -М.: ВЛАДОС, 2007.

⁵Qarang: Подласый И.П. Педагогика: в 3-х кн.. кн. 3: Теория и технологии воспитания: учеб, для студентов вузов. -Москва: ВЛАДОС, 2007. 235-236-бетлар.

Proektiv yondashuv trening jarayoniga xuddi loyiha tarzidagi munosabatni shakllantirish orqali tarbiya jarayonining yaxlitligini, uning texnologik tarzda olib borilishini va kutilgan natija bilan yakunlanishini ta'minlaydi. Buning uchun avval korreksiya dan kutiladigan natija va maqsad aniqlanadi, vazifalar belgilanadi. So'ngra belgilangan vazifalarni bajarish uchun korreksiya yo'llari va vositalari tanlanib, kutilayotgan natijaga erishish uchun o'quvchi shaxsining rivojlanish jarayonini boshqarish amalga oshiriladi.

O'quvchini o'z shaxsiy tajribasiga tayangan holda o'rgatish - ijtimoiy pedagogik trening jarayonida modellashtirilgan sharoitda o'quvchi o'z tajribasi va shakllangan ko'nikmalar asosida o'rganadi, u yoki bu fazilat uning xulq-atvoriga aylanib boradi.

Refleksiv anglash - trening jarayonida o'quvchi samarali va samarasiz faoliyat modellarini kuzatish orqali ularni o'zidagi xulq-atvor algoritmlari bilan o'zaro taqqoslash imkoniga ega bo'ladi.

Bilish faolligi - o'quvchi tomonidan u yoki bu fazilatni shakllantirish yoki muammolarni hal qilishning samarali yo'llari va vositalarini o'zi tanlashida, o'z fikr va mulohazalariga ega bo'lishida namoyon bo'ladi. Bilish faolligi yuqori bo'lgan hollarda, zarur didaktik materiallar yetarli bo'lsa, o'quvchida o'z-o'zini korreksiya qilish imkoniyati tug'iladi.

O'quvchining ijtimoiy tajribasidan foydalanish - trening jarayonida o'quvchi o'zining ijtimoiy tajribasi, dunyoqarashi hamda qadriyatlariga tanqidiy nazar bilan qarashi mumkin. Bu hol uni o'z hayotiy tajribasini tahlil qilishiga, tajribaning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlashiga hamda boshqalarning samarali tajribasini o'z faoliyatiga tadbiiq qilishiga imkon beradi.

Ishchanlik muhiti va o'zaro do'stona munosabat o'quvchining trening jarayonida pedagog bilan erkin va samimiy munosabati shakllanishiga, bu jarayonga nisbatan qiziqish va xohishning shakllanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Bu shartning bajarilishi trening guruhi bilan ijtimoiy munosabatlarni oson modellashtirishni hamda guruh a'zolarining bir-birlariga o'zaro faol yordam berishlarini ta'minlaydi.

Moddiy-texnika bazasi deganda tarqatma materiallar va ko'rgazmali qurollar, ijtimoiy va kasbiy fazilatlarining trening ishtirokchilari o'z xatti-harakatlarida namoyon bo'lishini kuzatishlari uchun o'quv filmlari va video uskunalar nazarda tutiladi.


Shunday qilib, ijtimoiy pedagogik trening - pedagogik korreksiyaning guruhli tashkil etilgan shakli bo'lib, imkon qadar qisqa vaqt mobaynida o'quvchilar guruhini muvafaqqiyatli ijtimoiylashuviga yordam beradigan fazilatlar, malakalar va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bu fazilatlarini ularning xulq-atvor me'yorlariga aylanishiga yo'naltirilgan, bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy mashg'ulotlar tizimidir.

Ijtimoiy-pedagogik treningni tashkil qilish. Pedagogik korreksiya jarayonida o'quvchilar bilan ijtimoiy-pedagogik trening tashkil qilishda pedagog yoshlarga o'zi va boshqalarning imkoniyatlarini baholash, mavjud muammolarni mustaqil yoki guruh a'zolari bilan hamjihatlikda tahlil qilish va bartaraf etish, mustaqil qaror qabul qilish, o'z xatti-harakatlarini sodir etishdan oldin tahlil qilish va noto'g'ri baholashni o'rgatadi.

Ta'lim muassasalarida trening mashg'ulotlarini boshlashdan oldin guruhga kirmoqchi bo'lgan har bir shaxs to'g'risida ma'lumot yig'iladi va ularda bo'lajak korreksiyaga nisbatan ijobiy munosabat (ya'ni tarbiyaviy mobillik - maull.) shakllantiriladi.

Ijtimoiy pedagogik trening quyidagi tartibda tashkil qilinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- shaxs xulqi yoki faoliyatidagi mavjud muammo (agar shunday muammo mavjud bo'lsa) aniqlanadi;
- muammoni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabablar aniqlanadi;
- mavjud ma'lumotlar tahlil qilinadi va tahlil natijalariga asoslanib muammoni bartaraf qilish yuzasidan ishchi faraz ilgari suriladi;
- ishchi farazni tekshirish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlar to'planadi va tahlil qilinadi;
- ishchi faraz o'z tasdig'ini topmasa muammo shu tartibda takroran o'rganib chiqiladi.



2-rasm. Ijtimoiy-pedagogik trening sxemasi

18. Nikulenko T.G . Korrektsionnaya pedagogika: Uchebnoe posobie.-Rostov nG'd: Feniks,2006,381-s.
19. Usmonboyeva M, Mahmudova A, Yoshlar tarbiyasida moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligining shakllanganlik darajasini aniqlash metodikasi. Metodik qo'llanma.-T.2010-y.
20. Fridman L.M, Volkov K.N, Psixologicheskaya nauka-uchitelyu.-M.:Prosvehenie,1985.12-vet.

Axborot manbalari

21. WWW.tdpu.uz
22. WWW.pedagog.uz
23. WWW.ziyonet.uz
24. WWW.edu.uz
25. WWW.obr-nauka.muh.ru/content/doc

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Abdullayeva Sh. A. Ro'ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya Darslik Toshkent-2018
2. Steven M. Platek, Julian Paul Keenan, and Todd K. Shackelford. Evolutionary Cognitive Neuroscience. The MIT Press. Cambridge, Massachusetts, London, England. 2007. Massachusetts Institute of Technology.-637 p.
3. Rahmatova X. A. Pedagogik diagnostika va korreksiya Darslik Toshkent-2021.
4. Ovsyannikova S.K Pedagogicheskaya diagnostika i korrektsiya v vospitatelnom protsesse: Uchebno-metodicheskoe posobie. Nijnevartovsk: Izd-vo Nijnevart. Gumanityu un-ta 2011. – 243 s
5. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya G' o'quvqo'llanma.—Toshkent -177 b

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Faxriddinov Yoqubjon Pedagogik diagnostika va korreksiya O'quv qo'llanma Guliston 2022
7. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy taxlil, qa'tiiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir rahbar faoliyatning kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi BMning 2016 yil yakuni va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisdagu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqG'G' "Xalq so'zi " gaetasi.G' 2017 yil 16 yanvar, №11.
8. Golish L.V. Saidova D.T. Trening – forma operativnogo povo'sheniya kvalifkatsii pedagogicheskix kadrov (V voprosax i otvetax): Uchebno-metodicheskoe posobie. T.:TGEU. 2008. -144syu
9. Goneev A.D. Osnovo' korrekcionniy G' Pod red. V.A. Slastenina. – M.: Akadimiya 2001.280 s.
10. G'ulomov J.R. Kasb-hunar kolleji o'quvchilari tarbiyalanganligini tashxis qilishda pedgogika testlarning imkoniyatlari G'G' J.: "Pedagogika ta'lim" № 1 2011. –B 28-31
11. Ingenkamp K. Pedagogicheskaya diagnostika/perevod s nemetskogo.- M.1991.
12. Ishmuhammedov R va boshqalar. Ta'limda inovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.:Iste'dod,2008.-180-b.

Axborot manbalari

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

www.ziynet.uz

www.edu.uz

www.nutq.intal.

<https://bit.ly/3BO53LH> (*asosiy va qo'shimcha adabiyotlar jamlangan electron shaxsiy kutubxona*)

GLOSSARY

- Akademik litsey** – o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.
- Akademiya** - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshirishga imkon beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.
- Amaliy ishlar metodi** – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiruvchi usul.
- Anomaliya** (yunoncha “anomal”) – me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanish.
- Anomal bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish** – korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.
- Axloq** (lotincha “moralis” xulq-atvor) – ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.
- Axloqiy ong** – shaxsga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.
- Axloqiy tarbiya** – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.
- Aqliy tarbiya** – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.
- Baynalmillik** (“inter” orasida, o'rtasida, aro, “natio” xalq) – o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlarini, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon etkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilat.
- Bakalavriat** – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.
- Bashoratlash** – bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.
- Baho** – ta'lim oluvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondashishini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Bilim olish – borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Bilish – ob'ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni.

Vatanparvarlik (lotincha "patriotes" vatandosh, "patris" vatan, yurt) – shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Verbal – bilim (ma'lumot, axborot)larni so'z yordamida (og'zaki) etkazib berish, ifoda etish.

Gnoseologiya (yunonchadan "gnosis" bilim, ong, o'rganish) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo'lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot.

Davlat ramzlari – muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g'oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.

Davlat ta'lim standarti – 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.

Didaktika tamoyillari (lotinchadan "principium" har qanday nazariyaning asosiy, boshlang'ich, dastlabki holati) – ta'limni tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Didaktik tizim (yunoncha "systema" yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish.

Didaktik o'yin – o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

Dunyoqarash – tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.

Jazolash – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

Jamoa (lotincha "kollektivus" – yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) – bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jamoa an'analari – jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

Jamoaning norasmiy tuzilmasi – jamoa aʼzolari oʻrtasidagi shaxslararo maʼnaviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi, shuningdek, jamoada mikroguruhni tashqil qiluvchi ayrim shaxslar oʻrtasidagi tanlash munosabatlarining mazmuni.

Jamoaning rasmiy tuzilishi – turli koʻrinishdagi jamoa faoliyatini yoʻlga qoʻyishning tashkiliy jihatlari.

Jinsiy tarbiya – oʻzida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka oʻrgatish, oʻz sogʻligi uchun gʻamxoʻrlik qilish va masʼuliyatli boʻlishni taʼminlashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.

Jismoniy tarbiya – oʻquvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Idrok – aniq maqsadga yoʻnaltirilgan anglash jarayoni.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha “adapto” moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar – oʻquvchilarda maʼnaviy-axloqiy sifatlarni, eʼtiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuygʻusi va irodasiga taʼsir koʻrsatish usullari.

Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik gʻoyalarning tutgan oʻrni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yoʻnaltirish muammolarini oʻrganadi.

Izohlash (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchiga hissiy-ogʻzaki taʼsir etish usuli.

Ilmiy dunyoqarash – uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta oʻzlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuv.

Ilmiy qarash (yunoncha “idea” gʻoya, tasavvur, tushunchalar yigʻindisi) – muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, gʻoya.

Individ (lotincha “individuum” boʻlinmas, yagona, alohida) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik – shaxsning oʻziga xos xususiyatlari.

Institut – bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yoʻnalishlar boʻyicha oliy va qoidaga koʻra oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega taʼlim muassasasi.

Iqtisodiy tarbiya – oʻquvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oilaviy byudjetini shakllantirish, xoʻjalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, koʻpaytirish, savdo-sotiq munosabatlarini toʻgʻri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish koʻnikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Iqtisodiy ta'lim – o'quvchilarga xo'jalik yuritish tizimi (oilaviy byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Yosh xususiyatlari – muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash - mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'lim bosqichi.

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

Uzluksiz ta'lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi.

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Kategoriya – fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

Kompensatsiya (yunoncha “compensatio” o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) – oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayangan holda organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funktsiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurish.

Korreksiya (yunoncha “correctio” tuzatish) – pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.

Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya, yunoncha “defectus” nuqson, kamchilik, “logos” fan, ta'limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

Korreksion-pedagogik faoliyat – yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar – shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimi.

Ko'nikma – olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

Ko'rgazmali metodlar – predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

Litsey (kollejda) ma'ruza – o'quv materialini o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini faollashtirish uslublari bilan birgalikda davomli og'zaki bayon etish (80-90 minut), berilayotgan materialning sxematik modelini tuzish (asosiy fikrni tezis yoki loyiha ko'rinishida yozib olish) va boshqalar.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) – o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Logopediya (yunoncha “logos” so'z, nazariya, ta'limot, “paideia” tarbiyalash) – nutqiy nuqsonlarni o'rganish, ular kelib chiqishining oldini olish va ularni qisman yoki to'liq tuzatish masalalarini o'rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Magistratura – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim.

Madaniyat (lotincha “cultura” yaratish, rivojlanish, parvarish qilish, ishlov berish) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Maktabgacha ta'lim – bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Materialni og'zaki bayon qilish metodlari – o'quv materialini mohiyatini og'zaki (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo'llaniluvchi usullar.

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari – muayyan mashqyordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Ma'naviyat (arabcha “ma'naviyat” ma'nolar majmui) – mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

Ma'rifat – shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Ma'ruza – yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish shakli.

- Menejment** – mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta'sir o'tkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.
- Metod** (yunoncha “usul, maqsadga erishish yo'li”) – 1) tabiiy va ijtimoiy hodisalarni tadqiq qilish, bilish usuli; 2) pedagogik faoliyatni tashkil qilish usuli
- Metodika** (fan sifatida) – xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.
- Munozara** (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.
- Nazorat** (ta'lim jarayonida) – ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayoni.
- Oila** – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.
- Oilaviy munosabatlar** – ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.
- Oila tarbiyasi** – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas'ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama etuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.
- Oligofreniya** (yunoncha “olygos” kam, “phren” aql) – bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.
- Oraliq nazorat** – o'quvchilar tomonidan o'quv materialining muayyan bob yoki bo'limlari bo'yicha o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.
- Pedagogika** (yunoncha “paidagogike”, “paidagogos” bola etaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.
- Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari** – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.
- Pedagogik mahorat** – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.
- Pedagogik paradigma** (yunoncha “paradeigma” misol, namuna) – pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami; ta'limning kontseptual modeli.
- Pedagogik mahorat** – ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik talab – turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o'quvchi amal qilishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Rag'batlantirish – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Reyting (baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) – muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash.

Surdopedagogika (yunoncha “surdus” kar) – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi fan; korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

Tamoyil (yunoncha “principium”) – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni – o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni – shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha “metodos” yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tafakkur – ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

Tashhis – didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Ta'lim – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'lim metodlari – ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.

Ta'lim muassasi Ustavi – ta'lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.

Ta'lim kontseptsialari (lotinchadan “conceptio” tizim) – ta'lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Ta'lim mazmuni – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi etakchi g'oya.

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta'limni boshqarish – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o'rganadi.

Ta'limning sinf-dars tizimi – dars shaklida muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo'yicha olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Ta'lim tizimi – davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui.

Ta'lim shakli – ta'lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) – o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlik.

Tiflopedagogika (yunoncha “typhlos” ko'r) – ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini o'rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Test – aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Topshiriq – o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul.

Tushuntirish – o'quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

To'garak – o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki maktabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo'shimcha ta'lim shakli.

Umumiy pedagogika – maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

Umumiy o'rta ta'lim – o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish bosqichi.

Universitet – kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Usul – muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.

Faoliyat – shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish – uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Ekologik ong – tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi.

Ekologik faoliyat – ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

Estetik qiziqish – shaxsning estetik faoliyatiga, voqelik va san'at asarlarini estetik jihatdan o'zlashtirishga kirishi.

Estetik ehtiyoj – shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi sub'ektiv omil (ichki intilish).

Estetik his-tuyg'u – insonning voqelikka, kishilarga, o'z faoliyatiga nisbatan munosabati.

Estetik did – estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy me'yorlar yig'indisi orqali shakllanib, shaxsning buyum, hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladigan hodisa.

Estetik mulohaza – shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakati.

Estetik ideal – sub'ekt bilan ob'ekt, inson bilan ijtimoiy butunlikning tarixan eng to'liq uzviy birligi bo'lib, bu birlik tub maqsadlar sifatida inson ijodiy kuchlarining erkin va har tomonlama rivojlanishida o'z ifodasini topadi.

Estetik qarash – estetik ongning g'oyaviy negizi, tabiat, hayot, san'at mohiyati haqidagi fikr-mulohazalar va g'oyalar tizimi.

Estetik ong – shaxsga nazariy tushunchalar asosida predmet, buyum, voqelik va hodisalar mohiyatini estetik baho baholay olish imkonini beruvchi his-tuyg'ular, sezgilar, tasavvur va qarashlar shakli.

E'tiqod – dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy, hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch.

Yakuniy nazorat – ta'lim oluvchilarning chorak yoki yarim yillik uchun belgilangan o'quv materiallari bo'yicha o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

O'z-o'zini baholash – mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari – o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullar.

- O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish** – o'z shaxsi, mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.
- O'z-o'zini qayta tarbiyalash** – shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayoni.
- O'zlashtirish** – ta'lim jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.
- O'rgatish** – tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.
- O'qituvchi (pedagog)** – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.
- O'qish** – ma'lum usullar yordamida tashkil etilgan bilimlarni o'rganish jarayoni; o'quvchilar tomonidan o'quv faoliyati usullarini egallab olishga yo'naltirilgan faoliyat.
- O'quvchilar jamoasi** – ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o'quvchilar birlashmasi, guruhi.
- O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi** – o'quvchilarning jamoa faoliyatini uyushtirish va boshqarishdagi faol ishtiroklari.
- O'quv qo'llanmasi** – 1) ma'lum o'quv fanlari bo'yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o'qituvchi yoki o'quvchilar uchun mo'ljallangan manba; 2) muayyan fan bo'yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o'quv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo'shimcha o'quv materiallari.
- Hikoya** – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.
- Hisobga olish** – ta'limning muayyan davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirish, xulosalash.
- Huquqiy madaniyat** – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.
- Huquqiy ong** – muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.
- Madaniyat** (lotincha “cultura” yaratish, rivojlanish, parvarish qilish, ishlov berish) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.
- Mazmun** (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.
- Maktabgacha ta'lim pedagogikasi** – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.

Maktabdan tashqari ta'lim – madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim bosqichi.

Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Pedagogik korreksiya ni individual shaklda tashkil etish: tushuntiruvchi suhbat metodikasi

Pedagogik korreksiya jarayonida tushuntiruvchi suhbat oldindan rejalashtirilgan maqsad asosida erkin tarzda o`tkazilishi maqsadga muvofiq. Bunda muhoqot ancha erkin vaziyatda o`tkazilib, muamm o yuzasidan o`quvchiga yetarlicha aniq ma`lumot beriladi. Muamm oning mohiyati, uning kelib chiqish sabablari, bu sabablarni bartaraf qilish (yechim) yo`llari ham da har bir yechim yo`lining o`ziga yarashtirish afzallik va kamchilik tomonlari birgalikda baholanib hamda tahlil qilinib, ular ichidan maqsadga muvofiq`i (yoki muvofiq`lari) tanlanadi.



- Pedagogik korreksiya ni individual shaklda tashkil qilinishi o`quvchining shaxsiy sifatlarini muvafaqiyatli ijtimonlashuviga qanchalik muvofiq ekanligini anglashiga, tanlagan hayotiy va kasbiy faoliyat yo`nalishlari yuzasidan qarorining qay darajada maqsadga muvofiq ekanligini mustaqil baholashiga, o`zligini anglashiga hamda ko`zlagan maqsadiga erishishi uchun eng samarali yo`lni tanlashiga yordam beradi.

Pedagogik koreksiya guruhli shaklda o`tkazish: ijtimoiy-pedagogik trening

Ta`lim muassasasida pedagogik koreksiya jarayonida o`quvchilarning ma`naviy-ahloqiy fazilatlarini, ijtimoiy va (yoki) kasbiy zarur sifatlarini shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni guruhli shaklda o`tkazishda ijtimoiy-pedagogik trening texnologiyalaridan samarali foydalanish mumkindir. Pedagogik koreksiyaning guruhli shakllarida trening mashg`ulotlarini o`tkazish psixologiya va sotsiologiya fanlari sohalaridagi tajribalarga asoslangan.



- **Ijtimoiy-pedagogik trening: mazmuni, maqsadi, vazifalari va tamoyillari.**
- **Trening (ingliz tilida – maxsus tartibdagi mashq) nazariy bilim berish minimallashtirilib, asosiy diqqat – qisqa muddatda shaxs faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan, trening dasturi bilan aniq qilib belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.** Psixologlar treningdan shaxsdagi mavjud bo'lgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadida turli hil o'yin va mashqlar orqali o'tkaziladigan mashg'ulot vositasida foydalanadilar. Turli mualliflar treningga ta'rif berishda turlicha yondashgan bo'lsalarda, ularning aksariyati trening mashg'ulotlari o'yin va mashqlar orqali amalga oshirilishini va trening jarayonida ko'nikma va malakalar shakllanishini ta'kidlaganlar.



Ijtimoiy-pedagogik trening mashg'ulotlarining har birida tanlab olingan muammo yuzasidan ma'lum holat va vaziyatlar nazarda tutilgan bo'lib, mashg'ulotlarning umumiy mazmuni quyidagilardan iborat bo'ladi:

- guruh a'zolarining bir-birlari bilan tanitirish;
- guruh a'zolarini birgalikda umumiy qabul qilgan me'yor (ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, korporativ va shu kabi)larga amal qilishga o'rganish;
- guruh a'zolarining o'z muammolarini gapirishlariga, o'z fikrlarini bildirishlariga sharoit yaratish;
- guruh a'zolari o'rtasida o'zaro do'stona muhit yaratish;
- guruh a'zolarining o'zaro jipsligini, ahilligini ta'minlash;
- guruh a'zolarida turli xil hayotiy ko'nikma va malakalarni hosil qila oluvchi mashg'ulotlar tashkil etish.

Pedagogik faoliyatning har qanday turi kabi, ijtimoiy-pedagogik trening ham o'z maqsadi va vazifalariga ega. Ijtimoiy-pedagogik treningning asosiy maqsadi – qisqa muddatda 3-14 kishilik guruhni muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.




- Pedagogik korreksiya individual va guruhli shakllarda tashkil qilinishi mumkin bo'lib, bunda korreksiya qilinishi zarur bo'lgan muammoning umumiy ligi hamda o'quvchilarning o'ziga xos jihatlari hisobga olinishi zarur.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5110900 – Pedagogika va psixologiya

Guliston - 2020

Fan/modul kodi PDK17PP		O'quv yili 2021-2022	Semestr 3-4	ECTS - Kreditlar 10	
Fan/modul turi Tanlov fan		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4/6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Pedagogik diagnostika va korreksiya	150		150	300

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan *maqsad*-talabalarga "Pedagogik diagnostika va korreksiya" fanining ilmiy nazariy asoslari, shaxs, metod va tamoyillari bilan tanishtirib, ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, pedagogik hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy-pedagogik dunyoqarashni shakllantirish *vazifalarini* bajaradi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-QISM. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA

1-Mavzu: Pedagogik diagnostika va korreksiyaning nazariy asoslari. Pedagogik diagnostika tamoyillari va funksiyalari.

Pedagogik diagnostika pedagogikaning ilmiy va amaliy sohasi sifatida. "Pedagogik diagnostika" tushunchasining mohiyati. Pedagogik diagnostikaning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Pedagogik diagnostikaning asosiy funksiyalari. Pedagogik diagnostikaning shaxs rivojlanishidagi o'rni. Pedagogik diagnostika va korreksiyaning umumiy tavsifi. Pedagogik diagnostika funksiyalari va ijtimoiy tamoyillari. Pedagogik diagnostikaning jamiyatimizdagi yosh avlod ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdagi ahamiyati. Pedagogik diagnostika tamoyillari. Pedagogik diagnostika funksiyalari. Diagnostikaning maqsadga yo'naltirilganligi

2-Mavzu: Pedagogik diagnostika o'tkazish yo'llari va keng qo'llaniladigan metodlari. Kuzatish, so'roqlash va test metodi

O'quvchilar orasida pedagogik diagnostikani tashkil qilish. Pedagogik diagnostikani o'tkazish yo'nalishlari Pedagogik diagnostika metodlari. Og'zaki so'rov yoki intervyu. Sub'ektlarning odatdagi an'anaviy bilim va ko'nikmalarini tekshirish. O'quv muassasalarida tahsil oluvchilarning intellekt darajasini aniqlash

3-Mavzu: Pedagogik diagnostikada o'quvchilar yosh xususiyatlarining o'ziga xosliklari.

Ta'limni tashxis etish va pedagogik diagnostika

Pedagogik diagnostika jarayonida yosh davrlari xususiyatlarini inobatga olish. Ta'lim jarayonida yosh davrlari xususiyatlarini inobatga olish va yoshlarda axloqiy tushunchalarni oqilona shakllantirish. O'quvchilar bilimni tashxis etishning mohiyati. Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olishning vazifalari. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan talablar. O'quv faoliyati

natijalarini hisobga olish turlari, shakl va metodlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari

**4-Mavzu: Ta'lim-tarbiya jarayonida o'lchash va shkalalashning asosiy yo'nalishlari
O'lchovning metodik sifat talablari.**

O'lchash va shkalalashning maqsadi. Diagnostikada shkalalash. Diagnostikada ta'limning o'ziga xos tomoni Pedagogik diagnostikada o'lchovning natijalari. Ma'lumotlarni tahlil qilishning ob'ektivligi. Pedagogik diagnostikada ilmiy kuzatish va uning turlari

**5-Mavzu: Uzlüksiz ta'lim bosqichlarida pedagogik diagnostika va korreksiyalashning
pedagogik shart-sharoitlari**

Uzlüksiz ta'lim tizimida pedagogik diagnostika mazmuni. Yoshlar jamoasida ijtimoiy pedagogik diagnostika o'tkazish tartiblari. Jamoada ijobiy an'analarni qaror toptirish

6-Mavzu: Tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda pedagogik diagnostika va korreksiyaning o'rni
Yoshlarni diagnostika qilish va korreksiyalashning bosh maqsadi. Tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga qo'yilgan pedagogik talablar. Yoshlar bilan o'ttkaziladigan tadbirlarni tashkil qilishning tartibi

7-Mavzu: Tarbiyalanganlik darajasini aniqlashda oila diagnostikasidan foydalanish.

Pedagogik me'yordan og'ishlikning xususiyati

Pedagogika va psixologiyada ota-onalar bilan ish olib borishga doir turli xil yondashuvlar. Oiladagi sog'lom muhit ta'siri. Oilada pedagogik muhitni tashxislash

Pedagogik me'yordan chetga chiqish. Me'yordan chiqish tiplari va unga xarakteristika. Bolalarda me'yordan og'ish (deviasiya) holatlari. Deviasiya tiplari. O'smirlarda deviantik xulqning sabablari.

**8-Mavzu: Ijtimoiy pedagogik tashxis. Oila tashxisi. Tashxis markazlarining bola tarbiyasida
tutgan o'rni va ahamiyati**

Ijtimoiy pedagogik tashxis. Oila tashxisi, oila bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat. Tashxis markazlarining bola tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati. Tashxis markazlarining bola tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati

**9-Mavzu: Pedagogik jihatdan qarovsiz qolgan bolalar xulq – atvori, xarakteri
xususiyatlarini diagnoz qilish va korreksiyalash.**

Oilaning ijtimoiy mavqei va unda bolalar tarbiyasi. Qarovsiz qolgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish. Bolalardagi diagnostik jihatdan o'rganilgan xususiyatlarni tahlil qilish va korreksion ishlarni olib borish.

**10-Mavzu: Kasbiy faoliyatni pedagogik-psixologik baholash testi. Psixologik va pedagogik
maslahatlar asoslari.**

Tashxis markazlarining maqsad va vazifalari. Ijro intizomi va madaniyati haqida mulohazalar. Rahbardagi pedagogik qobiliyatlarni aniqlash. Psixologik va pedagogik maslahat iborasini eshitganingizda fikringizga qanday so'zlar, iboralar keladi. Psixologik va pedagogik maslahatlarni samarali tashkil etishning shart-sharoitlari haqidagi fikrlar munozarasi. Psixologik va pedagogik maslahat ishlarining mazmuni, bosqichlari asosiy qoidalari (Kichik guruhlarda ishlash metodi orqali)

2-QISM. PEDAGOGIK KORREKSIYA

1-mavzu. Pedagogik korreksiyaning maqsadi va vazifalari.

Qomusiy lug'atda "korreksiya" so'zi. Pedagogik korreksiya - tarbiya jarayonida yoshlarning ma'naviy- ma'rifiy sohalarida oldin yo'l qo'ygan nuqsonlarini bartaraf etish jarayonidir. Pedagogik korreksiyaning maqsadi va vazifalari

2-mavzu. Pedagogik korreksiyaning umumpedagogik va maxsus tamoyillari.

Umumpedagogik tamoyillardan pedagogik korreksiya uchun ahamiyatli bo'lganlaridan biri - pedagogik jarayonning maqsadga yo'naltirilganligidir. Maqsad, huddi qonunga o'xshab, kishi faoliyatining xarakteri va vositasini belgilaydi. Pedagogik korreksion faoliyatda korreksion,

profilaktik va rivojlantiruvchi vazifalarning birligi va o'zaro bog'liqligi tamoyili.

3-mavzu. Pedagogik korrektsiya metodlari.

Pedagogik korrektsiyada umumtarbiyaviy metodlarni qo'llanilishi. Ishontirish, mashq qildirish, qayta ishontrish, ogohlantirish, rag'batlantirish va jazolash

4-mavzu. Pedagogik korrektsiyada ta'limning ma'lumot beruvchi metodlaridan foydalanish.

Pedagogik korrektsiyada ko'rgazmalilik metodi namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya tariqasida olib borilishi manikin. Pedagogik korrektsiyada interfaol metodlarni qo'llash «Rezyume», «Muammo», «Labirint», «Elpi g'ich», «Muloqot», KB I (kuzatish, baxslashish, ishontrish) kabi metodlar

5-mavzu. Maktab o'quvchilarini pedagogik korrektsiya qilishda qo'llaniladigan metodlar.

“Do'stinga yordam”, Frustratsiya va deprivatsiyani bartaraf etuvchi korrektsiya me to di, O'zlashtirishi past o'quvchilarni korrektsiya qilish metodi. Ijtimoiy adaptatsiyani korrektsiya qilish metodi. Bolalar bilan ishlash uchun korrektsion metodlar.

6-mavzu. Pedagogik korrektsiyani individual va guruhli shakllarda tashkil etish

Pedagogik korrektsiyani individual shaklda tashkil etish: tushuntiruvchi suhbat metodikasi. Tushuntiruvchi suhbat metodikasining xususiy tamoyillari.

7-mavzu. Pedagogik korrektsiyani guruhli shaklda o'tkazish: ijtimoiy-pedagogik trening.

Ijtimoiy-pedagogik trening: mazmuni, maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Ijtimoiy-pedagogik treningni tashkil qilish.

8-mavzu. Pedagogik korrektsiyada neyrolingvistik dasturlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish.

Neyrolingvistik dasturlashtirish to'g'risida umumiy tushunchalar. Neyrolingvistik dasturlashtirishning asosiy tamoyillari

9-mavzu. Neyrolingvistik dasturlashtirishning asosiy texnikalari.

“Shaxs holatini o'zgartirish: XN-ESh” modeli. Langar joylashtirish texnikasi. “Men” obrazini o'zgartirish texnikasi.

10-mavzu. Shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirish texnologiyasi.

Shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirish texnologiyasining tayyorgarlik ko'rish fazasi. Shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirish texnologiyasining tayyorgarlik ko'rish fazasi mazmuni.

11-mavzu. Pedagogik korrektsiyani samarali tashkil etishning shart-sharoitlari

Shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirish texnologiyasining asosiy fazasi. Pedagoglarni diagnostic va korrektsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi

22-mavzu. Psixolog –pedagogik konsilium.

Psixolog –pedagogik konsilium mazmun mohiiyati. O'quvchi shaxsining psixo-pedagogik jihatdan o'rganish.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiyalar.

Fan bo'yicha olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar ma'ruza mavzulari asosida tuzilgan bo'lib, o'tiladigan fanni har tomonlama o'zlashtirishga yordam beradi. Amaliy mashg'ulotda darslarida talaba berilgan laboratoriya ishlarni mustaqil metodik ko'rsatmalar asosida bajaradi.

Bunda pedagogik diagnostika va korreksiya fanining bo'limlari alohida amaliy ishlar bilan yoritilgan bo'lib, har bir bo'lim chuqur o'rganib chiqiladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Pedagogik diagnostika va korreksiyaning nazariy asoslari
2. Pedagogik diagnostika tamoyillari va funktsiyalari
3. Pedagogik diagnostika o'tkazish yo'llari va keng qo'llaniladigan metodlari
4. Pedagogik diagnostikaning metodlari (kuzatish)
5. Pedagogik diagnostikaning so'roqlash va test metodi
6. Pedagogik diagnostikada o'quvchilar yosh xususiyatlarining o'ziga xosliklari
7. Ta'limni tashxis etish va pedagogik diagnostika
8. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'lchash va shkalalashning asosiy yo'nalishlari O'lchovning metodik sifat talablari
9. Uzlaksiz ta'lim bosqichlarida pedagogik diagnostika va korrektsiyalashning pedagogik shart-sharoitlari
10. Tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda pedagogik diagnostika va korreksiyaning o'rni
11. Tarbiyalanganlik darajasini aniqlashda oila diagnostikasidan foydalanish
12. Pedagogik me'yordan og'ishlikning xususiyati
